5. C. S. Malvi, D. W. Dixon-Hardy, and R. Crook, ‘Energy balance model of combined photovoltaic solar-thermal system incorporating phase change material’, *Sol. Energy*, vol. 85, no. 7, pp. 1440–1446, 2011, doi: 10.1016/j.solener.2011.03.027.

6. W. Marańda and M. Piotrowicz, ‘Extraction of thermal model parameters for field-installed photovoltaic module’, *2010 27th Int. Conf. Microelectron. MIEL 2010 - Proc.*, no. June 2010, pp. 153–156, 2010, doi: 10.1109/MIEL.2010.5490512.

7. B. Herteleer, A. Kladas, G. Chowdhury, F. Catthoor, and J. Cappelle, ‘Investigating methods to improve photovoltaic thermal models at second-to-minute timescales’, *Sol. Energy*, vol. 263, no. December, 2023, doi: 10.1016/j.solener.2023.111889.

8. Y. Chaibi *et al.*, ‘Physical models for the design of photovoltaic/thermal collector systems’, *Sol. Energy*, vol. 226, no. August, pp. 134–146, 2021, doi: 10.1016/j.solener.2021.08.048.

9. F. Veynandt, P. Klanatsky, H. Plank, and C. Heschl, ‘Hybrid photovoltaic-thermal solar collector modelling with parameter identification using operation data’, *Energy Build.*, vol. 295, no. March, p. 113277, 2023, doi: 10.1016/j.enbuild.2023.113277.

10. Aliqulov R.B., Fotoelektrik-issiqlik batareyalarning samaradorligini oshirishda nanosuyuqlik foydalanish: Adabiyotlar sharhi. 2025-yil 3–4-oktyabr kunlari “Jahon miqyosida yashil iqtisodiyot va to‘rtinchi sanoat inqilobi doirasida qayta tiklanuvchi energetikaning roli: innovatsiyalar, texnologiyalar va barqaror rivojlanishni ta’minlash” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.bet 289-293



004.93'1

TIBBIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING USUL VA ALGORITMLARI

Tursunov Alisher Tulkunovich,

Toshkent farmasevtika instituti, Fizika matematika va
axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, t.f.f.d., (PhD)
tursunovr484za@gmail.com

Nishanov Axram Xasanovich,

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti izimli va amaliy
dasturlashtirish kafedrası professori, t.f.d., prof.
nishanov_akram@mail.ru

Narzullayev Davronbek Zikrullayevich,

Toshkent farmasevtika instituti, Fizika matematika va
axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, t.f.n, dots.
davr1960@mail.ru

Rahmonov Erkin Davlatjonovich,

Toshkent farmasevtika instituti, Fizika matematika va
axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, t.f.f.d., (PhD)
erkindavlatovich1988@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tibbiyot va farmasevtika sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu maqolada ko'pgina tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilishda, shu jumladan farmasevtik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda turli texnik nazorat turlari va kompyuterda ishlov berish orqali vositalarini qo'llash usul va algoritmlari keltirilgan. Bu esa sog'liqni saqlash sohasida ekstremal fiziologik va jismoniy ko'rsatkichlarga erishishni rejalashtirishga imkon beradigan maxsus dastur va texnologiyalarni ishlab chiqish asosida nomiqdoriy tibbiy ma'lumotlar tahlil qilish usul va algoritmlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nomiqdoriy tibbiy ma'lumotlar, ma'lumotlarni yig'ish, belgilar turini o'zgartirish, intellektual tahlil, boshlang'ich ma'lumotlarda yashirin qonuniyatlarni qidirish va statistik usullar, klasterlash algoritmlari.

Kirish. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tibbiyot va farmasevtika sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilishda, shu jumladan farmasevtik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda turli texnik nazorat va kompyuterda ishlov berish vositalarini qo'llamasdan turib, yutuqlarga erishib bo'lmaydi. Bu esa sog'liqni saqlash sohasida ekstremal fiziologik va jismoniy ko'rsatkichlarga erishishni rejalashtirishga imkon beradigan maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yechilishi lozim bo'lgan vazifalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, har bir inson murakkab tizim

sifatida qaraladi, uning holati ko'plab turli omillarga bog'liq. Ba'zi omillarning namoyon bo'lishi test natijalari va musobaqalar orqali kuzatib boriladi. Boshqa omillar yashirin, latent va har bir individ uchun o'ziga xos bo'lib, genetik asosga ega. Muammo fiziologik, genetik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi qonuniyatlarni topishdan iborat. Mutaxassilar ko'pincha o'z tajribasi va intuitsiyasiga asoslanib qaror qabul qilishadi. Bu ko'pincha koz'langan maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lmaydi[2]. Ko'zlangan ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda jiddiy muammolar mavjud bo'lib, yuqorida tavsiflangan muammolarni hal qilish vositalaridan biri



sifatida ma'lumotlarni yig'ish usullari (DMM) taklif etiladi. Ushbu usullar tadqiqot obyektlari - (jadval qatorlari) va ushbu obyektlarni tavsiflovchi atributlar (jadval ustunlari) dan iborat tajriba ma'lumotlari jadvali shaklida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarni talab qiladi. Ushbu maqolada bunday jadvaldagi ma'lumotlarni yaratish va qayta ishlash ko'rib chiqiladi. Tibbiy ma'lumotlat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Masalan jismoniy mashqlarning yurak-qon tomir kasalliklariga ta'siri va uning xavfini, shuningdek, kasalliklarning oldini olish uchun turmush tarzini o'zgartirishni o'rganadi. Insonlarning qon bosimiga ta'sir etuvchi dori vositalari harakatlanuvchi obyektga reaksiyasini baholash metodikasi o'rganilgan[3]. Insonlarning qon bosimlariga ta'sir etuvchi turli xil belgilar fazosida ifodalangan dori vositalarini guruhlariga ajratish algoritmi va dasturiy majmuasini ishlab chiqish tadqiq etilgan. Natijalar inson qon bosimiga ta'sir etuvchi dori vositalari kesimida tajriba sinovdan o'tkazilgan[4]. Taklif etilgan algoritmdan foydalanib klasterizatsiya masalasi yechilgan va o'quv tanlanma shakllantirilgan. Tanlanma belgilari turli xil turda berilgan bo'lib, ular nominal va qiymatli belgilardan iborat bo'lgan. Ishlab chiqilgan algoritm ikkala turdagi belgilarni inobatga olgan holda ishlaydi. Algoritm va dasturiy majmuadan foydalangan holda tajriba-sinovdan o'tkazilgan. O'quv tanlanma obyektlarining o'z sinflarini to'g'ri topishi neyron to'rlariga asoslangan[5].

Qon bosimiga ta'sir etuvchi har xil turdagi dori-vositalarni klasterlash ularni ta'sir mexanizmlari, kimyoviy tuzilmalari yoki terapevtik ta'siridagi o'xshashliklari asosida tasniflashni o'z ichiga oladi. Bu vazifa tibbiyot mutaxassislari uchun davolash rejalarini optimallashtirish, bemorlarni tushunishni yaxshilash va tadqiqotlarni osonlashtirish uchun juda muhimdir[6].

Dori vositalarini qon bosimiga qanday ta'sir qilishiga qarab guruhlariga ajratiladi. Qon bosimining ortishining aniq sabablari haqida turli xil farazlar mavjud bo'lsada, glikogen zaxirasining kamayishi, charchoq, immunitetning buzilishi, oksidlovchi stressning kuchayishi, gipotalamusning buzilishi va

sportchi tanasidagi yallig'lanish jarayonlari OTS rivojlanishiga psixologik va tashqi omillarning ta'siri ham shubhasiz aniq omillar hisoblanadi[7]. Bundan tashqari, olimlar ichak gelmintlari va patogen protozoylarning OTS rivojlanishi va intensivligining oshishiga ta'sirini ko'rsatdilar va ularni yo'q qilish usullarini aniqladilar. Jismoniy mashqlar jarayonida UJTning rivojlanishi insonlarning ish qobiliyatiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda shifokorlar uchun TTS rivojlanishida yuqorida ko'rsatilgan barcha omillarni hisobga olishning iloji yo'q. Biroq, axborot modeli yordamida bir vaqtning o'zida insonlarning barcha ma'lumotlarini, shu jumladan tibbiy testlar natijalarini tahlil qilish, OTS rivojlanishini bashorat qilish va aniqlangan anomaliyalarni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish mumkin bo'ladi[8].

Ushbu maqolada insonlarning qon bosimiga ta'sir etuvchi dori vositalari ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullarini qo'llash, ya'ni qon bosimini ta'sir etuvchi nomiqdoriy dori vositalarini sinflarga ajratib, natijalarni bashorat qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada quyidagi usullardan foydalanilgan: ma'lumotlarni qidirish, belgilar turini o'zgartirish, boshlang'ich tavsif maydonining o'lchamini kamaytirish, interval tahlil, boshlang'ich ma'lumotlarda yashirin qonuniyatlarni qidirish, farmasevtlar va shikoforlar so'rovnomalari, statistik usullar[9]. Tadqiqot natijasida 302 satrdan va 49 ustundan iborat (insonlarning salomatligi uchun xavf omillari) tajriba ma'lumotlar jadvali (TMJ) tuzildi. Turli yosh va jinsdagi insonlarda qon bosimining ortishi bilan xavotir va qo'rqish 49-belgi (xavf omili) sifatida qabul qilingan. Insonlarning salomatligi uchun xavf omillarini baholash usullari sifatida ma'lumotlarni yig'ish usullari tanlandi. Masalan, avtomatik tasniflash masalasini yechishda (EDT obyektlari (qatorlari) to'plamini bir-birini qoplamaydigan sinflarga bo'lish) eng yaqin qo'shni algoritmi tanlangan. Bunda TMJning barcha xarakteristikalar (ustunlari) miqdoriy bo'lishi kerak (barcha matematik amallar bajariladi). Dastlabki EDT tasniflash va sifat belgilarini o'z ichiga olganligi sababli, ushbu belgilarni raqamlashtirish orqali



miqdoriy belgilarga aylantirish imkonini beruvchi belgi turlarini o'zgartirish usullari qo'llanilgan. O'rganilayotgan masalani matematik modellashtirishda taklif etilgan usullardan foydalanildi. Insonlarning sog'lig'iga eng katta ta'sir ko'rsatadigan eng muhim xavf omillarini aniqlash uchun obyektlarni tavsiflash uchun asl belgilar fazosining o'lchamini kamaytirish usullari qo'llanildi[14]. Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun ushbu maqola mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan hamda SITO-PC intellektual ma'lumotlarni tahlil qilish tizimidan foydalanildi.

Ma'lumotlarni qidirish - bu ma'lumotlardagi yashirin qonuniyatlarni topishga asoslangan qarorlarni qo'llab-quvvatlash jarayoni. Bunda to'plangan axborot bilim sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan axborotga avtomatik tarzda sintezlanadi[10,11].

Umuman olganda, DM jarayoni uch bosqichdan iborat (1-rasm)

-qoliplarni aniqlash;

- noma'lum qiymatlarni bashorat qilish uchun aniqlangan qonuniyatlardan foydalanish (bashoratli modellashtirish);

- istisno tahlili, u topilgan qonuniyatlardagi anomaliyalarni aniqlash va talqin qilish uchun mo'ljallangan.



1-rasm. Ma'lumotlarni izlash bosqichlari.

Zamonaviy DM texnologiyalari yangi bilimlarni yaratish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash, yuqori malakali sportchilarning kelajakdagi salomatlik holati va ko'rsatkichlarini bashorat qilish imkonini beradi. DM usullari asosida axborot modelini qurishning maqsadi sportchilarning tibbiy, fiziologik ko'rsatkichlarini tavsiflovchi ma'lumotlar bazalarida yashirin qonuniyatlarni aniqlash va ushbu qonuniyatlar asosida insonlar salomatligi uchun xavf omillarini har tomonlama baholashni ta'minlash, shuningdek, yuqori qon bosimiga ega insonlar aniqlangan qonuniyatlar va kamchiliklarni bartaraf etish tartibini ishlab

chiqishdan iborat. EDTni qayta ishlashda SITO-PC intellektual ma'lumotlarni tahlil qilish tizimidan foydalanish insonlar salomatligi uchun eng muhim (ma'lumot beruvchi) xavf omillari to'g'risida xulosa qilish imkonini berdi[12,13].

Keyingi o'rinda obyektlar o'xshashligi va amaliy natijalar tahlili asosida klasterlash algoritmini ko'rib chiqamiz. Tahlil turli vazn toifasidagi 252 nafar insonlarning ma'lumotlarini klasterlashdan iborat bo'lib, jadvalga kiritildi. Bitta nominal belgi va 47 ta miqdoriy belgilar tahlil qilindi. Ular qisman quyidagi jadvalda keltirilgan:(1-jadval)

1-jadval.Insonlarning salomatligiga ta'sir etuvchi omillari to'g'risida ma'lumot.

№	F.I.O.	1-xavf omili	2-xavf omili	3-xavf omili	4-xavf omili	5-xavf omili	...	48-xavf omili	49-xavf omili
1.	x_1	0,10	96.	1.	10.	2.	...	4,51	20,72.
2.	x_2	0,10	85.	2.	20.	2.	...	7,85.	14,36.
3.	x_3	0,50	88.	2.	25.	2.	...	3,87	25,48
4.	x_4	0,03	89.	2.	50.	2.	...	16,87	15,64.
5.	x_5	0,20	91.	1.	15.	2.	...	19,20	25,63
6.	x_6	0,50	93.	2.	25.	1.	...	4,89	48,65
...	...	...	...	...	...	...	...	...	...
251.	x_{251}	0,25	74.	2.	14.	2.	...	3,41	10,26.
252.	x_{252}	0,5	72.	1.	28.	2.	...	4,85.	12,48.

Bu yerda, 1-xavf omili D vitamini tanqisligi, 2-xavf omili - ratsionda temir tanqisligi, 3-xavf omili - temir so'rilishining buzilishi, 4-xavf omili - gemoglobinning fiziologik yo'qolishi, 5-xavf omili - sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bo'lgan shaxslai (ayniqsa surunkali infeksiya o'choqlari, shuningdek, o'tmishdagi revmatizm, yurak, jigar va buyraklarning yallig'lanish kasalliklari, tug'ma nuqsonlar va yurak nuqsonlari xavfli hisoblanadi) va hokazo; 48-xavf omili - bosh miya jarohatidan keyin qabul qilish qoidalarini buzgan holda yiqilishlar, shuningdek, qo'shimcha 49-xavf omili - turli yosh va jinsdagi insonlarda havotir va qo'rqish omillari keltirilgan[11].

Klasterlash masalasining yechimini topish uchun [14] da taklif etilgan algoritmdan foydalanildi.



Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, dastlabki ma'lumotlarning beshta sinfga bo'linishi ko'rsatilgan. Xususan, tahlilda klasterlash masalasi tadqiq etilgan bo'lib, bunda 1116 ta qon bosimiga ta'sir etuvchi turli xil belgilar fazosida berilgan dori-vositalari jadval ko'rinishda olingan. Bunda bitta nominal belgi va to'qqizta miqdoriy belgi tadqiq etilgan.

Klasterlash masalasini yechimini topish uchun quyidagi algoritmlar taklif etilgan.

Algoritmlar quyidagi bandlardan iborat:

1-Birinchii qadam. Dori vositalar ma'lumotlari $\mathbf{x}_i = (x_i^1, x_i^2, \dots, x_i^N) \in \mathbf{X}$, $i = \overline{1, M}$; ga dastlabki ishlov beriladi. Bunda tushib qolgan ma'lumotlar to'ldiriladi, anomal ma'lumotlar o'rta qiymatga almashtiriladi va miqdoriy belgilar

$$\epsilon^j = \frac{1}{M-1} \sum_{i=1}^{M-1} |x_{pi}^j - x_{pi+1}^j|$$

asosida normirovka qilinadi. Bu yerda $j = \overline{1, N}$; $p = \overline{1, r}$; $i = \overline{1, M-1}$; ga teng.

2-Ikkinchi qadam. O'quv tanlanma obyektlari ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Boshlang'ich ma'lumotlar bazasi barcha $\mathbf{X}_p$, $p = \overline{1, r}$ sinf obyektlari kesimida shakllantiriladi;

3-Uchinchi qadam. $\mathbf{X}_p$ sinf obyektlarining o'z sinfini shakllanishiga qo'shgan xissasini baholashni aniqlashda ishlatiladigan nominal belgilar fazosida obyektlarning o'xshashligini ko'rsatuvchi kattalik va sonli belgilar fazosida obyektlarning o'xshashligini ko'rsatuvchi kattalik formulaga asosan hisoblanadi;

4-To'rtinchi qadam. Tanlanma belgilarida ixtiyoriy p –sinfdagi i – obyekt qolgan, shu sinfdagi $m_p - 1$ ta obyektlar majmuasidagi tutgan o'rni barcha $p = \overline{1, r}$; $i \neq q = \overline{1, m_p}$; $j = \overline{1, N}$; lar uchun $\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq})$ vektorning barcha parametrlarini hisoblanadi.

Ya'ni $\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}) = (\rho_{pi}^1(x_{pi}, x_{pq}), \rho_{pi}^2(x_{pi}, x_{pq}), \dots, \rho_{pi}^N(x_{pi}, x_{pq}))$ vektor belgilari $p = \overline{1, r}$; $i \neq q = \overline{1, m_p}$; $j = \overline{1, N}$;

Nominal belgilar uchun:

$$\rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } (x_{pi}^j - x_{pq}^j) = 0; \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Sonli belgilar uchun:

$$\rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } |x_{pi}^j - x_{pq}^j| \leq \epsilon^j \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

formulalar asosida hisoblanadi;

5-Beshinchi qadam. Ixtiyoriy p –sinfdagi i – obyekt qolgan, shu sinfdagi $m_p - 1$ ta obyektlar majmuasidagi tutgan o'rni foizda quyidagicha baholanadi va u oldindan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$v(\mathbf{X}_p) = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} v(x_{pi}, \mathbf{X}_p) = \frac{\frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} \kappa(x_{pi}, \mathbf{X}_p) * 100\%}{N}$$

6-Oltinchi qadam. Tanlanma belgilarida ixtiyoriy p –sinfdagi i –obyekt ushbu sinfga keltiradigan foydasi hisoblanadi. Bunda yangi obyekt sinfga kelib qo'shilgandan keyingi sinfdagi obyektlarning o'xshashlik darajasidan

$$v(\mathbf{X}_q \oplus \bar{x}) = \frac{1}{m_q + 1} \sum_{i=1}^{m_q+1} v(x_{qi}, \mathbf{X}_q) = \frac{\frac{1}{m_q + 1} \sum_{i=1}^{m_q+1} \kappa(x_{qi}, \mathbf{X}_q) * 100\%}{N}$$

yangi obyekt kelmasidan oldingi qiymat ayiriladi,

$$v(\mathbf{X}_q) = \frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} v(x_{qi}, \mathbf{X}_q) = \frac{\frac{1}{m_q} \sum_{i=1}^{m_q} \kappa(x_{qi}, \mathbf{X}_q) * 100\%}{N}$$

$v(\mathbf{X}_q \oplus \bar{x}) - v(\mathbf{X}_q)$ shu tarzda barcha sinflarning yangi obyektga nisbatan foydalarining eng katta qiymatga ega sinfga obyekt o'tqaziladi. Agarda foydalari teng bo'lsa, o'z sinfida qoldiriladi. Agar p –sinfdan emas boshqa ikkita sinfdan yuqori qiymatlar teng bo'lsa, u holda ushbu obyekt q ko'rsatkichi kichigiga o'tkaziladi. Taklif etilgan nazariy tadqiqotlar, algoritmlar asosida yuqorida bayon etilgan masalalarni yechamiz. Obyektlarning o'xshashligiga asoslangan klasterlash algoritmi asosida klasterlash natijalari quyidagi ikkinchi jadvalda o'z aksini topgan.




Yuqorida ifodalangan protsedura asosida dissertatsiya ishining iloalar bo‘limida 2-jadval ko‘rinishida ifoda etilgan. Bunda 2-jadvalning yo‘l elementlari har bir sinfnig prosedura bajarilgandan keyingi har bir qadamdagi natijalari bildiradi (2-rasmga qarang).




2-rasm. Sinf obyektlar o‘xshashlik darajalari o‘rtacha o‘zgarishi

2-jadval ma‘lumotlari asosida o‘quv tanlanmadagi dastlabki sinflar obyektlar o‘xshashlik darajalari o‘zgarishi quyidagi diagrammada ifodalanilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Sinf obyektlar sonining o‘zgarishi

Obyektlarning o‘xshashligiga asoslangan klasterlash algoritmi asosida klasterlash natijalari asosida o‘quv tanlanmadagi dastlabki sinflar obyektlarning o‘zaro o‘xshashlik darajalari quyidagi diagrammada ifodalanilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Sinf obyektlarning o‘zgarishi

2-jadval. TEDni bir-birini takrorlamaydigan sinflarga ajratish

4.	113, 114,... , 183	71.
5.	184, 185,... , 250	67.

Natijalar. Insonlarning qon bosimiga ta’sir etuvchi qirq sakkizta xavf omillari aniqlandi va ular asosida ma‘lumotlar bazasi yaratildi. Ishlab chiqilgan ma‘lumotlar bazasida yuqorida tavsiflangan har bir risk omili alohida maydon hisoblanadi. Dastur MySQL ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimida amalga oshirilgan bo‘lib, foydalanuvchilarga ma‘lumotlar bazasida saqlanayotgan ma‘lumotlarni yaratish, tahrirlash va ularga kirish imkonini beradi va Linux operatsion tizimida ishlovchi veb-serverlar uchun standart hisoblanadi. Taklif etilayotgan ma‘lumotlar bazasi axborot modeliga kiritilgan bo‘lib, uning maqsadi insonlarning tibbiy-fiziologik ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi ma‘lumotlar bazalarida yashirin qonuniyatlarni aniqlash va shu asosda insonlarning salomatligi uchun xavf omillarini har tomonlama baholashni ta’minlash, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini amalga tadbqiq etishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tartibini ishlab chiqishdan iborat.

Axborot modeliga kiritish uchun ma‘lumotlar bazasi tuzilmasi ishlab chiqildi. Hozirgi vaqtda sportchilarning dastlabki ma‘lumotlarini DM usullari yordamida qayta ishlash uchun ma‘lumotlar bazasiga kiritish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Xulosalar. Insonlarning salomatligi uchun 49 ta xavf omili aniqlanib, ular asosida ma‘lumotlar bazasi yaratildi. Yuqorida tavsiflangan har bir xavf omili ma‘lumotlar bazasida alohida maydon hisoblanadi. Dastur MySQL ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimida amalga oshirilgan bo‘lib, foydalanuvchilarga ma‘lumotlar bazasida saqlanayotgan ma‘lumotlarni yaratish, tahrirlash va ularga kirish imkonini beradi va Linux operatsion tizimida ishlovchi veb-serverlar uchun standart hisoblanadi. Taklif etilayotgan ma‘lumotlar bazasi axborot modeliga kiritilgan bo‘lib, uning maqsadi insonlarning tibbiy-fiziologik ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi ma‘lumotlar bazalarida yashirin qonuniyatlarni aniqlash va shu asosda xavf omillarini har tomonlama baholashni ta’minlash, shuningdek, sog‘liqni saqlash va soxa mutahasislari



uchun qarorlar qabul qilishda amaliy yordamchi vosita sifatida foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adams V, Linke A. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning yurak-qon tomir kasalliklari va xavfiga ta'siri. Kasallikning oldini olish uchun turmush tarzini o'zgartirish. birlamchi parvarish 2019;1865 (4):728-34.

<https://doi.org/10.1016/j.bbadis.2018.08.01>

2. Blume K, Nina Ko'rber N, [...], Wolfarth B. Training load, immune status and clinical outcomes in young athletes: A controlled, prospective, longitudinal study // Front Physiol. 2018-yil; 9:120.

3. Cardoos N. Haddan tashqari mashq qilish sindromi // Curr Sports Med Rep. 2015-yil may-iyun;14 (3):157-8.

4. Fazilov S.K., Mirzayev N.M. va Mirzayeva G.R. Elementar almashtirishlar modellarini qurish asosida tanib olishning modifikatsiyalangan algoritmlari. Protsedura Informatika. 2019:671-678

5. Fazilov S, Yusupov O, Radjabov S, Eshonqulov E va Abdiyeva K. Ko'p spektrli sun'iy yo'ldosh tasvirlarini o'tkirlash usullarini tahlil qilish. AIP konferensiyasi. Prok. 2024-yil 27-noyabr; 3244 (1): 030080. <https://doi.org/10.1063/5.0241414>.

6. Kerimov F.A., Islamova J.I., Davis N.A., Syrov V.N., Osipova S.O. Intestinal parasitic diseases in junior wrestlers: imitation of overtraining syndrome // Intern. J. Wrestling Science. sent. 2014. 4-jild, 2-son. S. 15-18.

7. Lyuis N.A., Deyv Kollinz D., Pedlar Ch. R., Rogers J.P. Can clinicians and scientists explain and prevent unexplained underperformance syndrome in elite athletes: an interdisciplinary perspective and 2016 update // BMJ Open Sport Exerc Med. 2015-yil; 1 (1): e000063.

8. Matkarimov R., Adilov S., Kerimov F., Korobeynikov G., Korobeynikova L., Bakiyev Z., Abdurazzokov K.A. Usovershenstvovaniye texniko-takticheskix xarakteristik luchshix borsov. shss [Internet]. 2024-yil 30-dekabr (2025-yil 18-sentyabr);28 (4):197-03. Mavjud: <https://shssjournal.com/index.php/journal/article/view/189>

9. Rashid Matkarimov, Georgiy Korobeynikov, Yrui Tropin, Viktoriya Biletska, Devid Kerbi, Milorad Dokmanak, Fikrat Kerimov. Indicators of spectacle in wrestling at the 2021 Olympic Games. shss [Internet]. 2024Mar.31 [iqtibos 2025Sep.18];28 (1):38-3.

Manba:

<https://shssjournal.com/index.php/journal/article/view/124>

10. Narzullayev D.Z., Abdurahmonov B.A., Baydullayev A.S., Ilyasov S.T. va Shodmonov Q.Q. Regression tahlil vazifasi uchun belgi turlarini transformatsiyalash. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. 2020-yil;862 5:052065

11. Narzullayev D, Tursunov A, Samigova N, Tursunov U va Shadmanov K. Yuqori malakali sportchilar salomatligi uchun xavf omillarini baholash usullari. E3S Web of Conferences. 2021-yil;284 01010.

12. Nishanov A.X., Akbaraliyev B.B., Tadjibayev S.K. Timsollarni aniqlashda bitta xususiyatni tanlash algoritmi haqida. AISC, 2020:1323:103-112. https://doi.org/10.1007/978-3-030-68004-6_13

13. Nishanov A.K., Akbarova M.K., Tursunov A.T., Ollamberganov F.F. va Rashidova D.E. Obyektlar o'xshashligi asosida klasterlash algoritmi. Journal of Mathematics, Mechanics and Computer Science. 2024-yil;123 (3).

14. Nishanov A. X., Ruzibayev O. B., Chedjou J. S., Kyamakya K., Kolli Abhram, Perumadura De Silva, Djurayev G. P. i Xasanova M. A. Algoritm vibora informativnix simptomov pri klassifikatsii meditsinskix dannix. World Scientific Proceedings Series on Computer Engineering and Information Science Developments of Artificial Intelligence Technologies in Computing and Robotics. 2020:647-658.



110G13L (Gadfiled) po‘latining mexanik xossalarini oshirish usullari

Yusupov Nuriddin Akmaljon o‘g‘li,
tayanch-doktorant, Andijon davlat texnika instituti
Andijon, O‘zbekiston
nuriddin240497@gmail.com

Tashbulatov Sherzod Baxtiyarovich,
t.f.d., dots., Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
t.sh.b.zohid@mail.ru

Turaxodjayev Nodir Djahongirovich,
t.f.d., prof., Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
nod18tur@gmail.com

Nurdinov Zokirjon Botirjon o‘g‘li,
assistent, Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
zokirjonnurdinov@tdtu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada gadfiled po‘latlarini qattiqligi, yeyilish bardoshligi, mustahkamligi, zarbiy qovushqoqligi kabi mexanik xossalarini oshirish usullari tahlil qilingan. Turli modifikatsiyalash va termik ishlov berish usullari tahlil qilingan va xulosalangan.

Kalit so‘zlar: yeyilishbardoshlik, termik ishlov berish, toblash, cho‘zilishdagi mustahkamlik, zarbiy qovushqoqlik

Kirish. 1882 yilda Robert Hadfield yuqori uglerodli va yuqori marganesli bo‘lgan 110G13L po‘latini ixtiro qilgan va shu sababli ko‘plab ilmiy ishlarda bu po‘latlar Gadfiled po‘latlari deb yuritiladi[1]. Austenistik mikrostrukturaga ega bo‘lgan bu turdagi po‘lat mustahkamlik, egiluvchanlik, qattiqlik va yuqori yeyilishbardoshlik xossalarini o‘zida mujassamlagan. Bundan tashqari bu po‘lat ishlash davomida ishqalanish va zarb ta‘sirida yanada qattiqlashish xususiyatiga ham ega. Shu sababli bu po‘latdan olingan quyma detallar ko‘p yillar davomida tog‘-ko‘n sanoati, temir yo‘llar, qazish, qishloq xo‘jaligida va mashinasozlikning turli xil ishqalanish yuqori bo‘lgan sharoitlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada 110G13L po‘latini mexanik xossalarini oshirish uchun bajarilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi. Hindistonning Gandi muhandislik va texnologiya kolleji olimlaridan biri Keyur Panchal tomonidan marganesli gadfiled po‘latlariga yangi termik ishlov berish rejimlarini joriy etish orqali yuqori qattiqlikka va yeyilishbardoshlikka erishishi o‘rganib chiqilgan. Bunda dastlab quyib olingan gadfiled po‘lati 9 ta bo‘lakka bo‘lingan va ulardan sakkiztasi 1000°C haroratda 30 daqiqa ushlab turilib keyin suv bilan toblangan. Keyin esa na‘munalarning uchasi 600°C haroratda qizdirilib bir, ikki va uch soat davomida shu haroratda ushlab turilib so‘ngra xona haroratida sovutilgan. Na‘munalarning uchasi esa 700°C haroratda qizdirilib bir, ikki va uch soat davomida shu haroratda ushlab turilib so‘ngra xona haroratida sovutilgan. Ikkita na‘muna esa 1000°C haroratda qizdirilib 30 daqiqa ushlab turilib keyin biri xona haroratida, ikkinchisi esa pechda sovutilgan.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki quyish harorati 1400-1450 ° C bo'lganda karbid zarralarining strukturada bir tekis tarqalishiga yordam beradi va shu bilan po'latning yeyilish bardoshlik va qattqlik xossalarini oshiradi. Biroq, quyi quyish haroratining pastligi erigan metallning suyuq oquvchanligini pasaytiradi va quymada nuqsonlari bo'lishiga olib keladi. Termik ishlov berishda esa po'latni avval 1000°C haroratda 30 daqiqa ushlab turilib keyin suv bilan toblash va keyin 700 ° C da ikki soat davomida ushlab turish va so'ng havoda sovutish tajribalarda optimal qattqlik va yeyilishbardoshlikni hosil bo'lishini ko'rsatdi [1,2].


Janubiy Afrikaning Yoxannesburg universiteti va Nigeriyaning Federal Texnologiya Universiteti olimlari O.E. Faloduna, S.R. Oke, A.M. Okoro, P.A. Olubambilar tomonidan ko'p uglerodli marganesli po'latlarni mexanik xossalarini oshirish o'rganilgan. Bunda dastlab na'munalar induksion pechida quyib olingan. Quymaning kimyoviy tarkibi termo ARL 3460 tipidagi elektron spektroskopiya yordamida nazorat qilingan va aniqlangan.

1-jadval. Na'munalarning kimyoviy tarkibi.

Element (%)	C	Si	Mn	P	S	Cr	Mo	Ni	Al	Cu	Ti	Fe
Na'muna 1	1.31	0.75	17.25	0.033	0.00	1.76	0.15	0.05	0.016	0.09	0.004	78.55
Na'muna 2	1.30	0.78	13.00	0.030	0.00	0.19	0.10	0.04	0.015	0.08	0.005	84.17
Na'muna 3	1.24	0.80	14.30	0.026	0.00	0.17	0.03	0.02	0.008	0.02	0.006	83.36



1-rasm. Marganes po'latining mikro tuzilishi. a – 1-na'muna, b – 2-na'muna, c – 3-na'muna.



2-rasm. 3.5% NaCl bilan korroziya sinovi o'tkazilgan (korroziyalangan) na'munalarning optik morfografiyasi. a – 1-na'muna, b – 2-na'muna, c – 3-na'muna.


Tadqiqot natijalarida mikrostrukturaviy tahlil karbidning austenit matritsasida taqsimlanishini, shuningdek, materialning don chegaralarini ochib berishi aniqlangan. Marganets po'latining tarkibiga xrom qo'shilgani hisobiga uning mikroqattqligi 1-na'munada 244 HV, 2-na'munada 215 HV va 3-na'munada 236 Hv gacha sezilarli darajada ortgan. Yeyilishbardoshlikni aniqlash sinovida esa 10 N ostida 1-na'muna eng kam yeyilgan, 2-na'muna o'rtacha va 3-na'munada yeyilish eng yuqori bo'lgani aniqlangan. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan tarkibida 17% Mn va 1.76% Cr bo'lgan na'munaning eng yaxshi qattiq va yeyilishbardoshlik xossasiga ega bo'lishi, ammo tarkibdagi xrom ortishi bilan korroziyabardoshlikni kamayishi xulosalangan [1,3].

Xitoy olimlari Nguyen Hong Hai, Nguyen Danh Trung, Pham Mai Khanh, Nguyen Huu Dung, Bui Duc Longlar tomonidan 110G13L po'latlarining mikro tuzilishi va deformatsiyaning qattqlashishiga hamda mexanik xususiyatlariga ta'sirini o'rganilgan. Tadqiqot o'tkazish uchun bir tonnalik induksion pechda quyma olingandan so'ng, qattiq na'munalar ikki bosqichli jarayon yordamida 650 -C da 1,5 soat davomida saqlanadi va 1050 -C gacha qizdirish davom ettirildi va 3 soat davomida shu haroratda saqlanib termik ishlov berildi va keyin suvda sovutildi. Termik ishlov berishdan so'ng, o'zgartirilgan yuqori marganetsli po'latlar 20 - 20 - 200 mm o'lchamdagi kichik na'munalarga kesilgan. Keyin bu na'munalar 2 m 90 mm diametrli sharli idishga po'lat sharlar bilan turli vaqtlarda 5, 10 va 20 soatlik zarba sinovi amalga oshirildi.

2-jadval. Tadqiqot o'tkazilgan po'lat na'munalarning tarkibi:

Element %	C	Si	S	P	Mn	Cr	Ni	Ti	Mo	Nodir yer elementi
110G13L po'latlari	1.25	0.83	0.02	0.57	13.7	1.9	0.32	-	-	-
Modifikatsiyalangan po'lat	1.34	0.64	0.06	0.53	14.4	2.2	0.37	0.1	0.13	0.1





3-rasm. 110G13L po'latlarini termik ishlov berish jarayoni.

Ta'sirdan oldin va keyin modifikatsiyalangan yuqori marganetsli po'latlarning mikro tuzilmalari ko'rsatilgan 2-rasmda ko'rinib turibdiki, bu po'latlarning mikro tuzilmalari og'ir deformatsiyalangan va deformatsiyalangan sirtlarning qalinligi zarba davomiyligi oshishi bilan ortadi. Xususan, deformatsiyalangan yuzalarning chuqurligi ta'sir qilish davomiyligi 5, 10 va 20 soatdan oshishi mos ravishda 1000 dan 1600 va 2000 μm gacha oshadi. Bundan tashqari, zarbadan oldin ham, keyin ham yuqori marganetsli po'latlarda martensit strukturasining ko'rinishi yo'q. 110G13L po'latlari po'latlariga titan qo'shilishi natijasida ishqalanishni kamaytirishga erishilgan [1,4].

Turkiya olimlari Uğur Gürol, Erdal Karadeniz, Ozan Çoban va Süleyman Can Kurnazlar tomonidan gadfild po'latlarini titan bilan modifikatsiya qilish orqali mexanik xossalarini yaxshilash o'rganilgan. Bunda tadqiqot o'tkazish uchun quvvati 3 tonna bo'lgan induksion pechda detal quyib olingan. Xom ashyo to'liq eritilganda, eritilgan po'lat 900°C da oldindan qizdirilgan kovshga o'tkazilgan. Quyishdan oldin, po'lat qoldiqlari bilan qoplangan Fe-Ti zarralari kovshning pastki qismiga joylashtirilgan. Qotishmalarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.


3-jadval. Qotishmalarning kimyoviy tarkibi.

Qotishma	C	Mn	Si	Mo	P	S	Ti	Fe
ASTM 128 Gr. E1	1.00	13.11	0.53	1.15	0.035	0.003	0.006	Muv.
1.0C-17Mn	1.00	17.11	0.53	1.16	0.37	0.002	0.008	Muv.
1.0C-17Mn-0.05Ti	1.01	17.18	0.58	1.17	0.36	0.004	0.046	Muv.
1.0C-17Mn-0.10Ti	1.01	17.09	0.55	1.16	0.37	0.004	0.094	Muv.

Quyib olingan detal dastlab 650°C haroratda 3 soat davomida ushlab turilib keyin daqiqasiga 1.67 °C

tezlikda 1100°C haroratgacha qizdirilgan va yana 3 soat davomida ushlab turilgan. Keyin esa sig'imi 90 tonnalik suv idishida 27 °C suvda sovutilgan. Sovutishdan oldin suv harorati 25-28°C bo'lishi sovish mobaynidagi suvning harorati 35°C bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Ushbu tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri shundaki, 0,05% Ti qo'shilishi eritma bilan termik ishlov berilgan qotishmalarning yeyilish tezligini sezilarli darajada kamaytirgan. Biroq titan miqdori 0,05% dan 0,10% gacha ortganda, Ti (CN) zarralari ajralib chiqqan va to'plangan. Bir hil disperslangan qattiq zarralar o'rniga, to'plangan zarralar yeyilish tezligining ortishiga olib kelishi kuzatilgan.



4-rasm. Qotishmalar mikrostrukturalari mikrografi: a-ASTM A128 Gr. E1, b- 1.0C-17MN, c-1.0C-17Mn-0.05Ti, d-1.0C-17Mn-0.10Ti.

Natijalar shuni ko'rsatdiki yaxshi donlar mustahkamligi, qattqlik, mustahkamlik xossalari mos ravishda 30%, 31%, 8% va 12% ga ortdi hamda marganes va titan modifikatsiyalarisiz zarbiyqovushqoqlik 9% ga ortgan. 1.0C-17Mn-0.05Ti termik ishlov berilgan po'latning yeyilishbardoshlik xossasi 110G13L po'latlariga taqqoslaganda 44% gacha ortgan [5].

Jiangting Wang, Guillaume Bruel, Zhiyang Wang, Elliot Paul Gilbert, Pavel Cizek, Santiago Corujeira-Gallo, Daniel Fabijanic, va Matthew Barnettlar Hadfield po'latlariga vanadiyning qo'shilishi hisobiga va ularning termik ishlovi hamda



plastik deformatsiya ta'sirida strukturaviy va mexanik xossalarning o'zgarishi haqida ish bolib broganlar.

Tajribalar o'tkazish uchun quyidagi jadvalda ko'rsatilgan tarkibga ega na'munalar quyib olinib ular ustida amalga oshirilgan.

4-jadval. Po'lat qotishmalarining kimyoviy tarkibi

Na'muna	Mn%	C%	V%
HC	13.3	1.2	-
HC-1 V	13.1	1.1	1.2
HC-2 V	12.8	1.2	2.3

Na'munalarga elektr yoy pechida quyildi va vaakumli pechda 1150° C haroratda 8 soat davomida gomogenlash bilan ishlov berilgan. Vanadiyning qo'shilishi ta'sirida na'munalar qattiqligi 227±17, 270±17 va 287±5 ga mos ravishda oshdi. Po'latlarga vanadiyning qo'shilishi natijasida yeyilishbardoshlik ham oshgan[6].

Eron olimlari E.G. Moghaddam, N. Varahram, P. Davamilar tomonidan Yuqori vanadiyli austenistik marganes po'lati va 110G13L po'latlarini mikrostruktura va mexanik xossalari o'rganib chiqilgan. Bunda dastlab olimlar tomonidan quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo'lgan na'munalar quyib olingan.

5-jadval. Qotishmalarining kimyoviy tarkibi.

Qotishma	Fe	C	Mn	Si	S	P	Al	Cr	V
YVAMP-1	Muv.	2.6	12.90	0.69	0.054	0.025	0.10	0.34	9.90
YVAMP-2	Muv.	2.8	12.95	0.61	0.067	0.019	0.14	0.31	9.91
YVAMP-3	Muv.	3.0	13.10	0.59	0.047	0.038	0.11	0.27	10.04
YVAMP-4	Muv.	3.3	12.90	0.67	0.063	0.040	0.93	0.29	10.15
110G13L	Muv.	1.21	12.80	0.66	0.08	0.039	0.9	0.09	-

Bunda eritmaga modifikator sifatida ferrovanadiy hamda deoksidlash uchun 0.1% sof alyuminiy qo'shish amalga oshirilgan.

Quyish jarayonidan so'ng termik ishlov berish, mustahkamlikka, qattiqlikka va yeyilish bardoshlikka sinash tajribalari o'tkazilgan va quyidagi xulosalar qilingan:

1. Yuqori vanadiyli austenitli marganets po'latlarida (YVAMP)gi vanadiy karbidlari V_8C_7 turga mansub va Uglerod miqdori ortishi bilan karbidlarning shakli novda, tasmadan massaviy, sharsimon shaklga o'zgaradi va ularda uglerod miqdori taxminan 3%

gacha bir tekis taqsimlanadi. Uglerod tarkibining yanada ortishi austenitik matritsada vanadiy karbidlarining taqsimlanishining bir xilligini pasaytiradi.

2. 110G13L po'latlarini 1100° C haroratda 90 daqiqa davomida pechda toblab suvda sovutish qotishmalarining mikrostrukturaviy yoki mexanik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.


3. Yuqori vanadiyli austenistik marganes po'latida vanadiy karbidlarining hosil bo'lishi 110G13L po'latiga nisbatan qattiqlikni oshiradi lekin zarbiy qovushqoqlikni kamaytiradi. Bundan tashqari, Yuqori vanadiyli austenistik marganes po'lat qotishmalarining mexanik xususiyatlari austenitdagi vanadiy karbidlarining morfologiyasi va tarqalishiga ta'sir qiladi.

4. Vanadiy karbidlari bo'lgan austenitik marganets po'latlari austenitda tarqalgan juda qattiq vanadiy karbid zarralari va shuningdek, qattiq eritmada vanadiyning mustahkamlovchi ta'siri tufayli standart 110G13L po'latiga nisbatan 5 barobar yeyilishbardoshlikka ega [7].

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Metallar texnologiyalari" kafedrasida olimlari N.D.Turaxodjayev, Sh.M.Chorshanbiyev va boshqalar tomonidan 110G13L po'latlarini mexanik xossalarni oshirish ustida tadqiqotlar olib borilgan. Bunda 110G13L po'latlarini modifikatsiyalash uchun ferrovanadiydan foydalanilgan. Natijada 110G13L po'latlarini qattiqligi 7-8 % ga, ushbu po'latdan tayyorlangan ekskavator tishlarining ishlash muddati esa 1800 soatdan 2500 soatga ortgan[8].

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti olimlari G.L.Atajanov, U.D.Eshankulov, Sh.M.Chorshanbievlar tomonidan 110G13L po'latlarini mexanik xossalarni oshirish ustida tadqiqotlar olib borilgan. Bunda 110G13L po'latlarini modifikatsiyalash uchun quymaga 1% li ferroxrom qo'shilgan. Po'lat qotishmaning quyma holdagi yoki normalashtirilgandan keyingi strukturasi perlitdan sorbitga, trostitga, martensitga va nihoyat austenitga o'tdi.






5-rasm. 110G13L po'latiga 1% li ferroxrom qo'shilgandagi mikrostrukturaning turli kattaliklarda ko'rinishi.

Natijada qotishmaning qattiqligi va mustahkamligi ortgan, korroziyabardoshlik va suyuq oquvchanlik ham yaxshilandi [9].


Eroning Islom Azad universiteti olimi Kamran Amini tomonidan tarkibida 17% marganes bo'lgan gadfild po'latining mexanik xossasini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bunda dastlab quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo'lgan na'munalarda quyib olingan.

6-jadval. Yuqori marganesli po'lat qotishmalarining kimyoviy tarkibi.

Qotishma	Fe	C	Mn	Si	Cr	S	P
Fe-17Mn-0.6Si-1.2C	Muv.	1.2	16.5	0.59	0.34	0.01	0.04
Fe-17Mn-6Si-1.2C	Muv.	1.2	16.4	5.9	0.31	0.01	0.05



6-rasm. Quyma po'latlarning mikrostrukturasi. (a) - kam kremniyli, (b)- yuqori kremniyli.



7-rasm. Termik ishlov berilgan po'latlarning mikrostrukturasi. (a) - kam kremniyli, (b) - yuqori kremniyli.

Na'munalarda dastlabki qattiqlikni tekshirilganda har ikkala na'munada ham qattiqlik sezilarli darajada ya'ni 0.6% kremniyli na'munada 290 HV va 6% kremniyli na'munada 368 HV gacha yetgan.


Na'munalarni ishlash jarayonida deformatsiya ta'siridan keyin ham qattiqlashishini va yeyilishbardoshligini aniqlovchi sinovlardan ham o'tkazilgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar 30 daqiqa mobaynida deformatsiyalangan na'munalarda ko'ringan. Bunda na'munalarda qattiqligi 0.6% kremniyli na'munada 698 HV va 6% kremniyli na'munada 748 HV gacha yetgan. Yeyilishbardoshlik esa kam kremniyli na'munaga nisbatan yuqori kremniyli na'munada 25% ga ortgan [10].

Algeriyaning BADJI Mokhtar Annaba Universiteti olimlari Souad Ayadi va Ali Hadji hamda Turkiyaning YILDIZ Texnika Universiteti olimi Emrullah Hakan Kalelilar tomonidan marganes po'latlarini qizdirish haroratining mikrostruktura va yeyilishga ta'siri o'rganilgan. Bunda Gadfild po'latlariga modifikator sifatida xrom, nikel, vanadiy va niobiy elementlari qo'shib 1500° C haroratda l=100mm, d=20mm o'lchamli na'munalarda (Yuqori marganesli, Nikelli, Niobiyli, Vanadiyli po'lat) quyib olingan. Quyidagi jadvalda na'munaning kimyoviy tarkibini ko'rish mumkin:

7-jadval. Yuqori marganesli, Nikelli, Niobiyli, Vanadiyli po'latning kimyoviy tarkibi.

Po'lat	Elementlar %									
	C	Mn	Si	P	S	Cr	Ni	Nb	V	Fe
YM-NiNbV	0.954	10.36	0.285	0.053	0.005	1.48	1.09	0.193	0.356	Muv.





8-rasm. YM-NiNbV po‘latining mikrostrukturasi.


Lekin faqatgina modifikatsiya qilishning o‘zi bilan kerakli mexanik xossalarga erishilmasligi sababli ikki xil termik ishlov berish rejimlarida ham tajribalar o‘tkazilgan. Birincha usulida na‘munalar 600° C, 1020° C va 1050° C haroratlarda 06° C/daq tezlikda qizdirib va har bir haroratda 1 soatdan ushlab turilib keyin suvda sovutilgan. Ikkinchi termik ishlov berish usulida esa na‘munalar 600° C, 1080° C va 1011° C haroratlarda 12° C/daq tezlikda qizdirib va har bir haroratda 1 soatdan ushlab turilib keyin suvda sovutilgan.

Toblanmagan va ikki xil rejimda toblangan na‘munalar qattqlikka tekshirilgan va bunda toblanmagan na‘munaga nisbatan 1050°C haroratda toblangan na‘muna qattqligi 28% ga va 1100°C haroratda toblangan na‘munaning qattqligi esa 57% ga qattqlashgani aniqlangan.

Toblanmagan va ikki xil rejimda toblangan na‘munalar yeyilishbardoshlikka tekshirilgan va bunda toblanmagan na‘munaga nisbatan 1050°C haroratda toblangan na‘munaning yeyilishbardoshligi 30% ga va 1100°C haroratda toblangan na‘munaning yeyilishbardoshligi esa 50% ga ortgani aniqlangan [11].


Nigeriyaning Lagos universiteti, “Metallurgiya va materialshunoslik muhandisligi” kafedrasi olimlari S.A. Balogun, D.E. Esezobor, J.O. Agunsoyalar tomonidan austenistik marganes po‘latlarining yeyilishiga erish haroratining ta’siri o‘rganilgan. Bunda dastlab tadqiqot obyekti bo‘lgan jag‘ plitasi detail ya’ni gadfild po‘lati tarkibiga qo‘shimcha ravishda 2.4% Cr qo‘shilib uchta erish haroratida 1550°C, 1450°C va 1380°C haroratlarda eritib oldindan qizdirilgan qum-gilli qoliplarga quyilgan.

Na‘munalar 1050°C haroratda 4 soat davomida mufel pechida toblangan va keyin na‘munalarning mikrostrukturasi mikroskop yordamida ko‘rib tahlil qilingan.




Mn-po‘lat matritsasi da Cr-karbidning qo‘pol segregatsiyasi.

9-rasm. 1550 °C da quyilgan jag‘ plitasi detalining mikrsostrukturalari. (a) – qirg‘oq, (b) – o‘rta va (c) – mahkamlovchi qismi. Ushbu mikrostrukturalar donalar chegarasi atrofida notekis, to‘plangan xrom karbidlarning mavjudligi bilan tavsiflangan.



Mn-po‘lat matritsasi da Cr-karbidning yarim mayda dispersiyasi.

10-rasm. 1450 °C da quyilgan jag‘ plitasi detalining mikrsostrukturalari. (a) – qirg‘oq, (b) – o‘rta va (c) – mahkamlovchi qismi.



Mn-po‘lat matritsasi da Cr-karbidning nozik dispersiyasi.

11-rasm. 1380 °C da quyilgan jag‘ plitasi detalining mikrsostrukturalari. (a) – qirg‘oq, (b) – o‘rta va (c) – mahkamlovchi qismi.

Tahlil natijalarida erish haroratining 1450°C bo‘lishi optimal quyish harorati ekanligi, xrom karbidlarini nozik ajralishini hamda bu yeyilishbardoshlikni orttirishi, harorat 1550°C dan ortganda ortiqcha shlak hosil bo‘lishi, yuqori harorat




ta'sirida pech futirovkasi ishlash davrining kamayishi xulosalangan [12].

Eron olimlari Mahyar Mohammadnezhad, Vahid Javaheri va Masab Naseri Seftejanilar tomonidan molibdenning 110G13L po'latlarining mikrostruktura va mexanik xususiyatlariga ta'siri o'rganilgan. Bunda dastlab quyidagi kimyoviy tarkibga ega bo'lgan na'munalar quyib olingan.

8-jadval. Po'lat na'munalarining kimyoviy tarkibi.

Na'munalar	C	Mn	Si	Cr	Mo
Mo.0	1.19	12.4	0.52	0.81	0
Mo 2	1.22	12.7	0.58	0.87	0.21
Mo 4	1.27	12.1	0.47	0.74	0.43
Mo 6	1.17	12.9	0.43	0.79	0.62


Na'munalar 1100°C haroratda toblanib suvda sovutilgan. Keyin esa na'munalarning mikrostrukturalari ko'rib tahlil qilingan.



12-rasm. Molibdenning 0 dan 0.62% gacha miqdorlardagi qo'shilgan toblangan na'munalarning mikrostrukturalari

Yuqoridagi mikrostrukturalardan molibden konsentratsiyasining ortishi bilan donalarning o'lchamlari taqsimoti asta-sekin kamayganligi kuzatilgan. Qattqlik va mustahkamlik ham molibden ortishi natijasida ortib brogan [13].

Eron va Koreya Respublikasi olimlari H.R.Jafarian, M. Sabzi, S.H.Mousavi Anijdan, A.R.Eivani, N. Parklar tomonidan austenizatsiya haroratining gadfild po'latlarining mikrostrukturalari va mexanik xossalari ta'siri o'rganilgan. Bunda to'rtta gadfild po'lat na'munalari tanlab olinib ular 1000°C, 1075°C, 1150°C, 1225°C haroratlarda 1 soat davomida toblanib suvda sovutilgan. Na'munalarning mikrostrukturalarida toblash haroratining ortishi bilan karbidlar soni kamayib don hajmining kattalashishi ko'ringan.



13-rasm. Turli haroratlarda toblangan Gadfild po'latlarining mikrostrukturalari. a - 1000°C, b - 1075°C, c - 1150°C, d - 1225°C.

Keyin na'munalar cho'zilish sinovidan o'tkazilgan va harorat ortishi bilan mustahkamlik kamayib brogan. Lekin na'munalar qattqlik sinovidan o'tkazilganda toblash harorati ortishi bilan qattqlik ham ortishini ko'ringan.

Charpiy zarba sinovi va yeyilish tekshirish sinovlari ham o'tkazilgan. Natijalariga ko'ra harorat ortishi bilan po'latlar qattqlashib zarbiy quvushqoqlik kamayib brogan, ammo po'latlarning yuqori haroratda oquvchanlikni yaxshilanishi sababli yeyilishbardoshlik xossasi ortgan.

Tadqiqotlardan gadfild po'latlarini toblash haroratini 1000°C dan 1225°C ga qadar ortib borishi ularning qattqlashuvi va mo'rtlashuviga olib kelishi, bunda faqat qattqlik va yeyilishbardoshlik xossalari ortishi lekin mustahkamlik va zarbiy qovushqoqlik kabi xossalarni pasayishiga olib kelishi xulosalangan [14].

Tahlil va muhokamalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gadfild po'latlarining mexanik xossalari, xususan yeyilishbardoshlik, qattqlik, mustahkamlik va zarbiy qovushqoqlik legirlovchi elementlarning turiga, miqdoriga hamda termik ishlov berish rejimlariga bevosita bog'liqdir. Har bir legirlovchi element po'latning mikrostrukturalari va dislokatsion tuzilishida o'ziga xos o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa yakuniy mexanik xossalarga turlicha ta'sir ko'rsatadi [15].



Molibden (Mo) bilan modifikatsiyalash.

Molibden qo‘shilishi po‘lat mikrostrukturasi donlarining maydalanishiga olib keladi va bu orqali qattqlikni hamda yeyilishbardoshlikni oshiradi. Tadqiqotlarda Mo miqdorining ortishi bilan don hajmi kamaygani, qattqlik va mustahkamlik esa izchil ortgani aniqlangan. Molibdenning asosiy afzalligi — u austenit matritsani barqarorlashtiradi va sementit hamda M_6C turidagi karbidlar shakllanishi orqali dispersli cho‘kma mustahkamlash ta’sirini kuchaytiradi. Natijada yeyilishbardoshlik yaxshilanadi va don chegaralaridagi kuchlanishlar kamayadi. Biroq Mo miqdorining 2% dan ortiq bo‘lishi sementit fazalarining ko‘plab ajralishiga sabab bo‘lib, po‘latni mo‘rtlashtiradi. Bundan tashqari, molibden qimmatbaho legirlovchi element bo‘lgani sababli iqtisodiy jihatdan ham uning miqdori cheklanishi lozim.

Vanadiy (V) bilan modifikatsiyalash.

Vanadiy qo‘shilishi natijasida po‘lat strukturasi yuqori qattqlikka ega V_8C_7 turidagi karbidlar hosil bo‘ladi. Bu karbidlar austenit matritsada mustahkamlovchi dispers faza sifatida ta’sir etadi. Tadqiqotlarda vanadiy konsentratsiyasi ortishi bilan qattqlik 227 HV dan 287 HV gacha, yeyilishbardoshlik esa 5 barobargacha oshgani aniqlangan. Vanadiy qo‘shilishining afzalligi — bu qattqlik va yeyilishbardoshlikni bir vaqtda oshirish imkoniyatining mavjudligidir. Ammo uning kamchiligi — bu element zarbiy qovushqoqlikni sezilarli pasaytiradi. Sababi, qattiq V_8C_7 zarrachalari dislokatsiyalar harakatini to‘xtatib, deformatsiyalanish qobiliyatini kamaytiradi. Natijada po‘lat yeyilishbardosh, ammo nisbatan mo‘rt holatga o‘tadi. Shuning uchun vanadiy modifikatsiyasi yeyilishbardoshlik muhim bo‘lgan, lekin zarbiy yuklama nisbatan past detallar uchun maqbuldir.

Xrom (Cr) bilan modifikatsiyalash. Xrom legirlovchi element sifatida po‘latning qattqligini va korroziyaga bardoshlilikini oshiradi. Faloduna va boshqalarning tadqiqotlarida xrom miqdorining 1.7% gacha oshirilishi mikroqattqlikni 215 HV dan 244 HV gacha ko‘targan, lekin bu bilan bir vaqtda korroziyaga chidamlilik pasaygan. Xromning afzalligi — u karbid

hosil qiluvchi element bo‘lib, M_7C_3 va $M_{23}C_6$ fazalarini hosil qiladi, bu esa austenit don chegaralarini barqarorlashtiradi. Biroq xromning kamchiligi shundaki, u ortiqcha bo‘lsa, martensit hosil bo‘lish ehtimolini oshiradi va natijada mo‘rtlik yuzaga keladi. Shu sababli Cr miqdorini 1–2% oraliq miqdorda saqlash optimal natijalarni beradi. Toshkent davlat texnika universiteti olimlari xrom bilan modifikatsiyalangan 110G13L po‘latlarida strukturaviy o‘zgarishlar — perlitdan austenitgacha o‘tish — mexanik xossalarning kompleks yaxshilanishiga olib kelganini qayd etishgan.

Titan (Ti) bilan modifikatsiyalash. Titan bilan modifikatsiyalash gadfild po‘latlarida don o‘shishini cheklash va cho‘kindi zarrachalar hosil bo‘lishini nazorat qilish orqali mexanik xossalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Gürol va hammualliflar 0,05% Ti qo‘shilishida yeyilishbardoshlik 44% gacha oshganini, ammo 0,10% Ti dan ortiq qo‘shilishida Ti(CN) zarralari to‘planib, yeyilish tezligini oshirganini aniqlashgan. Shunday qilib, Ti qo‘shimchasi don chegaralarining tozaligi va strukturaviy barqarorlikni ta’minlaydi, lekin uning miqdori ortsa, zarrachalar bir tekis taqsimlanmaydi. Optimal natija 0,05% Ti atrofida kuzatilgan.

Kremniy (Si) va boshqa elementlar. Kremniy qo‘shilishi po‘latning qattqligini va yeyilishga bardoshlilikini oshiradi, ayniqsa 17% Mn bilan birgalikda ishlatilganda. Si elementining afzalligi — u uglerodning faoliyatini tartibga soladi, sementit fazalarining barqarorligini oshiradi va austenit tuzilmasini saqlaydi. Biroq Si ortiqcha bo‘lganda po‘latning payvandlanuvchanligi yomonlashadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili gadfild po‘latlarini mustahkamlashda kompleks yondashuv — ya’ni bir nechta elementlar bilan birgalikda modifikatsiyalash eng samarali yo‘l ekanini ko‘rsatmoqda. Masalan, Ti–V yoki Cr–Mo kombinatsiyalari bir vaqtning o‘zida qattqlikni, yeyilishbardoshlikni va strukturaviy barqarorlikni oshiradi. Termik ishlov rejimlarini optimallashtirish bilan birgalikda bunday legirlash tizimlari gadfild po‘latlarining ekspluatatsion xususiyatlarini tubdan yaxshilashi mumkin.



Xulosa. Gadfild po'latlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu po'latlarning mexanik xossalarini oshirishda legirlovchi elementlarning tanlovi, ularning konsentratsiyasi va termik ishlov berish rejimi hal qiluvchi omillardan biridir. Har bir element po'lat mikrostrukturasi va dislokatsion tizimiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, natijada mexanik xossalar turlicha o'zgaradi.

Molibden qo'shilishi austenit matritsani barqarorlashtirgan holda donlarning maydalanishiga yordam beradi, bu esa qattqlik va yeyilishbardoshlikni oshiradi. Ammo Mo konsentratsiyasi ko'p bo'lganda sementit fazalarining ko'plab ajralishi natijasida mo'rtlik kuchayadi. Vanadiy esa yuqori qattqlikka ega V_8C_7 karbidlarini hosil qilib, po'latning yeyilishbardoshligini bir necha barobar oshiradi, biroq zarbiy qovushqoqlikni kamaytiradi.

Xrom legirlovchi element sifatida qattqlik va mustahkamlikni oshirish bilan birga korroziyabardoshlikka ham ijobiy ta'sir etadi, ammo uning ortiqcha miqdori martensit fazaning paydo bo'lishi orqali po'latni mo'rtlashtiradi. Titan esa don o'sishini cheklab, strukturaning barqarorligini ta'minlaydi, lekin 0,1% dan yuqori miqdorda qo'shilganda Ti(CN) cho'kindilarining to'planishi sirt notekisligini oshiradi. Kremniy esa uglerod bilan o'zaro ta'sir qilib, sementit hosil bo'lish jarayonini boshqaradi va austenit tuzilmasining barqarorligini mustahkamlaydi.

- graflar nazariyasi - LFSR holatlar grafigi, blok shifrlarning topologik modeli;
- panjara nazariyasi - LWE, NTRU, Ring-LWE kabi post-kvant algoritmlar;
- algoritmlar nazariyasi - faktorlash, DLP, qidiruv, qisqartirish algoritmlari.

Bu yo‘nalishlarning barchasi kriptografiyaning nafaqat matematik asosini, balki amaliy ishlashi, xavfsizlik chegaralari, algoritmik barqarorligi va hujumlarga qarshi chidamliligini belgilaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy xavfsizlik talablarining kuchayishi bilan birga, diskret matematikaning roli yanada ortib bormoqda. Klassik



sonlar nazariyasidan tortib, panjara nazariyasi kabi zamonaviy strukturalargacha bo‘lgan barcha diskret yo‘nalishlar kelajakdagi kriptotizimlarning shakllanishiga, ayniqsa post-kvant muhitida, asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu sababli ushbu maqola kriptografiyaning turli qatlamlarida diskret matematika elementlarining qanday ishlatilishini chuqur va tizimli tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

1. Diskret matematikaning kriptografik poydevordagi o‘rni

Diskret matematika raqamlar, to‘plamlar, kombinatsiyalar va mantiqiy strukturalar ustida ishlaydi. Aynan shu tizimlar kriptografiyaning ham nazariy, ham amaliy mexanizmlarini belgilaydi. Shifrlash algoritmlari diskret obyektlar - butun sonlar, bitlar, vektorlar, graf tugunlari, polinomlar, modulyar arifmetika elementlari - asosida quriladi.

Diskret tuzilmalar kriptografiyada quyidagi yo‘nalishlarda asosiy rol o‘ynaydi:

- modulyar arifmetika va sonlar nazariyasi: RSA, DH, ECDH
- tugallangan maydonlar: AES, GCM, stream cipherlar
- kombinatorika va ehtimollar: kalit fazosi, hujum ehtimoli, kolliziyalar
- graf nazariyasi: blok shifrlardagi bog‘lanishlar, topologik xususiyatlar
- bo‘linishlar nazariyasi: panjara (lattice) kriptografiyasi
- algoritmlar nazariyasi: faktorlash, diskret logarifm, panjara qisqartirish

2. Sonlar nazariyasi va modulyar arifmetikaning kriptografiyadagi roli

2.1. Modulyar arifmetika

Modulyar arifmetika ko‘plab ochiq kalitli algoritmlarning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Asosiy amal:

$$a \equiv b \pmod{n}$$

ko‘rinishidagi kongruentsiyalar asosida quriladi. RSA algoritmi quyidagi ikki amalni ishlatadi:

$$C = M^e \bmod n, M = C^d \bmod n.$$

Bu yerda $n = pq$ ikkita katta tub sonning ko‘paytmasi hisoblanadi [1].

2.2. Diskret logarifm masalasi

Diskret logarifm masalasi (DLP):

$$g^x \equiv h \pmod{p}$$

berilgan bo‘lsa, x ni topish juda murakkab hisoblanadi [2]. Bu murakkablik quyidagi protokollarning xavfsizligini ta‘minlaydi:

- Diffie-Hellman
- ElGamal
- DSA
- Elliptik egri chiziqlar asosidagi kriptografiya (ECDLP)

2.3. Elliptik egri chiziqlar

Elliptik egri chiziqlar:

$$y^2 = x^3 + ax + b$$

tenglamasi bilan aniqlanib, p tub son bo‘lganda F_p ustida ishlaydi [3]. ECC quyidagilarni ta‘minlaydi:

- kichik kalitlar bilan yuqori xavfsizlik,
- tezroq hisoblash,
- mobil qurilmalar uchun samaradorlik.

3. Tugallangan maydonlar: blok va oqimli shifrlardagi qo‘llanishi

3.1. AES va $GF(2^8)$

AES baytlari F_{2^8} maydonida ko‘riladi. Bayt ustidagi barcha operatsiyalar - qo‘shish, ko‘paytirish, teskari element topish - tugallangan maydon arifmetikasi orqali aniqlanadi [4].

AESda:

SubBytes - maydon elementining teskari elementiga asoslanadi;

MixColumns - F_{2^8} dagi matritsali o‘zgarish;

AddRoundKey - XOR orqali bajariladi.

3.2. Oqimli shifrlar va LFSR

LFSRlar F_2 ustida ishlaydi:

$$s_{k+1} = a_1 s_k + a_2 s_{k-1} + \dots + a_n s_{k-n}$$

Bu to‘liq diskret algebraik struktura bo‘lib, chiziqli arifmetika asosida quriladi [5].

4. Kombinatorika va ehtimollar kriptografiyada

4.1. Kalit fazosi va kombinatorik murakkablik

Kalit fazosining kattaligi:

$$|\mathcal{K}| = 2^n$$



bo'lganda, qo'pol kuch (brute-force) hujumi 2^{n-1} operatsiyani talab qiladi [6].

4.2. Kolliziyalar ehtimoli - Tug'ilgan kun paradoksi

Hesh funksiyalarida kolliziya ehtimoli:

$$\Pr(\text{kolliziya}) \approx 1 - e^{-k^2/2N}.$$

$N = 2^n$ bo'lsa, taxminan $2^{n/2}$ ta urinishda kolliziya topiladi [7]. Shu tamoyil hash funksiyalarining kuchini baholashda asosiy rol o'ynaydi.

5. Graf nazariyasining kriptografiya qo'llanilishi

- blok shifrlarning raund tarmoqlari graf strukturasiga ega;
- S-qutilar graf morfizmlar orqali tahlil qilinadi;
- oqimli shifrlarda LFSR holatlar grafigi de Bruijn grafga ekvivalent [8];
- tarmoq xavfsizligida autentifikatsiya protokollari graflar ustida isbotlanadi.

6. Panjara (lattice) nazariyasi va post-kvant kriptografiya

6.1. Panjara bazisi va qisqartirish algoritmlari

Panjara:

$$L(B) = \{Bx \mid x \in \mathbb{Z}^n\}$$

tenglama orqali aniqlanadi [9].

6.2. LWE va uning diskret mohiyati

LWE tenglamasi:

$$As + e = b \pmod{q},$$

bu yerda A - diskret matritsa, s - maxfiy vektor, e - kichik shovqin [10].

Diskret struktura tufayli:

- kvant hujumlariga qarshi barqarorlik,
- katta o'Ichamli to'plamlar,
- diskret tasodifiylik yuqori darajada.

7. Diskret algoritmlar: faktorlash, ECDLP, LWE

Quyidagi algoritmlar to'liq diskret jarayonlarga tayangan:

- Pollard Rho
- Shanks algoritmi
- Shor algoritmi (kvant)
- Babai rounding

– BKZ va LLL panjara qisqartirish algoritmlari

Natijalar

Quyidagi 1-jadvalda diskret matematika elementlarining asosiy kriptografik vazifalarini yig'ma ko'rinishda taqdim etilgan.

1-jadval. Diskret matematikaning kriptografiyadagi roli bo'yicha tahlil

Soha	Rol	Xavfsizlikka ta'siri	Namuna
Sonlar nazariyasi	Modulyar arifmetika, tub sonlar	Faktorlash va DLP murakkabligi	RSA, DH
Tugallangan maydonlar	Bitlar va baytlar ustida algebra	Diffuziya, nolinearlik	AES, SNOW
Kombinatorika	Kalit fazosi, kolliziya	Bruteforce va kolliziya murakkabligi	Hash funksiyalar
Graf nazariyasi	Strukturaviy modellar	Raund bog'lanishlari	LFSR, blok shifrlar
Panjara nazariyasi	Ochiq kalit konstruksiyasi	Post-kvant barqarorlik	LWE, NTRU

Xulosa

Ushbu maqolada kriptografiya diskret matematika elementlarining o'rni, qo'llanilishi va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kriptografiya - bu asosan diskret matematik strukturalarga tayanadigan ilmiy fan bo'lib, uning xavfsizlik darajasi ham, ishlash samaradorligi ham, hujumlarga chidamliligi ham aynan shu diskret tuzilmalar sifatiga bevosita bog'liqdir.

Birinchidan, sonlar nazariyasi va modulyar arifmetika ochiq kalitli kriptotizimlarning poydevorini tashkil etadi. RSA, Diffie-Hellman, ElGamal, DSA kabi algoritmlar aynan tub sonlar, modulyar eksponentlash, diskret logarifmlar va kongruentsiyalar nazariyasiga asoslanadi. Ushbu tizimlarning kuchi sonlar ustida aniqlangan murakkab masalalarning yechimi amaliy jihatdan juda qiyin bo'lishiga tayanadi.

Ikkinchidan, tugallangan maydonlar nazariyasi simmetrik shifrlash algoritmlarida markaziy rol o'ynaydi. AES, GCM, SNOW kabi algoritmlarda har bir bayt va bit ustida bajariladigan arifmetikaning to'liq



matematik modeli aynan diskret maydonlarga tayangan holda yaratiladi. Bu maydonlar chiziqli va chiziqsiz akslantirishlarni mukammal tarzda ifodalashga imkon beradi, natijada yuqori diffuziya va xavfsizlik ta'minlanadi.

Uchinchidan, kombinatorika va ehtimollar nazariyasi hash funksiyalari, tasodifiy sonlar generatorlari, kolliziya ehtimoli, brute-force murakkabligi, tug'ilgan kun paradoksiga asoslangan xavfsizlik baholarida asosiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Kriptotizimlarning muhim jihatlari - masalan, kalitlar soni, hujumchi uchun qidiruv maydoni, ehtimoliy tahdidlarni baholash - aynan kombinatorik o'lchamlar orqali aniqlanadi.

To'rtinchidan, graf nazariyasi blok shifrlardagi raund strukturalarini modellashtirish, oqimli shifrlardagi holat mashinalarini tavsiflash, LFSRlar va murakkab bog'lanishlarni tahlil qilishda muhim vosita dir. Graflar orqali algoritmlarning ichki bog'lanish darajasi, murakkablik chuqurligi va tahlilga bo'lgan bardoshlilik o'lchanadi.

Beshinchidan, zamonaviy kriptografiyada eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lgan panjara nazariyasi (lattice theory) post-kvant davr uchun mo'ljallangan kriptografik sxemalarning matematik asosini yaratadi. LWE, Ring-LWE, NTRU kabi algoritmlar diskret vektor fazolari, bo'linish strukturalari va panjaralar ustida aniqlangan murakkab algebraik masalalarga tayanadi. Panjaralar ustida ishlashning murakkabligi, ayniqsa kvant kompyuterlari sharoitida ham barqaror bo'lishi ushbu yondashuvlarning strategik ahamiyatini oshiradi.

Yakuniy natija sifatida shuni aytish mumkinki: diskret matematika kriptografiyaning barcha yo'nalishlari - simmetrik shifrlashdan tortib ochiq kalitli tizimlargacha, hash funksiyalaridan tortib post-kvant algoritmlargacha - uchun yagona umumiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Diskret tuzilmalar qat'iy, nazariy jihatdan asoslangan, formal tarzda tasvirlanadigan bo'lgani uchun kriptografik tizimlarning barqarorligi, ishonchliligi va isbotlangan xavfsizligi aynan shu matematik modelga tayanadi. Va eng muhimi, kelajakdagi kriptografiya - xususan kvant

kompyuterlari davrida - aynan diskret matematikaning yanada chuqur tadqiqi va rivojlantirilgan variantlariga muhtoj bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] R. L. Rivest, A. Shamir and L. Adleman, "A method for obtaining digital signatures and public-key cryptosystems," *Communications of the ACM*, vol. 21, no. 2, pp. 120–126, 1978.

[2] N. Koblitz, *A Course in Number Theory and Cryptography*, 2nd ed. New York, NY, USA: Springer, 1994.

[3] W. Diffie and M. Hellman, "New directions in cryptography," *IEEE Transactions on Information Theory*, vol. 22, no. 6, pp. 644–654, 1976.

[4] T. ElGamal, "A public key cryptosystem and a signature scheme based on discrete logarithms," *IEEE Transactions on Information Theory*, vol. 31, no. 4, pp. 469–472, 1985.

[5] V. S. Miller, "Use of elliptic curves in cryptography," in *Advances in Cryptology — CRYPTO'85*, Springer, 1986, pp. 417–426.

[6] N. Koblitz, "Elliptic curve cryptosystems," *Mathematics of Computation*, vol. 48, no. 177, pp. 203–209, 1987.

[7] J. Daemen and V. Rijmen, *The Design of Rijndael: AES—The Advanced Encryption Standard*, Springer, 2002.

[8] National Institute of Standards and Technology (NIST), "FIPS PUB 197: Advanced Encryption Standard (AES)," 2001.

[9] S. Lin and D. J. Costello, *Error Control Coding*, 2nd ed. Prentice-Hall, 2004.

[10] J. L. Massey, "Shift-register synthesis and BCH decoding," *IEEE Transactions on Information Theory*, vol. 15, no. 1, pp. 122–127, 1969.



HUDUDIY TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO‘LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARI KOMPLEKSINI LOYIHALASH VA QURISH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

Norinov Muhammadyunus Usibjonovich,
Toshkent menjment va iqtisodiyot instituti
Farg‘ona kampusi dotsenti
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zikrayev Akmaljon Alimovich,
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani yo‘llardan
foydalanish unitar korxonasi direktori

Annotatsiya: Maqolada hududiy tarmoqlangan avtomobil yo‘llari va ular bilan bog‘liq muhandislik inshootlari kompleksini integrallashgan tizim sifatida loyihalashga yondashuv taklif etiladi. Yondashuv bosqichma-bosqich algoritm ko‘rinishida ishlab chiqilgan bo‘lib, u iqtisodiy zonalarga ajratilgan hududning transport talabini baholash, yo‘l tarmog‘ini graf modeli orqali ifodalash, kirishchanlik (accessibility), tarmoq barqarorligi (robustness) va qurilish qiymati bo‘yicha ko‘p mezonli baholashni o‘z ichiga oladi. Algoritm har bir yo‘l uchastkasi va muhandislik inshootlari uchun ustuvorlik darajasini aniqlab, qurilishning optimal bosqichma-bosqich rejasini shakllantirish imkonini beradi. Taklif etilgan metodika shartli ravishda “A viloyati” misolida sinovdan o‘tkazilib, natijada umumiy kirishchanlik indeksining 27–35 % ga oshishi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: hududiy yo‘l tarmog‘i, kirishchanlik, muhandislik inshootlari, tarmoq grafigi, ko‘p mezonli optimallashtirish, qurilish rejalashtirish algoritmi.

KIRISH

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, xususan sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining barqaror o‘sishi zamonaviy transport infratuzilmasini tizimli rejalashtirishni talab etadi. Avtomobil yo‘llari nafaqat linear tashqi harakat tizimi, balki ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar, drenaj qurilmalari, qiya yonbag‘irlarni mustahkamlash inshootlari kabi muhandislik obyektlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilgandagagina yuqori samaradorlikka erishadi.

Amaliyotda ko‘pincha yo‘llar alohida obyekt sifatida quriladi, natijada hududiy tarmoqning umumiy topologiyasi, strategik iqtisodiy markazlar va uzoq muddatli rivojlanish senariylari yetarli hisobga olinmaydi. Bu esa ayrim hududlarning transport kirishchanligining past bo‘lishiga, mahsulot tannarxining oshishiga hamda noto‘g‘ri joylashgan muhandislik inshootlari sababli kuchli yog‘ingarchilikda avariya va yemirilish xavfining ortishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda yo‘l-transport tarmoqlarini kirishchanlik ko‘rsatkichlari, iqtisodiy koridorlar va strategik markazlar asosida baholash bo‘yicha turli

yondashuvlar taklif etilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda tarmoqdagi muhandislik inshootlarining optimal joylashuvi va qurilishning ustuvor bosqichlarini aniqlash yetarlicha algoritmiy asoslanmagan.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi - hududiy tarmoqlangan avtomobil yo‘llari va ularga xizmat qiluvchi muhandislik inshootlari kompleksini yagona tizim sifatida baholab, ularni loyihalash hamda bosqichma-bosqich qurish uchun amaliy qo‘llash mumkin bo‘lgan optimallashtirilgan algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot obyekti va hududiy model

Metodologiya shartli ravishda “A viloyati” uchun ishlab chiqildi. Hudud iqtisodiy faoliyat va demografik ahamiyatiga ko‘ra quyidagi zonalarga ajratildi:

- **Iqtisodiy yadro zonasi** - sanoat markazlari, logistika markazlari va bozorlar joylashgan hududlar;
- **Resurs zonalari** - qishloq xo‘jaligi, konchilik va chorvachilik faoliyati ustun hududlar;



- **Ijtimoiy-insoniy zonalar** - yirik aholi punktlari, ta'lim va tibbiyot markazlari, turizm obyektlari.

Har bir zona uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar GIS ma'lumotlar asosida yig'ildi:

- aholi soni,
- yillik yuk aylanmasi (tonna/yil),
- asosiy xizmat ko'rsatish markazigacha bo'lgan o'rtacha masofa/yetib borish vaqti.

Bu parametrlar tugunlar ahamiyat og'irligini baholashda foydalanildi.

Yo'l tarmog'i grafigini shakllantirish

Mazkur hududning yo'l xaritasi asosida transport tarmog'i **yo'naltirilmagan graf** ko'rinishida modellashtirildi:

- tugunlar (node) — aholi punktlari va iqtisodiy markazlar,
- qirralar (edge) — mavjud yoki loyihaviy yo'l uchastkalari.

Har bir qirraga quyidagi parametrlar biriktirildi:

L_{ij} – uchastka uzunligi (km)

C_{ij} – qurilish/rekoonstruksiya qiymati (so'm)

t_{ij} – o'rtacha harakat vaqti (min)

R_{ij} – ishonchlilik koeffitsiyenti (0–1)

Eng qisqa yo'l bo'yicha masofa va vaqt

Dijkstra algoritmi orqali hisoblandi.

Kirishchanlik va barqarorlik ko'rsatkichlari

Tugun kirishchanlik indeksi

Har bir tugunning kirishchanligi quyidagi formulaga asoslanadi:

$$A_i = \sum_{j=1}^n \frac{P_j}{d_{ij}} \quad (1)$$

bu yerda:

A_i – i tugunning kirishchanlik indeksi,

P_j — j tugunning ahamiyat og'irligi (aholi + yuk oqimi integrali),

d_{ij} — eng qisqa yo'l bo'yicha masofa yoki vaqt.

Tarmoq barqarorligi (robustness)

Muqobil marshrut mavjudligi asosida baholandi:

$$R_i = \frac{N_i^{alt}}{N_i^{all}} \quad (2)$$

bu yerda:

- N_i^{alt} — alternativ yo'l mavjud bo'lgan juftliklar soni,
- N_i^{all} — barcha juftliklarning umumiy soni.

Muhandislik inshootlari kompleksiga ehtiyojni baholash

Qirralarning konstruktiv murakkablik darajasi quyidagi omillar asosida aniqlanadi:

- relyef gradiyenti (nishablik foizi),
- suv oqimlari kesib o'tishi,
- gruntning barqarorligi va ko'chki xavfi,
- gidrogeologik sharoit.

Ushbu omillarga ko'ra **murakkablik indeksi**

E_{ij} = 1–5 ball oralig'ida baholandi:

Ball	Talab qilinuvchi yechim
1	Oddiy yo'l qatlami yetarli
3	Qisman drenaj, mustahkamlash zarur
5	Ko'priq, tayanch devor va kuchli drenaj talab qilinadi

1-jadval. Ball va yechimlar.

Ko'p mezonli ustuvorlik algoritmi

Yo'l uchastkalarini qurish ketma-ketligini aniqlash uchun integral ustuvorlik ko'rsatkichi ishlab chiqildi:

$$S_{ij} = w_1 \cdot \Delta A_{ij} + w_2 \cdot \Delta R_{ij} + w_3 \cdot \frac{B_{ij}}{C_{ij}} \quad (3)$$

bu yerda:

- ΔA_{ij} — kirishchanlik oshishi,
- ΔR_{ij} — robustlik oshishi,
- B_{ij} — iqtisodiy foyda (vaqt/yoqilg'i tejalishi),
- C_{ij} — sarmoya qiymati,
- w_1, w_2, w_3 — vazn koeffitsiyentlari (AHP asosida topilgan).

Algoritm oqimi:

1. Tarmoq grafigini shakllantirish.
2. Barcha tugun va qirralar uchun A_i , R_i , E_{ij} ni hisoblash.
3. Loyihaviy uchastkalarni ro'yxatga olish.
4. Har bir uchastka qo'shilgandagi ΔA_{ij} , ΔR_{ij} , B_{ij} , C_{ij} ni aniqlash.
5. S_{ij} bo'yicha saralash.
6. Byudjetga mos holda 1–3 bosqichli qurilish paketini shakllantirish.



Yo‘l va muhandislik inshootlarida monitoring tizimi integratsiyasi.

Hududiy avtomobil yo‘llari va ularga birlashtirilgan muhandislik inshootlari (ko‘priklar, tayanch devorlar, suv o‘tkazgichlar) ekspluatatsiya jarayonida tashqi ta’sirlarga — yuklanish, vibratsiya, harorat farqlari, yer osti suvlarining ko‘tarilishi va gidrodinamik bosim o‘zgarishlariga uchraydi. Shu sababli loyiha bosqichida monitoring infratuzilmasini oldindan ko‘zda tutish zarur.

Monitoring tizimining funksional vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ko‘prik tayanchlaridagi deformatsion jarayonlarni doimiy kuzatish
- Yo‘l qatlamida cho‘kish va yoriqlar paydo bo‘lishining dastlabki belgilarini aniqlash
- Suv oqimi va bosimini nazorat qilish orqali sel xavfini kamaytirish
- Transport oqimining zichligi va yuk tafovutlarini real vaqt rejimida qayd qilish

Mazkur ma’lumotlar **mikroprotssessorli boshqaruv bloklari** yordamida yig‘ilib, dasturiy filtratsiya orqali tozalanadi va markaziy dispetcherlik tizimiga uzatiladi. Shunday integratsiyalashgan tizim inshootning xavfsizlik ko‘rsatkichlarini oldindan baholash imkonini beradi hamda avariya holatlari ehtimolini keskin kamaytiradi.

NATIJALAR


Mavjud tarmoqning boshlang‘ich bahosi

“A viloyati” uchun dastlabki tahlil shuni ko‘rsatdiki, mavjud yo‘l tarmog‘i hududning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatiga mos darajada xizmat qilmaydi. Tahlil natijalariga ko‘ra:

- 5 ta yirik sanoat markazidan 2 tasi **past darajali** yo‘llar orqali bog‘langan;
- Tog‘li hududdagi 3 ta qishloqda **muqobil yo‘llar mavjud emas** — robustlik indeksi $R_i \approx 0$;
- 2 ta turizm maskaniga yetib borish uchun **past sifatli 3 ta uchastkadan o‘tish** talab qilingan. Kirishchanlik tahlili natijasiga ko‘ra:
- viloyat markazining A_i qiymati yuqori,

- lekin chekka resurs zonalarida A_i viloyat o‘rtacha qiymatidan **40–45 % past**.

Bu natijalar hududiy integratsiya darajasi pastligini tasdiqlaydi.



Grafik 1. “A viloyati” hududiy yo‘l tarmog‘i (soddalashtirilgan graf)

Taklif etilgan algoritm asosida tarmoqni qayta loyihalash

Ko‘p mezonli ustuvorlik modeli asosida baholangan 20+ loyihaviy uchastka ichidan 8 tasi **1-bosqich** uchun eng maqbul deb topildi. Ular quyidagi funksional toifalarga ajratildi:

1. **Kollektor yo‘llar** — sanoat va resurs zonalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘laydi
2. **Ring yo‘l segmentlari** — transit oqimni aholi yashash hududidan chetlab o‘tkazadi
3. **Muhandislik murakkab uchastkalar** — ko‘prik, drenaj va tayanch devor talab etiladi

Bu yondashuv tarmoqning funksional samaradorligini kompleks oshirishga qaratilgan.

Takomillashtirilgan model samaradorligi

Virtual simulyatsiya natijalariga ko‘ra:


Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich holat	Rejalangan 1-bosqichdan so‘ng	O‘zgarish
O‘rtacha kirishchanlik $\bar{A}$	1,00 (shartli birlik)	1,27	+27 %
Chekka 3 qishloq uchun markazgacha vaqt	1,00 (nisbatan)	0,63	1,6 martaga qisqardi



Robustlik (muqobil yo‘lsiz juftliklar ulushi)	42 %	18 %	2,3 martaga kamaydi
---	------	------	------------------------------------

Murakkablik indeksi yuqori bo‘lgan uchastkalarga sarmoya yo‘naltirilishi tufayli:

- sel xavfi yuqori hududlarda avariya risklari sezilarli kamayadi,
- kapital qurilishning **bosqichli va optimal taqsimoti** ta‘minlandi.



Grafik 2. Tugunlar bo‘yicha kirishchanlik indeksleri

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari faqat yo‘l uzunligini kamaytirish yoki tezkor marshrut yaratish emas, balki **kirishchanlik + robustlik + iqtisodiy samaradorlikni** birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi.

Avvalgi ishlar, asosan, **accessibility matritsasi** asosida transport tarmoqlarini rivojlantirishni taklif etgan bo‘lsa [1–3], mazkur ishda:

- muhandislik inshootlari kompleksi ham hisobga olindi,
- konstruktiv xavfsizlik mezonlari (sel, ko‘chki xavfi) rejalashtirishga integratsiya qilindi,
- **AHP** orqali ustuvor mezonlar vazni aniqlanib, qaror qabul qilish jarayoni optimallashtirildi.

Taklif etilgan yondashuv quyidagi amaliy ustunliklarga ega:

Jadval 2. Afzalliklar va uning ta‘siri

Afzallik	Ta‘siri
Barqarorlikni hisobga olish	Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy yo‘qotishlar kamayadi

Muhandislik risklarini baholash	Inshootlar uzoq muddat xizmat qiladi
Byudjetning optimal taqsimoti	Eng katta foyda beruvchi obyektlar avval quriladi

Bu metod real hududlar bosh rejasi va mintaqaviy transport strategiyasini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Hududiy tarmoqlangan avtomobil yo‘llari va muhandislik inshootlariga integratsiyalashgan yondashuv:

- transport kirishchanligini 27 % gacha oshirishi,
- chekka hududlarni markazlarga yanada yaqinlashtirishi,
- tarmoqning barqarorligini sezilarli kuchaytirishi isbotlandi.

Ko‘p mezonli ustuvorlik modeli S_{ij} cheklangan byudjet sharoitida: eng yuqori ijtimoiy-iqtisodiy qaytimga ega loyihalar ketma-ketligini shakllantirish imkonini beradi.

Kelgusida:

- GIS real ma‘lumotlar bilan modellashtirish,
- tog‘li hududlar uchun xavfsizlik koeffitsiyentlarini kengaytirish,
- transport oqimining sutkalik dinamikasini qo‘shish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khusanov A.M., Ergashev O.M. Ko‘p kanalli monitoring tizimlarida uzluksiz ishlashni ta‘minlash texnologiyalari. IJARSET, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi. (2023). ShNQ 2.05.02-23 – Avtomobil yo‘llari. Loyihalash talablari. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (2024). Transport yuk aylanmasi bo‘yicha yillik hisobot.
4. Amalindo, H., Saggaff, A., Arliansyah, J. Infrastructure Development of Road Network for Regional Development Based on Accessibility Concept. Vol.9 (2019)
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). Hududlar bo‘yicha aholining soni. (Farg‘ona viloyati aholi statistikasi).
6. Google Maps. Farg‘ona viloyati shaharlararo masofalar (Qo‘qon–Farg‘ona–Marg‘ilon–Rishton avtomobil yo‘li masofalari ma‘lumotlari).



TASVIRLARDA SIFAT KO‘RSATKICHI ASOSIDA GAUSS SHOVQIN PARAMETRINI ANIQLASH YONDASHUVI

Mamatov Narzullo Solidjonovich,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy
tadqiqot universiteti, kafedra mudiri, texnika fanlari
doktori, professor
n.mamatov@tiame.uz

Erejepov Keulimjay Kaymatdinovich

Nukus davlat texnika universiteti, dotsent
k.erjepov@nukusstu.uz

Jalelova Malika Moyatdin qizi,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
dotsent v.b.
jalelova97@mail.ru

Annotatsiya: Raqamli tasvirlash sohasidagi tasvir sifatini oshirish hamda tasvirni tiklash masalalarida shovqin darajasini aniq baholash tasvirni qayta ishlashning ko‘plab vazifalarini hal etishga imkon beradi. Biroq, raqamli tasvirlarda shovqin darajasini aniqlash o‘ta murakkab va hali hamon aniq yechimi ishlab chiqilmagan masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishida tasvirlarning barcha turida uchraydigan Gauss shovqini tadqiq qilingan bo‘lib, bunda ushbu shovqin darajasining parametrini aniqlash vazifa sifatida qo‘yilgan. Shuningdek, tasvir sifatini etalonsiz baholash ko‘rsatkichlari orasida mashhur bo‘lgan BRISQUE (Blind/Referenceless Image Spatial Quality Evaluator) ko‘rsatkichidan foydalangan holda, shovqin parametrining qaysi oraliqqa tegishli ekanligini aniqlash mexanizmi taklif qilingan. Taklif etilgan mexanizm yangi kiruvchi tasvirning BRISQUE qiymati asosida tasvirdagi shovqin darajasini tahminan aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli tasvir, shovqin, Gauss taqsimoti, filtr, sifat ko‘rsatkichi, standart og‘ish, o‘rtacha, parametr, tasvirlash vositasi, sensorlar.

Kirish. Bugungi kunda raqamli tasvirlarni qayta ishlash tizimlarida tasvirlarni sifat darajasini baholash o‘ta muhim vazifa hisoblanadi. Raqamli tasvirni qayta ishlash tasvirni yaxshilash, o‘zgartirish yoki tahlil qilish uchun mo‘ljallangan keng ko‘lamli usul va algoritmlardan tashkil topgan bo‘ladi [1-3]. Odatda, tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari ikki toifaga ajraladi: etalonli va etalonsiz [4]. Etalonli ko‘rsatkichlar qayta ishlangan yoki buzilgan tasvirni mavjud etalon tasviri bilan taqqoslashga asoslanadi va shuning uchun ushbu ko‘rsatkichlardan faqatgina qayta ishlanayotgan tasvirni etalon tasviri mavjud bo‘lgandagina qo‘llanish mumkin bo‘ladi. Etalonsiz usullar tasvirni yorqinlik, tiniqlik, kontrast va shovqin darajasi kabi raqamli tasvir parametrlarini miqdoriy baholashga asoslangan bo‘ladi. Tasvir yorqinligi,

kontrasti va tiniqligini hisoblash va baholash, tasvir sifatini oshirish uchun ko‘pgina yondashuv va algoritmlar [5-8] ishlab chiqilgan bo‘lsa da, tasvirdagi shovqin darajasini baholash muammosi to‘liq hal qilinmagan. Biroq, shovqin darajasi o‘ta muhim, chunki uning qiymati tasvir sifatini baholashda va tasvirni tahlil qilishda zarur bo‘ladi. Xususan, shovqin darajasining qiymati tasvirlardagi ob‘ekt konturlarini aniqlash tizimlarida sezgirlik darajasini tanlash yoki tasvir aniqligini baholash masalalarida talab qilinadi. Shuning uchun tasvir sifatiga ta’sir etuvchi shovqin va uning darajasini aniqlash, kelib chiqish sabablarini o‘rganish zarur.

Ayni paytda fan, texnologiya, tibbiyotda, shuningdek, kundalik hayotda, jumladan, mobil telefonlar va raqamli kameralar kabi turli xil raqamli



tasvirlash vositalari qo'llanilmoqda. Ma'lumki, ushbu vositalar talqin qilinayotgan sahnani suratga olish uchun linzalar va yarim o'tkazgich sensorlardan tashkil topgan bo'ladi. Biroq, bu elementlar tasvirlarda turli halaqitlarni, jumladan, shovqin va hiralik, geometrik buzilishlarni keltirib chiqaradi [9]. Shuning uchun, yuqori sifatli raqamli tasvirlarni olish uchun shovqin darajasini aniqlash muammosini hal qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Shovqinni bartaraf etish raqamli tasvirlarga ishlov berishning asosiy vazifalaridan biridir. Har qanday tasvir nafaqat foydali ma'lumotni, balki ba'zi shovqinlarni ham o'z ichiga oladi [10]. Shovqin-bu skaner yoki raqamli kameraning sensori va sxemalari tomonidan yaratilgan tasvirlardagi yorqinlik yoki rang ma'lumotlarining tasodifiy o'zgarishi. Tasvirlarda shovqin modelini va parametrini aniqlamasdan shovqinni bartaraf etish murakkabdir. Bunday holatda tadqiqotchilar oldida quyidagi savollar kelib chiqishi tabiiy:

- asl tasvir qanchalik buzilgan?
- qaysi shovqin modeli shovqinli tasvir bilan bog'langan?
- tasvirni qanday qilib qayta qurish mumkin?

Shovqin va uning parametrini tadqiq qilish yuqorida keltirilgan muammolarga yechim topish imkonini beradi.

Tasvirga qo'shiluvchi shovqinlar orasida Gauss shovqini barcha tasvir turida uchraydigan va butun tasvir pikselleriga ta'sir etadigan shovqin bo'lganligi sababli [11], mazkur tadqiqot ishida Gauss shovqini tadqiq qilingan. Ko'plab tadqiqotchilar Gauss shovqinini baholash va uni pasaytirish bo'yicha turli filtrlar (Wiener, Non-Local Means, BM3D va boshqalar) hamda statistik metodlarni taklif qilgan bo'lsa-da, ushbu masalaning to'liq va aniq yechimi hozirgi kunga qadar ishlab chiqilmagan. Chunki tasvirda Gauss shovqinining darajasini baholash va uni bartaraf etish murakkab vazifa hisoblanadi.


Shovqin pasaytirish orqali yuqori sifatli tasvirlarni navbatdagi ishlov berish bosqichlariga o'tkazish va ularni samaradorligini oshirish mumkin.

Materiallar. Gauss shovqini raqamli qurilmalarning elektr zanjirlarida va fotodatchiklarda kam yorug'lik sharoitida va kuchli issiqlik harorat o'zgarishida hosil bo'ladi [12]. Ushbu shovqin butun tasvir bo'ylab tarqaladigan Gauss taqsimotiga bo'ysinuvchi shovqin hisoblanib, uning parametrlari μ va σ qiymatiga qarab o'zgaradi.

$$g(z) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma} e^{-\frac{(z-\mu)^2}{2\sigma^2}}$$

bu yerda z – tasvirning yorqinlik darajasi, μ – o'rtacha (mean), σ – standart og'ish (standart deviation).

Standart og'ishning kvadratiga “variance” (dispersiya) deyiladi va u shovqin kuchini aniqlaydi. Gauss shovqini uchun ehtimollik zichlik funksiyasining grafigi quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. Turli parametrlarda Gauss taqsimotining chiziqlari

Gauss shovqini tasvirlarda haqiqiy bo'lmagan qirralar, ko'rinmaydigan chiziqlar, burchaklar, hiralashgan nomaqbul effektlarni keltirib chiqaradi va fon sahnalarini buzadi. Shovqin parametri va uning o'zgarish oralig'ini aniq bilmasdan, uni raqamli tasvirdan bartaraf etish murakkabdir. Shuning uchun Gauss shovqin parametrini aniqlash bo'yicha metodologiya ishlab chiqilgan.

Metodologiya. Faraz qilaylik, $D - R^2$ fazodagi chegaralangan soha ($D \subset R^2$), $T_{org}(x, y)$ - toza tasvir va $T_{real}(x, y)$ - real tasvir, shovqin parametri sifatida esa p belgilash qabul qilingan bo'lsin. Bu yerda $(x, y) \in D$.



Mazkur ishda Gauss shovqinining parametri sifatida “variance” o‘zgaruvchan va “mean” esa fiksirlangan deb faraz qilinadi. Ya’ni, p parametr sifatida “variance” ning o‘zgaruvchan qiymatlari olinadi ($p \in [0; 0.2]$). Tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichi sifatida insonni sub’ektiv bahosiga yaqin bahoni beradigan mashhur BRISQUE ko‘rsatkichi tanlangan va ushbu ko‘rsatkich Br sifatida belgilangan. Ushbu tasvir sifatini etalonsiz baholash ko‘rsatkichi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar va tadqiqotlar [13-15] ishlarda keltirilgan.

Tadqiqot boshida tajriba uchun olingan tasvirlar BRISQUE qiymatlari bo‘yicha toifalarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

BRISQUE qiymati bo‘yicha tasvir toifalash natijalari

Tasvir sifati	Toifaga ajralish diapazoni
Best	(0;21)
Good	[21;41)
Medium	[41;61)
Poor	[61;81)
Bad	[81;100)

1-jadval bo‘yicha sifat toifasi aniqlangan T_{org} tasvirga turli darajadagi p_i ($i = \overline{0, 0.2}$) parametr qiymatlarida Gauss shovqinini qo‘shish orqali T_{noisy}^i shovqinli tasvirlar hosil qilinadi. Gauss shovqinini qo‘shish va turli parametrlarga mos shovqinli tasvirlarni hosil qilish algoritmlari quyida keltirilgan.

#Gauss shovqinini qo‘shish algoritmi

Algoritm_1

```
def gauss_noise(img, param):
```


```
    noise=random_noise(img,mode="gaussian",mean=
    0,var=param)
    noise=255*noise
    noise=noise.astype('uint8')
    return noise
```

#Shovqinli tasvirlarni shakllantirish algoritmi

Algoritm_2

```
input  $T_{org}$ 
i=0
while i<=0.2:
    noisy_image=add_gauss_noise( $T_{org}$ , i)
    save(noisy_image)
     $Br$  (noisy_image)
    i=i+0.0001
```

Shakllantirilgan shovqinli tasvirlarning Br qiymatlaridan foydalangan holda, yangi T_{real} tasvirning Gauss shovqin parametrini qaysi oraliqqa tushishini aniqlash uchun quyidagi sxema bo‘yicha hisoblashlar amalga oshiriladi.




2-rasm. T_{real} tasvirning Gauss shovqin parametrini aniqlash sxemasi

2-rasmda keltirilgan sxemaning ma’nosi shundaki, T_{real} tasvirning Br qiymati tasvirlarning qaysi sifat toifasiga tegishli ekanligiga ko‘ra, ushbu toifadagi mos eng yaqin shovqinli tasvirlar parametrlarining o‘zgarish oralig‘i olinadi. Ya’ni, bunda tasvir sifatining har bir toifasi uchun $[a_1; b_1], [a_2; b_2], [a_3; b_3], [a_4; b_4], [a_5; b_5]$ oraliqlari aniqlanadi.

Hisoblash tajribasi va natijalar. Mazkur tadqiqot ishida hisoblash tajribalarini o‘tkazish uchun www.kaggle.com saytidagi “High resolution” nomli tasvirlar bazasidan va mualliflar tomonidan yig‘ilgan hayotiy tasvirlar bazasidan foydalanilgan. “High resolution” nomli tasvirlar bazasidan olingan namuna tasvirlarga turli darajadagi Gauss shovqinlarini




qo‘shishi orqali shovqinli tasvirlar hosil qilingan va ularni Br (BRISQUE) qiymatlari ham hisoblangan. Ushbu olingan namuna tasvirlar va ularga mos turli darajadagi shovqinlar qo‘shilgan holatlari quyidagi rasmlarda keltirilgan.



3-rasm. Tasvirlarga turli darajadagi Gauss shovqini qo‘shilish natijalari

Gauss shovqin parametrining turli darajadagi qiymatlari bilan olingan shovqinli tasvirlarda parametr va Br qiymatlari asosida orginal tasvirning shovqin xaritasini chizish mumkin bo‘ladi (4-rasm). Ushbu shovqin xaritasi amaliyotda yetarlicha aniqlik bilan shovqinni baholash imkonini beradi.



4-rasm. Gauss shovqin parametri va unga mos tasvir sifati ko‘rsatkichi Br qiymatlari orasidagi bog‘liqlik

Namuna uchun olingan tasvirlarga Gauss shovqin parametrini turli darajada o‘zgartirish orqali hosil qilingan shovqinli tasvirlarni Br qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tasvir nomi	Tasvirning Br qiymatlar diapazoni	Diapazon nomi	Shovqin parametri p ga mos shovqinli tasvirning Br qiymati				
			$p=0.0002$	$p=0.001$	$p=0.002$	$p=0.003$	$p=0.004$
img88	$Br \in (0; 21]$	Best	18.98	39.21	45.19	47.19	51.43
img99	$Br \in [21; 41]$	Good	22.85	19.49	26.93	29.70	36.87
img55	$Br \in [41; 61]$	Medium	30.81	49.74	59.72	64.90	66.34
img58	$Br \in [61; 81]$	Poor	29.78	45.69	53.96	59.25	64.69
img86	$Br \in [81; 100]$	Bad	22.78	39.17	46.77	49.46	52.39

Yuqorida tajribaviy tadqiqotlar natijasida tasvir sifatining har bir toifasi uchun p quyidagi oraliqlarga mos kelishi aniqlangan:

If $Br(T_{real}) \in (0; 21]$, then “Best”

$p \in [0; 0.0002]$

If $Br(T_{real}) \in (21; 41]$, then “Good”

$p \in [0.001; 0.005]$

If $Br(T_{real}) \in (41; 61]$, then “Medium”

$p \in [0.0006; 0.002]$

If $Br(T_{real}) \in (61; 81]$, then “Poor”

$p \in [0.003; 0.01]$

If $Br(T_{real}) \in (81; 100]$, then “Bad”

$p \in [0.05; 0.09]$

Xulosa. Mazkur tadqiqot ishida tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichi asosida Gauss shovqinining darajasini aniqlash masalasi tadqiq qilingan bo‘lib, bunda tasvir sifatini baholash uchun BRISQUE qiymatidan fodylanilgan. Chunki, ushbu ko‘rsatkich insonni sub’ektiv bahosiga yaqin hisoblanadi va tasvirni har tomonloma baholash imkonini beradi.

Tasvirlarda Gauss parametrining o‘zgarish oralig‘ini aniqlash uchun tajribaviy tadqiqotlarda toza tasvirlar olindi va ularga turli darajadagi shovqinlar qo‘shilishi natijasida shovqinli tasvirlar hosil qilinib, ularni BRISQUE qiymatlari aniqlandi va ular asosida yangi T_{real} tasvirning Br qiymati tasvirlarning qaysi sifat toifasiga tegishli ekanligiga ko‘ra, T_{real} tasvir parametrining o‘zgarish oralig‘i aniqlandi. Hisoblash tajribalarini o‘tkazish natijasida istalgan tasvirning



Gauss shovqin parametri qaysi oraliqqa tegishli ekanligini aniqlash mexanizmi taklif qilindi.

Har qanday holatda, tasvirdagi shovqin darajasi haqidagi aniq ma'lumotlardan foydalanish shovqin pasaytirish algoritmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ishlab chiqilgan Gauss shovqin parametrining o'zgarish oralig'ini aniqlash mexanizmi raqamli tasvirlarni qayta ishlash va tiklash masalalarini hal etishda ma'lum darajada hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M. Narzillo, A. Bakhtiyor, K. Shukrullo, O. Bakhodirjon and A. Gulbahor, "Peculiarities of face detection and recognition," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670086.
2. Mamatov, N., Jalelova, M., & Samijonov, B. (2024). Tasvir obyektlarini segmentatsiyalashning mintaqaga asoslangan usullari. Modern Science and Research, 3(1), 1-4.
3. N. S. Mamatov, B. A. Abdulkadirov, A. N. Samijonov and B. N. Samijonov, "Method for false attack detection in face identification system," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670153.
4. Маматов, Н. ., Султанов, П. ., Уилдашев, Ю. ., & Жалелова, М. . (2023). МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЮ Контрастности изображений при мултиспиральной томографии. Евразийский журнал академических исследований, 3(9), 125–132. извлечено от <https://www.inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/20618>
5. Mamatov N. S. et al. Algorithm for improving the quality of mixed noisy images //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2024. – Т. 2697. – №. 1. – С. 012013.
6. Mamatov, N. S., Niyozmatova, N. A., Jalelova, M. M., Samijonov, A. N., & Tojiboyeva, S. X. (2023). Methods for improving contrast of agricultural images. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 04020). EDP Sciences.
7. Маматов, Н., Султанов, П. ., Жалелова, М. ., & Тожибоева, Ш. . (2023). КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА МЕДИЦИНСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ,

ПОЛУЧЕННЫХ НА МУЛТИСПИРАЛЬНОМ КОМПЬУТЕРНОМ ТОМОГРАФЕ. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(9), 27–37. извлечено от <https://www.inacademy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/20675>

8. Mamatov, N.S., Pulatov G. G., Jalelova M.M., —Image contrast enhancement method and contrast evaluation criteria optimal pair // Digital Transformation and Artificial Intelligence. Vol. 1 No. 2 (2023). Vol. 1 No. 2 (2023).

<https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i225/v1i225>

9. Тхан, Д.Н.Х. Устранение шума на изображениях на основе метода полной вариации / Д.Н.Х. Тхан, С.Д. Двоенко // Компьютерная оптика. – 2015. – Т. 39, № 4. – С. 564-571, –DOI: 10.18287/0134-2452-2015-39-4-564-571.

10. Волкова Лилиа Леонидовна Метод подавления шума в изображениях на основании кратномасштабного анализа // Инженерный журнал: наука и инновации. 2013. №6 (18).

11. Маматов, Н., & Джалелова, М. (2023). Tasvir shovqinlari tahlili. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 113–115. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25009>

12. Abd Al-salam Selami, Ameen & Fadhil, Ahmed. (2016). A Study of the Effects of Gaussian Noise on Image Features. Kirkuk University Journal / Scientific Studies (1992-0849). 11. 152 - 169. 10.32894/kujss.2016.124648.

13. Mamatov, N. S., Jalelova, M. M., Tojiboyeva, S. X., & Samijonov, B. N. (2023). Methods for Reducing Mixed Noise in an Image. Methods, 10(12).

14. El Abbadi N. K., Al-Zubaidi E. A., Razzaq H. S. Image quality assessment tools //Journal of Xi'an University of Architecture and Technology. 2020. Vol. 12. №. 3. P. 1260-1276.

15. Mittal, Anish & Moorthy, Anush & Bovik, Alan. (2012). No-Reference Image Quality Assessment in the Spatial Domain. IEEE transactions on image processing : a publication of the IEEE Signal Processing Society. 21. 10.1109/TIP.2012.2214050.



DASTURIY TA’MINOT ORQALI INTELLEKTUAL TIZIMNI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH

Muxamedieva Dilnoz Tulkunovna,

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kafedrası
professori, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy
tadqiqot universiteti

Email: dilnoz123@rambler.ru,
Orcid ID: 0000-0002-4561-4474

Yuldoshev Yusuf Sheralievich,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi bosh inspektori

Email: yusuf_yuldoshev@mail.ru,
Orcid ID: 0000-0001-9708-2687

Rustamov Yerbol Nasimovich,

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kafedrası
izlanuvchisi, “Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

Email: rustamoverbol24@gmail.com ,
Orcid ID: 0009-0000-1976-0059

Tagaev Farxad Abduvaxabovich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Toshkent viloyati, O‘zbekiston

Annotatsiya: Raqamli tasvirlash sohasidagi tasvir sifatini oshirish hamda tasvirni tiklash masalalarida shovqin darajasini aniq baholash tasvirni qayta ishlashning ko‘plab vazifalarini hal etishga imkon beradi. Biroq, raqamli tasvirlarda shovqin darajasini aniqlash o‘ta murakkab va hali hamon aniq yechimi ishlab chiqilmagan masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishida tasvirlarning barcha turida uchraydigan Gauss shovqini tadqiq qilingan bo‘lib, bunda ushbu shovqin darajasining parametrini aniqlash vazifa sifatida qo‘yilgan. Shuningdek, tasvir sifatini etalonsiz baholash ko‘rsatkichlari orasida mashhur bo‘lgan BRISQUE (Blind/Referenceless Image Spatial Quality Evaluator) ko‘rsatkichidan foydalangan holda, shovqin parametrining qaysi oraliqqa tegishli ekanligini aniqlash mexanizmi taklif qilingan. Taklif etilgan mexanizm yangi kiruvchi tasvirning BRISQUE qiymati asosida tasvirdagi shovqin darajasini taxminan aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli tasvir, shovqin, Gauss taqsimoti, filtr, sifat ko‘rsatkichi, standart og‘ish, o‘rtacha, parametr, tasvirlash vositasi, sensorlar.

Kirish

Intellectual axborot tizimlarining amaliy ahamiyati nafaqat nazariy modellar va algoritmlarning haqiqiyliги bilan, balki ularni dasturiy ta’minotni amalga oshirish va real hayotda qo‘llash imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Shuning uchun tadqiqotning

yakuniy bosqichi dasturiy ta’minot paketini ishlab chiqish va uning funktsionalligini eksperimental tekshirish hisoblanadi [1-4].

Ushbu ish oldingi boblarda muhokama qilingan algoritmlarni dasturiy ta’minot bilan amalga oshirish va ma’lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilishda



intellektual tizimning samaradorligini baholashga qaratilgan. Asosiy e'tibor dasturiy ta'minot to'plamining arxitekturasiga, axborot modelini yaratish modullarini amalga oshirishga, ishlab chiqarish bilimlarini qurishga va tasniflash algoritmlarini qo'llashga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi ishlab chiqilgan usullarning amaliy qo'llanilishini tasdiqlash zaruratidan kelib chiqadi. Eksperimental tekshirishsiz, nazariy natijalarni to'liq deb hisoblash mumkin emas va aqlli tizimni real dunyo jarayonlarida amalga oshirish uchun asos bo'lmaydi. Ushbu ishning maqsadi intellektual tizimning dasturiy ta'minotini ta'riflash va uning samaradorligi va barqarorligini tasdiqlovchi hisoblash tajribalari natijalarini tahlil qilishdir [5-8].

Metodologiya

Dasturiy ta'minotni amalga oshirish modulli arxitektura yondashuvidan foydalanadi, bu intellektual tizimning funktsionalligini mantiqiy mustaqil komponentlarga ajratadi. Asosiy modullar ma'lumotlarni qayta ishlash moduli, axborot modelini yaratish moduli, bilimlar bazasini qurish moduli va qaror qabul qilish modulidir. Ruxsat etilgan jadval usuli birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qo'llaniladi, bu esa domen obyektlarining xususiyatlarini rasmiylashtirilgan shaklda ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu usul ma'lumotlarni normallashtiradi va tuzatadi, uning izchilligi va keyingi qayta ishlashga yaroqliligini ta'minlaydi [9-14].

Xususiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun global va mahalliy xususiyat xususiyatlarini hisoblaydigan korrelyatsiya tahlili algoritmi amalga oshiriladi. Ma'lumotlar dinamikasini hisobga olish uchun vaqt o'tishi bilan xususiyatlarning o'zgarishini tahlil qilish uchun toymasin oyna usuli qo'llaniladi. Ishlab chiqarish bilimlari fraktal bilimlarni tashkil etish algoritmi yordamida ishlab chiqariladi, unda ishlab chiqarish qoidalari ierarxik tarzda tuzilgan. Tasniflash masalalarini hal qilish uchun yaqinlik funksiyasiga mos keladigan algoritm qo'llaniladi, bu talqin qilinadigan qaror qabul qilish imkonini beradi. Tizimni eksperimental baholash tasniflashning aniqligi, natijalarning mustahkamligi va

algoritmlarning hisoblash samaradorligini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi [15-19].

To'plangan ma'lumotlar va ma'lumotlarning katta hajmi, yangi ma'lumotlarning tez oqimi bilan birga, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlash uchun etarli bo'lmagan zamonaviy axborot tizimlariga (AK) tobora qattiqroq talablarni qo'yadi. Bu, birinchi navbatda, mavjud ISlar ma'lumotlarni matnli hujjatlar yoki axborot resurslari sifatida taqdim etishi bilan bog'liq. Tabiiyki, odamlar uchun ma'lumotni taqdim etishning eng tabiiy shakli o'zaro bog'langan ma'lumotlar tarmog'i, ya'ni bilimdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish va qayta ishlashning sifat jihatidan yangi darajasiga - semantik darajaga o'tish kerak, bu esa hujjatlarning ma'nosini (mazmunini) hisobga olish, ulardan tegishli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Intellektual axborot tizimi (IIS) dunyo haqidagi umumiy bilimlardan va u xizmat ko'rsatadigan mavzu (DA) haqidagi bilimlardan foydalangan holda, ma'lumotni o'zaro bog'langan ma'lumot sifatida taqdim etish va talqin qilish vositalarini taqdim etishi mumkin. Hozirgi vaqtda bunday bilimlar ishlab chiqarish bilimlarining ontologiyasi sifatida ifodalanadi, ular nafaqat hujjatlar va axborot resurslari semantikasini tavsiflash uchun, balki keng ko'lamli IISni qurishda ham tobora ko'proq foydalanilmoqda [20-24].

Umumiy ko'rinishda, produksiya quyidagicha ifodalanadi:

$$\Phi_i^p : A \rightarrow B; N \quad (1)$$

bu yerda i – *produksiya* nomi, orqali mazkur produksiya barcha produksiyalar to'plamida ajratiladi, $p - I^{\Sigma}(\delta_i(x_i))$ talqin qilinadigan kontekst.

Produksion bilim fraktalini qurishda sabab-oqibat xususiyatlariga ega belgilarni tanlash vazifasi paydo bo'ladi. Produksion bilim fraktalini qurish uchun $\delta_j \in X$ belgilarni tanlash algoritmi tavsiflanadi. Produksion bilim fraktalini qurishning asosiy vazifasi ma'lumotlar bazasidan sababli va oqibatli xususiyatlarga ega belgilarni tanlashdan iborat. Ushbu



belgilarning asosiy maqsadi – produksion bilim fraktalini yaratishda qoʻllanishdan iborat:

$$Q^m : \{\Phi_k\} = (B_u^i \rightarrow \sum_{c=1}^{g(i)} b_c^{u,j})^k \quad (2)$$

Ushbu formulada B_i^u sababli xususiyatlarga ega belgilardan tashkil topgan global yaratuvchi baza

(GYaB) deb ataladi, hamda $\sum_{c=1}^{g(i)} b_c^{u,j}$ oqibatli xususiyatlarga ega belgilardan tashkil topgan lokal yaratuvchi baza (LYaB) deb ataladi.

Teorema 1 asosida produksion bilimlar bazasini qurish algoritmi tavsiflanadi.

Teorema 1. Bilimlar Φ_k^j va Φ_{k-1}^j bir-biriga sigʻadi, agar,

$$I_{c_0}^j(\Phi_k^j, b_c^{u,j}) \neq I_{c-1}^j(\Phi_{k-1}^j, b_c^{u,j}). \quad (2)$$

Teorema 2. Bilimlar Φ_k^j va $\Phi_{\tau_0}^0$ toʻgʻri relevantli hisoblanadi, agar quyidagi shartlar bajarilsa:

$$\exists P(\Phi_k^j, \Phi_{\tau_0}^0) \in \sum_Q : I^u(K_J(S_J)) \leftrightarrow I^{\tau_0}(K_J(S_{\tau_0})), \quad (3)$$

$$\exists (P(\Phi_k^j, \Phi_{\tau_0}^0) = 1) \in \sum_Q : I^u(K_J(S_J)) \leftrightarrow I^{\tau_0}(K_J(S_{\tau_0})) \quad (3)$$

Natijalar

Dasturiy taʼminotni joriy etish natijasida maʼlumotlardan ishlab chiqarish bilimlariga avtomatlashtirilgan oʻtish imkonini beruvchi intellektual dasturiy taʼminot toʻplami yaratildi. Amalga oshirilayotgan tizim predmet sohasining axborot modelini muvaffaqiyatli yaratadi va uning asosida ishlab chiqarish bilimlari bazasini yaratadi. Eksperimental tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, global va mahalliy xususiyat xususiyatlaridan foydalanish xususiyat semantikasini hisobga olmaydigan asosiy usullarga nisbatan tasniflash aniqligini yaxshilaydi. Sürgülü oynadan foydalanish dinamik maʼlumotlarda barqaror naqshlarni aniqlashga imkon berdi.

Ishlab chiqarish bilimlarining fraktal tuzilishi bilimlar bazasining ortiqchaligini kamaytirishga yordam beradi va uning kengayishini soddalashtiradi. Tasniflash algoritmlari shovqinli va qisman toʻliq

boʻlmagan maʼlumotlarga chidamliligini namoyish etadi. Bundan tashqari, tizim ishga tushirilgan ishlab chiqarish qoidalarini tahlil qilish qobiliyati tufayli natijalarning talqin qilinishini taʼminlaydi, bu amaliy ilovalar uchun muhim afzallikdir.


SVD uchun sportchini tanlashdan maqsad, muayyan mushak guruhlarining kuch xususiyatlarini (sport mashgʻulotlari paytida) "mos yozuvlar" sinflaridan birining xususiyatlariga imkon qadar yaqinlashtirishdir. Biroq, anʼanaviy ravishda "standart" deb ataladigan ushbu sinflarning hech biri sportchining tezlik va kuch mashqlari ierarxiyasida ustuvor yoki eng yaxshi deb hisoblanishi mumkin emas. Birinchidan, har bir sinfga dzyudo boʻyicha yuqori saviyadagi musobaqalarda yuqori sport koʻrsatkichlariga erishgan yuqori malakali sportchilar kiradi. Ikkinchidan, bu sinflarga boʻlinish mushak tizimining tezlik-kuch tuzilmasidagi dominant mushak guruhleri xususiyatlarini aniqlash va baholashni osonlashtiradi, bu esa jangovar texnika va taktik koʻnikmalarni amalga oshirishda vosita muammolarini hal qilishda sportchining individualligini namoyon qilish imkonini beradi.

Taklif etilgan algoritmik kontseptsiya asosida intellektual dasturiy paket (ISP) yaratildi, uning blok sxemasi 1-rasmda koʻrsatilgan.

Yuqori darajadagi musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan sportchilarni tanlash bilan bogʻliq edi. Maʼlumki, bugungi kunda sport nafaqat tijorat shaklini, balki ijtimoiy-siyosiy mazmunni ham egallagan. Bularning barchasi yuqori darajadagi sportga (YDS) tayyorlovchi murabbiylardan katta masʼuliyatni talab etadi.

YDS uchun tanlov vazifasini belgilash. Yuqori darajadagi musobaqalarda gʻalaba qozonishda hal qiluvchi omillardan biri mushaklarning tezlik va kuch xususiyatlarini namoyish eta olish qobiliyati boʻlib, bu maksimal ishchi kuchlanishni rivojlantirish tezligi sifatida tushuniladi. Chuqur sport ixtisoslashuvi sharoitida bu qobiliyatlar har bir shaxsda turlicha shakllanadi, yaʼni ular maʼlum mushak guruhlariga yoʻnaltiriladi. Eksperimentda 19–22 yoshdagi va Sport ustasi unvoniga ega boʻlgan Oʻzbekiston milliy terma jamoasining yigirma besh nafar judokasi ishtirok etdi.





1-rasm. Intellektual dasturiy kompleksning (ISC) umumiy blok diagrammasi

Aslida, sportchilar mushaklarning turiga qarab yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar. 22 ta mushak guruhi mavjud: oyoq-qo'llarning bukuvchi va ekstensorlari. Har bir mushak guruhining imkoniyatlari to'rtta ko'rsatkich bilan tavsiflangan: mushaklarning nisbiy kuchi va portlovchi, boshlang'ich va tezlashtiruvchi mushak kuchining gradientlari. Ushbu ko'rsatkichlar (jami 88 ta) dzyudochilarning mushak tizimining tezlik-kuch profilini tavsiflaydi va quyidagi mazmunli talqinqa ega.

Kontekstlarning nomi(p_i) $\delta_i(x_i)$ 22 mushak guruhi	Portlovchi, boshlash va tezlashtirish harakatlarining nisbiy kuchi, gradyanlari uchun kiritilgan belgi.
Press	$\delta_1, \delta_2, \delta_3, \delta_4$
Orqa	2-mushaklar guruhi $\delta_5, \delta_6, \delta_7, \delta_8$
O'ng oyoq - kengaytma	3-mushaklar guruhi $\delta_9, \delta_{10}, \delta_{11}, \delta_{12}$
O'ng son - kengaytma	4-muskullar guruhi $\delta_{13}, \delta_{14}, \delta_{15}, \delta_{16}$
O'ng son - egilish	5-mushaklar guruhi $\delta_{17}, \delta_{18}, \delta_{19}, \delta_{20}$
O'ng shin - kengaytma	6-mushaklar guruhi $\delta_{21}, \delta_{22}, \delta_{23}, \delta_{24}$
O'ng shin - egilish	7-mushaklar guruhi $\delta_{25}, \delta_{26}, \delta_{27}, \delta_{28}$

Chap oyoq - kengaytma	8-mushaklar guruhi $\delta_{29}, \delta_{30}, \delta_{31}, \delta_{32}$
Chap son - kengaytma	9-mushaklar guruhi $\delta_{33}, \delta_{34}, \delta_{35}, \delta_{36}$
Chap son - egilish	10-mushaklar guruhi $\delta_{37}, \delta_{38}, \delta_{39}, \delta_{40}$
Chap shin - kengaytma	11-mushaklar guruhi $\delta_{41}, \delta_{42}, \delta_{43}, \delta_{44}$
Chap shin - egilish	12-mushaklar guruhi $\delta_{45}, \delta_{46}, \delta_{47}, \delta_{48}$
O'ng bilak - egilish	13-mushaklar guruhi $\delta_{49}, \delta_{50}, \delta_{51}, \delta_{52}$
O'ng elka - egilish	14-mushaklar guruhi $\delta_{53}, \delta_{54}, \delta_{55}, \delta_{56}$
O'ng bilak - kengaytma	15-mushaklar guruhi $\delta_{57}, \delta_{58}, \delta_{59}, \delta_{60}$
O'ng elka - kengaytma	16-muskullar guruhi $\delta_{61}, \delta_{62}, \delta_{63}, \delta_{64}$
O'ng elka - adduksiya	17-mushaklar guruhi $\delta_{65}, \delta_{66}, \delta_{67}, \delta_{68}$
Chap bilak - egilish	18-muskullar guruhi $\delta_{69}, \delta_{70}, \delta_{71}, \delta_{72}$
Chap elka - egilish	19-mushaklar guruhi $\delta_{73}, \delta_{74}, \delta_{75}, \delta_{76}$
Chap bilak - kengaytma	20-mushaklar guruhi $\delta_{77}, \delta_{78}, \delta_{79}, \delta_{80}$
Chap elka - kengaytma	21-mushaklar guruhi $\delta_{81}, \delta_{82}, \delta_{83}, \delta_{84}$
Chap elka - adduksiya	22-mushaklar guruhi $\delta_{85}, \delta_{86}, \delta_{87}, \delta_{88}$

Mushak xossalari $\delta_i(x_i)$ uchun biz A algoritmidan p_i foydalangan $\delta_i(x_i)$ holda sabab-oqibat munosabatlariga ega xususiyatlarni topdik va δ_{37} bo'lib chiqdi (2-jadval). O'quv jadvalidan foydalanib $T_0^{CB/D} = B$, biz fraktalni loyihalashtiramiz.



$\Phi_0^{CBD} = B$, bu fraktal asosida biz $\rightarrow \sum_{j=1}^{11} b_j$
SVD muammosi uchun ishlab chiqarish *bilimlar bazasini* quramiz.

GPB imkoniyatlari:

$$B_1^j = \delta_{17} < 0.8;$$

$$B_2^j = (\delta_{17} \geq 0.8) \vee (\delta_{37} \geq 0.8);$$

$$B_3^j = \left(\frac{\delta_{17}}{\delta_{37}} \geq 1.311 \right) \vee \left(\frac{\delta_{17}}{\delta_{37}} \geq 1.311 \right);$$

$$B_4^j = B_1^j \wedge B_3^j.$$

LPB variantlari:

$$b_1^{u,j} = (\delta_{17} \geq 0.8) \vee (\delta_{37} \geq 0.8);$$

$$b_2^{u,j} = (\delta_{49} \geq 0.78) \vee (\delta_{69} \geq 0.78);$$

$$b_3^{u,j} = (\delta_{53} \geq 0.72) \vee (\delta_{73} \geq 0.72);$$

$$b_4^{u,j} = (\delta_{13} \geq 2.6) \vee (\delta_{33} \geq 2.6);$$

$$b_5^{u,j} = (\delta_{17} / \delta_{37} \geq 1.311) \vee (\delta_{37} / 17 \geq 1 / 311);$$

$$b_6^{u,j} = (\delta_{49} / \delta_{69} \geq 1.3) \vee (\delta_{49} / \delta_{69} \geq 1.3);$$

$$b_7^{u,j} = (1.18 \geq (\delta_{53} / \delta_{73}) \geq 1) \vee (1.18 \geq (\delta_{53} / \delta_{73}) \geq 1);$$

$$b_8^{u,j} = (1.06 \geq (\delta_{13} / \delta_{33}) \geq 1) \vee (1.06 \geq (\delta_{33} / \delta_{13}) \geq 1);$$

$$b_9^{u,j} = (b_1^{u,j} \wedge b_5^{u,j});$$

$$b_{10}^{u,j} = (b_2^{u,j} \wedge b_6^{u,j});$$

$$b_{11}^{u,j} = (b_3^{u,j} \wedge b_7^{u,j});$$

$$b_{12}^{u,j} = (b_4^{u,j} \wedge b_8^{u,j}).$$

Mahsulot bilimlari bazasi.

I sinf

$$\Phi_1^1 : B_1^1 \rightarrow (b_9^{1,1} + b_{10}^{1,1} + b_{11}^{1,1} + b_{12}^{1,1});$$

$$\Phi_2^1 : B_2^1 \rightarrow (b_8^{1,1} + b_{10}^{1,1} + b_{11}^{1,1} + b_{12}^{1,1});$$

$$\Phi_3^1 : B_3^1 \rightarrow (b_{10}^{1,1} + b_7^{1,1} + b_{11}^{1,1} + b_9^{1,1}).$$

II sinf

$$\Phi_4^2 : B_1^2 \rightarrow (b_5^{1,1} + 2b_1^{1,2} + 2b_{10}^{1,2} + b_{11}^{1,2} + b_{12}^{1,2});$$

$$\Phi_5^2 : B_1^2 \rightarrow (b_5^{1,1} + 2b_1^{1,2} + 2b_2^{1,2} + b_{11}^{1,2} + b_{12}^{1,2});$$

$$\Phi_6^2 : B_4^{4,2} \rightarrow (b_2^{4,2} + b_5^{4,2} + 2b_{10}^{4,2} + b_{11}^{4,2} + b_{12}^{4,2}).$$

III sinf

$$\Phi_7^3 : B_4^3 \rightarrow (b_5^{4,3} + b_{10}^{4,3} + b_{11}^{4,3} + b_{12}^{4,3}).$$

Misol. *YDS* uchun sportchi S^* ni tanlash va ushbu misoldan foydalanib, biz bilimlarni qayta ishlash algoritmining ishlashini ko‘rsatamiz. *Bilimlar* bazasida *SVD* uchun ariza topshirgan sportchining ko‘rsatkichlarini quyidagicha belgilaymiz:

$$S^* = \delta_{15}^*, \delta_{17}^*, \delta_{33}^*, \delta_{37}^*, \delta_{43}^*, \delta_{53}^*, \delta_{69}^*, \delta_{73}^* \text{ Ushbu}$$

sakkizta qiymatlar δ_j^* :

$$\delta_{15}^* = 2,68;$$

$$\delta_{49}^* = 0,58;$$

$$\delta_{17}^* = 0,8;$$

$$\delta_{53}^* = 0,72;$$

$$\delta_{33}^* = 2,54;$$

$$\delta_{69}^* = 0,78;$$

$$\delta_{37}^* = 0,61;$$

$$\delta_{73}^* = 0,67.$$

GPB $B_j^{uj}(x_0)$ ga S^* ga mos kelishini

aniqlaymiz. ga mos keladi $B_4^j(S^*)$ chunki u $B_4^j(S^*) = (\delta^* \geq 0.8) \vee (\delta^* \geq 0.8)$ qanoatlantiriladi,

$$B_3^j(S^*) = \left(\frac{\delta_{17}^*}{\delta_{37}^*} \geq 1.311 \right) \vee \left(\frac{\delta_{37}^*}{\delta_{17}^*} \geq 1.311 \right)$$

Bu shuni anglatadiki

$$B_7^j(S^*) = B_2^j(S^*) \wedge B_3^j(S^*) \text{ bajariladi.}$$

K_1 sinfidagi tizimli tavsiflar jadvalida *GPB*

elementlariga teng bo‘lgan B_4^j formulalar (standartlar) mavjud emas, K_2 sinfida - bu formula

$$\Phi_6^2 : B_4^{4,2} \rightarrow (b_2^{4,2} + b_5^{4,2} + 2b_{10}^{4,2} + b_{11}^{4,2} + b_{12}^{4,2}),$$

K_3 sinfida -

$$\Phi_7^3 : B_4^3 \rightarrow (b_5^{4,3} + b_{10}^{4,3} + b_{11}^{4,3} + b_{12}^{4,3}).$$

Keling, obyektlar tomonidan berilgan ovozlar formulalar orqali qanday to‘planishini ko‘rib chiqaylik

$$\Phi_6^2.$$

1-qadam. S^* ni strukturaviy shaklga keltiriladi:



$$\Phi^{*j} B_4^{*j} \rightarrow (b_1^{*4,j} + b_2^{*4,j} + b_3^{*4,j} + b_4^{*4,j} + b_5^{*4,j} + b_6^{*4,j} + b_7^{*4,j} + b_8^{*4,j} + b_9^{*4,j} + b_{10}^{*4,j} + b_{11}^{*4,j} + b_{12}^{*4,j})$$

2-qadam. Φ^2 ni tashkil etuvchi 6elementlar uchun yaqinlik funksiyasini hisoblang $b_{q(i)}^{u,j}(x_0)$:

$$\mathcal{Q}_1(\Phi^{*2}), (\Phi_6^2) = \mathcal{Q}_{11}(b_{11}^{*4,j}, (b_{11}^{4,j})6) = 1$$

S^* ning struktura tavsifida: Φ^{*2} mavjud $B^{4,j}$).
Xuddi shunday:

$$\mathcal{Q}_9(\Phi^{*2}), (\Phi_6^2) = \mathcal{Q}_9(b_9^{*4,j}, (b_9^{4,j})) = 1;$$

$$\mathcal{Q}_{10}(\Phi^{*2}), (\Phi_{10}^2) = \mathcal{Q}_{10}(b_{10}^{*4,j}, (b_{10}^{4,j})) = 0;$$

$$\mathcal{Q}_{11}(\Phi^{*2}), (\Phi_{11}^2) = \mathcal{Q}_{11}(b_{11}^{*4,j}, (b_{11}^{4,j})) = 1;$$

$$\mathcal{Q}_{12}(\Phi^{*2}), (\Phi_{12}^2) = \mathcal{Q}_{12}(b_{12}^{*4,j}, (b_{12}^{4,j})6) = 1.$$

$S^*(\Phi^{*1})$ uchun ball Φ_6^2 bo'ladi

$$\Gamma_6^2(S^*) = \Gamma_6^2((\Phi^{*2}), (\Phi_6^2)) = 1/5 \cdot \sum_c^{1,9,10,11,12} \omega_c^{4,2} \cdot p_c(b_c^{*4,j}, (b_c^{4,j})) = 0,8(\omega^{4,2} = 1)$$

Formula uchun $\Phi_7^3 - K_3$ sinfidan bo'ladi

$$\Gamma_7^2(S^*) = \Gamma_7^3((\Phi^{*3}), (\Phi_7^3)) = 1/4 \cdot \sum_c^{9,10,11,12} \omega_c^{4,3} \cdot p_c(b_c^{*4,3}, (b_c^{4,3})) = 1.$$

3-qadam. S^* uchun K_2 sinfi uchun bahoni hisoblash:

$$\Gamma^2(S^*) = \Gamma^2(\Phi^{*2}) = \max\{\Gamma_6^2(S^*)\} = \max\{0,8\} = 0,8.$$

K_3 sinfida bitta standart mavjud, shuning uchun uning bahosi maksimaldir);

$$\Gamma^3(S^*) = \Gamma^3(\Phi^{*3}) = \max\{\Gamma_7^3(S^*)\} = \max\{1\} = 1,$$

ya'ni

$$\Gamma^2(S^*) = 0,8; \Gamma^3(S^*) = 1.$$

Raqamli matritsa shaklga ega

$$\Gamma^j(S^*) = \|\Gamma_j^*\|_{1 \times 3} = \{0; 0,8; 1\},$$

bu yerda $G^1(S^*) = 0$, chunki konstruktiv tavsiflar jadvalida $B_{ij}^j(x_0)$ ga teng elementlarga ega standartlar mavjud emas B_4^j .

4-qadam. Sinflardan biriga S^* ni belgilash

$$r(\|\Gamma_j^*\|_{1 \times 3}) = r\{0; 0,8; 1\} = \|B_{ij}\| = \{0; 0; 1\},$$

bu yerda

$$\delta_1 = 0,1; \beta_{1,1} = 0; \beta_{1,2} = 0; \beta_{1,3} = 1.$$

Shunday qilib, obyekt S^*K_3 sinfiga tayinlangan.

Munozara

Olingan natijalarni muhokama qilish tanlangan arxitektura va algoritmik echimlarning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Monolit tizimlardan farqli o'laroq, modulli arxitektura dasturiy ta'minot to'plamining moslashuvchanligi va kengaytirilishini ta'minlaydi. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xususiyatlarning semantikasini rasmiylashtirish va ishlab chiqarish bilimlaridan foydalanish sof statistik usullarga qaraganda ancha ishonchli natijalarni beradi. Bu, ayniqsa, cheklangan o'quv ma'lumotlari sharoitida juda muhimdir. Shu bilan birga, xususiyatlar soni va bilimlar bazasi hajmini oshirish bilan hisoblash xarajatlarining oshishi bilan bog'liq cheklovlar aniqlandi. Bu algoritmlarni yanada optimallashtirish va parallel hisoblashdan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. Muhokama natijalari ishlab chiqilgan tizimni boshqa intellektual texnologiyalar, jumladan, gibrid va adaptiv modellar bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini ham tasdiqlaydi.

Xulosa

Ushbu maqolada bilimlarning ishlab chiqarish ko'rinishiga asoslangan intellektual axborot tizimining dasturiy ta'minoti taqdim etilgan va eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Amalga oshirilgan dasturiy ta'minot to'plami ma'lumotlarni aqlli qayta ishlashning to'liq tsiklini qo'llab-quvvatlashi ko'rsatilgan - axborot modelini yaratishdan to'qaror qabul qilishgacha. Tajriba natijalari tavsiya etilgan algoritmlarning samaradorligi, barqarorligi va talqin qilinishini tasdiqlaydi. Ishlab chiqilgan tizim amaliy qarorlarni qo'llab-quvvatlash vazifalarida qo'llanilishi mumkin va uning nazariy takliflarining amaliy tasdig'i sifatida xizmat qiladi. Olingan xulosalar tadqiqotni yakunlaydi va semantik bilimlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan intellektual tizimlarni yanada rivojlantirish uchun asos bo'ladi.



Adabiyotlar

- [1] Chen, Z., Chen, D., Zhang, X., Yuan, Z., & Yang, X. (2021). Deep knowledge tracing with knowledge graph embedding for intelligent tutoring systems. *Knowledge-Based Systems*, 227, 107224.
- [2] Cranefield, S., Winikoff, M., Dignum, V., & Dignum, F. (2023). Responsible AI by design in practice. *AI and Ethics*, 3(1), 183-199.
- [3] Hagendorff, T., & Meding, K. (2021). The big picture on AI ethics. *AI and Ethics*, 1(1), 65-75.
- [4] Kautz, H. (2022). The Third AI Summer: AAAI Robert S. Englemore Memorial Lecture. *AI Magazine*, 43(1), 105-126.
- [5] Liu, Y., Zhang, H., Wu, Q., & Chen, L. (2023). Knowledge graph representation learning: A comparative analysis of techniques and applications. *IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering*, 35(4), 3412-3426.
- [6] Mittelstadt, B. (2019). Principles alone cannot guarantee ethical AI. *Nature Machine Intelligence*, 1(11), 501-507.
- [7] Rudin, C. (2019). Stop explaining black box machine learning models for high stakes decisions and use interpretable models instead. *Nature Machine Intelligence*, 1(5), 206-215.
- [8] Tran, S. N., & Le, H. T. (2021). Fractal representations for knowledge organization in neural-symbolic systems. *Neural Computing and Applications*, 33(16), 10201-10215.
- [9] Tuomi, I. (1999). Data is more than knowledge: Implications of the reversed knowledge hierarchy for knowledge management and organizational memory. *Journal of Management Information Systems*, 16(3), 103-117.
- [10] Walker, L. O., & Avant, K. C. (2011). *Strategies for theory construction in nursing* (5th ed.). Prentice Hall.
- [11] Wang, Y. (2015). Formal cognitive models of data, information, knowledge, and intelligence. *WSEAS Transactions on Computers*, 14, 770-781.
- [12] Zins, C. (2007). Conceptual approaches for defining data, information, and knowledge. *Journal of the American Society for Information Science and Technology*, 58(4), 479-493.
- [13] Arrieta, A. B., Díaz-Rodríguez, N., Del Ser, J., Bennetot, A., Tabik, S., Barbado, A., García, S., Gil-López, S., Molina, D., Benjamins, R., Chatila, R., & Herrera, F. (2020). Explainable Artificial Intelligence (XAI): Concepts, taxonomies, opportunities and challenges toward responsible AI. *Information Fusion*, 58, 82-115.
- [14] Ackoff, R. L. (1989). From data to wisdom. *Journal of Applied Systems Analysis*, 16(1), 3-9.
- [15] Alavi, M., & Leidner, D. E. (2001). Knowledge management and knowledge management

systems: Conceptual foundations and research issues. *MIS Quarterly*, 25(1), 107-136.

[16] Davenport, T. H., & Prusak, L. (1998). *Working knowledge: How organizations manage what they know*. Harvard Business Press.

[17] Nonaka, I., & Takeuchi, H. (1995). *The knowledge-creating company: How Japanese companies create the dynamics of innovation*. Oxford University Press.

[18] Rowley, J. (2007). The wisdom hierarchy: representations of the DIKW hierarchy. *Journal of Information Science*, 33(2), 163-180.

[19] Russell, S. J., & Norvig, P. (2020). *Artificial intelligence: A modern approach* (4th ed.). Prentice Hall.

[20] Baral, C., Bolander, T., van Ditmarsch, H., & McIlraith, S. (2022). A review of logical foundations of formal argumentation. *Artificial Intelligence*, 302, 103597.

[21] Chen, Z., Chen, D., Zhang, X., Yuan, Z., & Yang, X. (2021). Deep knowledge tracing with knowledge graph embedding for intelligent tutoring systems. *Knowledge-Based Systems*, 227, 107224.

[22] Cranefield, S., Winikoff, M., Dignum, V., & Dignum, F. (2023). Responsible AI by design in practice. *AI and Ethics*, 3(1), 183-199.

[23] Danks, D., & London, A. J. (2022). Algorithmic bias in autonomous systems. *Proceedings of the 36th AAAI Conference on Artificial Intelligence*, 4691-4697.

[24] d'Avila Garcez, A. S., Gori, M., Lamb, L. C., Serafini, L., Spranger, M., & Tran, S. N. (2019). Neural-symbolic computing: An effective methodology for principled integration of machine learning and reasoning. *Journal of Applied Logics*, 6(4), 611-632.



Hududiy iqtisodiyotning barqaror o‘shini ta’minlashda diversifikatsiya omili: Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani misolida

I.Ismanov,
Farg‘ona davlat texnika universiteti i.f.d., prof.

M.O‘rinboyeva,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
1-bosqich magistranti,
urinboyevamatlubaxon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani misolida hududiy iqtisodiy o‘sh va barqarorlikni ta’minlashda diversifikatsiya omilining roli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi tuman iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibidagi konsentratsiya darajasini baholash, diversifikatsiya ko‘rsatkichlarining o‘sh, bandlik va daromad bazasi bilan bog‘liqligini empirik jihatdan yoritish hamda amaliy siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya 2010-2025 yillar kesimida rasmiy ikkilamchi statistik ma’lumotlarga tayangan holda tarmoq ulushlari asosida diversifikatsiya indekslarini hisoblash hamda natija indikatorlari bilan qiyosiy-dinamik tahlil qilishga asoslanadi. Natijalar Oltiariq tumanida iqtisodiy faollikning qishloq xo‘jaligida yuqori darajada jamlanganini, sanoat ulushi esa viloyat miqyosida nisbatan past qolayotganini ko‘rsatadi. Eksport tarkibida meva-sabzavot mahsulotlarining ustunligi logistika, saqlash, standartlash va tashqi bozor shoklariga sezgirlik kabi risklarni kuchaytirishi aniqlanadi. Diversifikatsiyaning eng istiqbolli yo‘nalishi sifatida agrar xomashyoni chuqur qayta ishlash, logistika va servis infratuzilmasini kengaytirish hamda funksional oziq-ovqat va farmatsevtika yo‘nalishlarida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishga qaratilgan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish taklif etiladi. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish, tarmoqlararo muvozanatni kuchaytirish va iqtisodiy risklarni kamaytirishga qaratilgan qarorlar uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: hududiy iqtisodiyot; iqtisodiy diversifikatsiya; tarkibiy transformatsiya; tarmoqlararo muvozanat; qayta ishlash sanoati; eksport tarkibi; qo‘shimcha qiymat zanjiri; bandlik; investitsiyalar; hududiy barqarorlik.

KIRISH

Hozirgi global sharoitda iqtisodiy tarkibiy siljishlar va raqobat kuchayishi fonida tashqi bozorlardagi talab-narx beqarorligi hamda logistika risklarining ortishi hududlar uchun yangi strategik vazifalarni yuzaga chiqarmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiyotning tor tarmoqlar doirasida yuqori konsentratsiyalashuvi ishlab chiqarish natijalarining tebranishini kuchaytiradi, bandlik hamda fiskal tushumlar barqarorligini zaiflashtiradi va eksport daromadlarining tashqi bozor sharoitlari o‘zgarishlariga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Shu sababli iqtisodiy diversifikatsiya iqtisodiyotning tarmoq va mahsulot tarkibini kengaytirish, qiymat zanjirini optimallashtirish va yangi bozorlar sharoitiga moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan strategiya, barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri

sifatida talqin etilmoqda. Xususan, energiya tarkibining konsentrlashuvi va iqlim ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni global miqyosda baholagan tadqiqotlar energiya manbalari torlashgani sari CO₂ emissiyalari ortishini, ayniqsa resurs rentasiga tayanuvchi o‘rta daromadli iqtisodiyotlarda ta’sir kuchliroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [1]. Shuningdek, iqtisodiy murakkablik va energiya diversifikatsiyasi ta’sirining daromad guruhlar kesimida geterogenligi qayd etilib, ayrim guruhlarda diversifikatsiya ekologik barqarorlikni kuchaytirishi, ayrim holatlarda esa salbiy ta’sirlar ham kuzatilishi mumkinligi ta’kidlanadi [2]. Bunga qo‘shimcha ravishda, ESGning ekologik komponenti energiya manbalari diversifikatsiyasini rag‘batlantirishi, biroq iqtisodiy o‘sh sur‘atlari muayyan oraliqlarda bo‘lganda ta’sir yo‘nalishi vaqtincha o‘zgarishi



mumkinligi haqidagi natijalar ham diversifikatsiya siyosatini “bir xil retsept” asosida emas, balki kontekstga moslashtirish zarurligini anglatadi [3].

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy islohotlarni jadallashtirish va iqtisodiy bazani kengaytirish orqali uzoq muddatli barqaror o‘shishga erishishni ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi. Mazkur jarayonda diversifikatsiya masalasi nafaqat sanoat va xizmatlar sektori, balki qishloq xo‘jaligi va infratuzilma yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda ko‘rilmoqda. Xususan, O‘zbekiston energiya bo‘yicha nisbatan o‘zini-o‘zi ta‘minlashi iqtisodiy kuch manbai ekanini ta‘kidlar ekan, aynan shu “tayanch” resurs bazasi sanoat o‘shishi va qishloq xo‘jaligida diversifikatsiyani jadallashtirish uchun iqtisodiy zamin yaratishini qayd etadi. Shuningdek, paxta va g‘allachilikni samaradorlik asosida ratsionallashtirish resurslarni bo‘shatib, yuqori qiymatli eksport ekinlariga bosqichma-bosqich o‘tish imkonini berishini ko‘rsatadi [4]. Ushbu yondashuv Farg‘ona viloyati kabi agrar salohiyati yuqori hududlarda diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqishda ishlab chiqarish samaradorligi, logistika va bozor integratsiyasini bir zanjir sifatida ko‘rish zarurligini kuchaytiradi. Shu ma‘noda, O‘zbekistonning 1991 yildan keyingi rivojlanish sharoitida energiya, IT va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida o‘zaro bog‘liq investitsion imkoniyatlar hamda texnologiya-kapital oqimini oqilona boshqarish “take-off” uchun hal qiluvchi omil ekani alohida ta‘kidlanadi [5].

Hududiy kesimda diversifikatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishdir. Zamonaviy global bozorlarda xomashyo eksportiga tayanish o‘rniga yuqori qo‘shimcha qiymatli, standartlarga mos, innovatsion va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon savdo samaradorligini baholashda ham “faqat hajm” emas, balki diversifikatsiya va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. OECD mamlakatlari bo‘yicha ko‘p mezonli qaror qo‘llab-quvvatlash modeli asosida o‘tkazilgan tahlillarda eksport mahsulotlari turlari soni eng muhim

mezonlardan biri sifatida aniqlanadi [6]. Bunday yondashuv hududiy iqtisodiyot uchun ham muhim signal bo‘lib, tuman darajasida mahsulot nomenklaturasini kengaytirish, qayta ishlash ulushini oshirish va bozorlar xilma-xilligini kuchaytirish diversifikatsiya natijadorligini belgilovchi asosiy yo‘nalishlar ekanini anglatadi.

Diversifikatsiya odatda faoliyat yo‘nalishlari hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining kengayishi va yangilanishi sifatida izohlanadi. Hududiy iqtisodiyot kontekstida esa diversifikatsiya resurslar (tabiiy, mehnat, moliyaviy, infratuzilma va bilim resurslari) imkoniyatlarini aniqlagan holda tarmoqlararo muvozanatni kuchaytirish, bir tarmoqqa yuqori darajada bog‘liqlikdan kelib chiqadigan risklarni pasaytirish va iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirishni anglatadi. Shu bois diversifikatsiya bandlikni barqarorlashtirish, qo‘shimcha qiymat yaratish zanjirini hudud ichida kengaytirish hamda mahalliy daromad bazasini mustahkamlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Hududni “barqarorlik” nuqtayi nazaridan tahlil qilishda esa faqat iqtisodiy tarkib emas, balki zaiflik va moslashuvchanlik omillarini ham integratsiyalash muhim: masalan, tuman/viloyat ichida infratuzilma, savodxonlik, bozor va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkonlari bo‘yicha keskin tafovutlar mavjud bo‘lishi va shu tafovutlar yuqori zaiflik klasterlarini shakllantirishi ko‘rsatilgan. Bu natijalar diversifikatsiya siyosatini ishlab chiqishda “umumiy yondashuv”dan ko‘ra, mahalla/qishloq darajasida manzilli choralar samaraliroq bo‘lishi mumkinligini anglatadi [7].

Ilmiy adabiyotlarda diversifikatsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni keng yoritilgan bo‘lib, u iqtisodiy xavfsizlik, barqarorlik, tarmoqlararo mutanosiblik va bandlik kabi natijalar bilan bog‘lanadi. Xususan, milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning mohiyati va yo‘nalishlari bo‘yicha ayrim tadqiqotlarda nazariy yondashuvlar hamda amaliy mexanizmlar tahlil qilingan [8]. Shu bilan birga, agrar tizimda diversifikatsiya natijadorligi ko‘pincha institutsional omillarga bog‘liq ekani ko‘rinadi: O‘zbekistonda ekinlar diversifikatsiyasi



yerga egalik (ijara) huquqi barqarorligi va fermer qaror qabul qilish avtonomiyasi oshgani sari kuchayishi empirik asosda ko'rsatilgan [9]. Bunga qo'shimcha ravishda, innovatsiyalarni (masalan, bug'doy navlari) qabul qilish jarayonida biotabiyy cheklovlar bilan bir qatorda gender munosabatlari, avlod farqlari va davlat siyosatlarini ham kuchli rol o'ynashi, shu bois diversifikatsiya va innovatsiya siyosati inklyuziv mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanishi zarurligi asoslanadi [10]. O'tish davridagi agrar tizimlarda esa shartnomaviy munosabatlar ham diversifikatsiya va barqarorlikka bevosita ta'sir etadi: Xorazm misolida fermer-dehqon shartnomalari tarmoq evolyutsiyasi, irrigatsiya-drenaj infratuzilmasi hamda formal-norasmiy institutlar dialektikasi bilan birga ham-evolyutsiyalanuvchi muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi [11]. Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo'jaligi rivoji kontekstida olib borilgan tahlillar ham yer, mehnat va moliya bozorlarini chuqurlashtirish, irrigatsiya kabi infratuzilmani yaxshilash va institutsional islohotlarni kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi [12]. Demak, hududiy diversifikatsiya faqat "tarmoq qo'shish" emas, balki institutsional, infratuzilmaviy va inson kapitali omillarini birgalikda uyg'unlashtirgan kompleks jarayon hisoblanadi.

Hududiy diversifikatsiyani amaliy rejalashtirish va siyosiy qarorlar bilan bog'lashda metodologik yondashuvlar ham tobora murakkablashmoqda. Masalan, sanoatni barqaror rivojlantirish uchun tarmoqlararo oldinga va orqaga bog'liqliklarni Input-Output modeli bilan aniqlash, optimal sanoat hududlarini GIS-MCDA va AHP orqali tanlash hamda tabiiy ofatlar riskini zonallashtirishga integratsiya qilish bo'yicha yondashuvlar hududiy rejalashtirishda "dalilga asoslangan" qaror qabul qilishning samaradorligini ko'rsatadi [13]. Xizmatlar sektori, xususan agriturizm yo'nalishida ham barqarorlikni kuzatish uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqish resurslarni oqilona boshqarish va siyosatni monitoring qilish uchun muhim instrument ekanini tasdiqlaydi [14]. Mahalliy iqtisodiy hamjamiyatlar va kooperatsiyalar doirasida esa "Living Lab" kabi yondashuvlar fermerlarning birlashmalarga qo'shilish

niyatida ishonch va kutilayotgan foyda kabi omillarning rolini ko'rsatib, siyosiy kommunikatsiya va institutlarga ishonchni kuchaytirish zarurligini asoslaydi [15]. Ushbu tadqiqotlar umumiy xulosani mustahkamlaydi: diversifikatsiya natijadorligi ko'p hollarda resurslar taqsimoti, infratuzilma, risk zonalari, institutlar va manfaatdor tomonlar ishtirokini bir tizimda boshqarishga bog'liq.

Shu bilan birga, diversifikatsiya masalasini aynan tuman darajasida, hudud resurs salohiyati, iqtisodiy tarkib, institutsional sharoit va bozor integratsiyasi omillari bilan empirik bog'lagan tadqiqotlar, ayniqsa O'zbekistonning alohida tumanlari kesimida, yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur tadqiqot hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda diversifikatsiyaning rolini Farg'ona viloyati Oltiariq tumani misolida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, hudud resurs salohiyati va iqtisodiy tarkib o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, diversifikatsiya darajasini baholash hamda amaliy siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish, tarmoqlararo muvozanatni kuchaytirish va iqtisodiy risklarni pasaytirishga yo'naltirilgan qarorlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. MATERIALLAR VA TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani misolida hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda diversifikatsiya omilining rolini baholashga qaratilgan. Metodologiya ikki blokdan iborat: (i) hudud iqtisodiyotining tarmoq va mahsulot tarkibi bo'yicha diversifikatsiya darajasini indekslar orqali o'lchash; (ii) diversifikatsiya ko'rsatkichlarining hududiy o'sish hamda barqarorlik ko'rsatkichlari bilan empirik bog'liqligini ekonometrik usullar yordamida tekshirish.

Tadqiqot hududi Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani bo'lib, u viloyatning markaziy qismida joylashgan va asosiy avtomobil yo'nalishlariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Tuman maydoni taxminan 630 km² bo'lib, aholi soni 2025 yil holatiga ko'ra 233 047 nafarni tashkil etadi. Hududning



iqtisodiy ixtisoslashuvi sanoatda yoqilgʻi (neftni qayta ishlash), paxta-tozalash hamda oziq-ovqat yoʻnalishlari, qishloq xoʻjaligida esa paxtachilik, gʻallachilik, bogʻdorchilik va uzumchilik tarmoqlari bilan tavsiflanadi. Sugʻorish taʼminoti mintaqadagi asosiy kanallar tizimi orqali amalga oshiriladi, bu esa agrar ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirlarida diversifikatsiya imkoniyatlarini baholash uchun muhim shart-sharoit yaratadi [16].

2.1. Tadqiqot obyekti va davri

Tadqiqotda Oltiariq tumani boʻyicha 2010-2025 yillar kesimida shakllantiriladigan maʼlumotlar bazasi rasmiy ikkilamchi statistik manbalarga tayanadi. Maʼlumotlar asosan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi hamda Fargʻona viloyati hududiy statistika boshqarmasi eʼlon qiladigan tuman kesimidagi yillik koʻrsatkichlardan, zarur hollarda esa tegishli vazirlik va idoralar hamda ochiq rasmiy maʼlumotlar platformalaridan olinadi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish dinamikasini “natijalar-resurslar-institutsiyalar” zanjiri boʻyicha izchil aks ettiradigan yagona, taqqoslanadigan va statistik jihatdan mos maʼlumotlar majmuasini yaratishdir.

2.2. Maʼlumotlar bazasi va manbalar

Maʼlumotlar bazasining birinchi yadro qismi hududiy iqtisodiy natijalarni ifodalovchi koʻrsatkichlardan iborat boʻladi. Bu blokda tuman miqyosida ishlab chiqarish hajmlari va real iqtisodiy faollikni aks ettiruvchi proksi koʻrsatkichlar jamlanadi: sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xoʻjaligi mahsuloti, qurilish ishlari hajmi, xizmatlar koʻrsatish hajmi, shuningdek mavjud boʻlsa yalpi hududiy mahsulotga (YAHT) yaqin koʻrsatkichlar yoki hududiy qoʻshimcha qiymat indikatorlari kiritiladi. Mazkur koʻrsatkichlar diversifikatsiya jarayonining “natija tomoni”ni, yaʼni tarmoq tarkibidagi oʻzgarishlar umumiy ishlab chiqarish va iqtisodiy oʻsish dinamikasida qanday namoyon boʻlishini baholash imkonini beradi.

Ikkinchi yadro qism bandlik tarkibini tavsiflovchi maʼlumotlarni qamrab oladi. Unda tarmoqlar boʻyicha bandlar soni yoki ulushi, mehnat

resurslari, iqtisodiy faol aholining asosiy sektorlarga taqsimlanishi kabi indikatorlar shakllantiriladi. Bandlik kesimidagi tarkibiy siljishlar diversifikatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib beradi, chunki tarmoq tarkibining kengayishi yoki torayishi odatda mehnat bozoridagi barqarorlik, bandlik sifati va daromad shakllanishi bilan uzviy bogʻliq.

Uchinchi blok investitsiya faolligini ifodalaydi. Bu yerda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami koʻrinishda hamda imkon qadar tarmoqlar kesimida jamlanadi; tahlilning taqqoslama sifatini oshirish uchun aholi jon boshiga investitsiya koʻrsatkichlari ham hisoblanadi. Investitsiya dinamikasi hududning diversifikatsiya salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri boʻlib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari, qayta ishlash zanjirlari va xizmatlar infratuzilmasining shakllanishi aynan investitsiya oqimlari bilan chambarchas bogʻlanadi.

Toʻrtinchi blok tadbirkorlik va institutsional faollik koʻrsatkichlarini qamrab oladi. Unda faol korxonalar soni, kichik biznesning ulushi, yangi roʻyxatdan oʻtgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar dinamikasi va korxonalarning tarmoq tarkibi boʻyicha taqsimlanishi kiritiladi. Bu maʼlumotlar hududda iqtisodiy muhitning “moslashuvchanligi” va yangilanish tezligini baholashga xizmat qiladi, yaʼni diversifikatsiya faqat tarmoqlar sonining koʻpayishi emas, balki yangi faoliyat yoʻnalishlarining paydo boʻlishi va institutsional faollikning kengayishi orqali ham yuzaga kelishini empirik koʻrsatadi.

Beshinchi blok tashqi bozor koʻrsatkichlariga taalluqli boʻlib, tuman kesimida statistik imkoniyat mavjud boʻlsa eksport hajmi va tovar guruhlari boʻyicha tarkibiy tuzilma kiritiladi. Agar tuman darajasida eksportning toʻliq tarkibiy maʼlumoti cheklangan boʻlsa, oʻrinbosar indikatorlar (masalan, eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari ulushi, qayta ishlash mahsulotlari ulushi yoki viloyat kesimidagi tarkibiy maʼlumotdan tuman ixtisoslashuviga mos proksi) qoʻllanishi mumkin. Tashqi bozor indikatorlari diversifikatsiyaning raqobatbardoshlik va bozor kengayishi bilan bogʻliq jihatlarini yoritadi.



Pul koʻrinishidagi koʻrsatkichlar tahlilda taqqoslanadigan real qiymatlarga keltiriladi. Buning uchun bazaviy yil tanlanadi va isteʼmol narxlarini indeksi (CPI) yoki tegishli deflyatorlar orqali nominal koʻrsatkichlar deflyatsiya qilinadi. Shuningdek, turli yillarda va turli koʻrsatkichlar boʻyicha solishtirishni kuchaytirish maqsadida aholi jon boshiga hisoblangan indikatorlar keng qoʻllanadi; bu yondashuv hududdagi demografik oʻzgarishlar taʼsirini qisman neytrallashtirib, real iqtisodiy faollik va mahsuldorlik dinamikasini aniqroq koʻrsatadi.

2.3. Asosiy oʻzgaruvchilar va operatsionallashuv

Operatsionallashuv bosqichida oʻzgaruvchilar uch guruhga ajratiladi: natija koʻrsatkichlari, asosiy izohlovchi koʻrsatkich va nazorat omillari. Natija koʻrsatkichlari sifatida iqtisodiy oʻsish indikatorlari, bandlik dinamikasi hamda hududiy daromad bazasini ifodalovchi proksilar olinadi. Ushbu natija koʻrsatkichlari diversifikatsiyaning amaliy samarasi qanday kanallar orqali namoyon boʻlishini bir vaqtning oʻzida kuzatish imkonini beradi.

Asosiy izohlovchi koʻrsatkich sifatida diversifikatsiya darajasi hisoblanadi. U tarmoq tarkibi boʻyicha ishlab chiqarish va bandlik kesimida alohida oʻlchanadi, yaʼni bir tomondan ishlab chiqarish hajmlarining sektorlar boʻyicha taqsimoti, ikkinchi tomondan bandlikning sektorlar boʻyicha taqsimoti asosida diversifikatsiya indekslari shakllantiriladi. Amaliy jihatdan bu diversifikatsiyaning “iqtisodiy struktura” va “mehnat struktura”dagi koʻrinishlarini farqlashga yordam beradi, chunki baʼzi hollarda ishlab chiqarish diversifikatsiyasi kuchaygan boʻlsa ham bandlik tarkibi sekinroq oʻzgarishi mumkin.

Nazorat oʻzgaruvchilari tarkibiga investitsiya koʻrsatkichlari, tadbirkorlik faolligi indikatorlari, demografik omillar hamda infratuzilma koʻrsatkichlari kiritiladi. Nazorat omillarining kiritilishi diversifikatsiya koʻrsatkichlari bilan natija indikatorlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni notoʻgʻri talqin qilish xavfini kamaytiradi, chunki iqtisodiy oʻsish va barqarorlikka investitsiya, demografiya va

institutsional muhit ham mustaqil taʼsir koʻrsatishi mumkin.

2.4. Diversifikatsiyani oʻlchash usullari

Hududiy iqtisodiyotda diversifikatsiya “tarmoq tarkibining qanchalik muvozanatli taqsimlangani”ni ifodalaydi. Amaliy jihatdan bu, masalan, sanoat-qishloq xoʻjaligi- xizmatlar kabi yirik tarmoqlar yoki yanada mayda tarmoq guruhlari boʻyicha ishlab chiqarish hamda bandlik ulushlarining qay darajada bir tarmoqqa jamlanib qolganini koʻrsatadi. Shu sababli tadqiqotda diversifikatsiya darajasi bir nechta indekslar yordamida parallel hisoblanadi; bunday koʻp-indeksli yondashuv natijalarning metodik barqarorligini oshiradi va indeks tanloviga bogʻliq xulosalar riskini kamaytiradi.

Birinchi indeks sifatida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qoʻllanadi. U tarmoq ulushlarining kvadratlari yigʻindisi 1-formula orqali aniqlanadi:

$$HHI_t = \sum_{i=1}^n s_{i,t}^2 \quad (1)$$

bu yerda $s_{i,t}$ – t davrda i -tarmoqning umumiy hajmdagi ulushi, n - tarmoqlar soni. HHI qiymati kattalashgani sari tarkib koʻproq jamlangan, HHI pasaygani sari tarkib nisbatan muvozanatli va diversifikatsiyalashgan boʻladi. Amaliy talqinda HHI “konsentratsiya indeksi” sifatida ham qaraladi: u hudud iqtisodiyotining bir yoʻnalishga qaramlik darajasini bevosita oʻlchaydi.

Ikkinchi koʻrsatkich Simpson diversifikatsiya indeksi (SDI) boʻlib, u HHI ning “teskari” koʻrinishi sifatida diversifikatsiyani intuitivroq ifodalaydi (2-formula):

$$SDI_t = 1 - \sum_{i=1}^n s_{i,t}^2 = 1 - HHI_t \quad (2)$$

SDI yuqori boʻlsa, tarmoq tarkibi diversifikatsiyalashganligi kuchliroq, SDI past boʻlsa, iqtisodiyot nisbatan tor tarkibli boʻladi. SDI va HHI



bir-birini to‘ldiradi: birinchisi diversifikatsiyani, ikkinchisi esa konsentratsiyani ko‘rsatadi.

Uchinchi indeks Shannon entropiya indeksi bo‘lib, u tarmoq ulushlarining tarqoqligi va “axborotiy xilma-xillik” darajasini 3-formula orqali o‘lchaydi:

$$E_t = - \sum_{i=1}^n s_{i,t} \ln(s_{i,t}) \quad (3)$$

Entropiya indeksi tarmoqlar ulushi tengroq taqsimlanganda kattalashadi. Tarmoqlar soni turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarda (masalan, statistik tasnif o‘zgarganda yoki ma’lumot detallanishi farqlanganda) indeksni taqqoslanadigan shaklga keltirish uchun normallashtirish qo‘llanadi (4-formula):

$$E_t^* = \frac{E_t}{\ln(n)} \quad (5)$$

Normallashtirilgan entropiya E_t^* odatda [0;1] oralig‘ida bo‘lib, yillar va turli tasniflarda natijalarni qiyoslashni yengillashtiradi.

Mazkur indekslar ikki yo‘nalishda alohida hisoblanadi: (i) ishlab chiqarish yoki iqtisodiy natijalar tarkibi bo‘yicha, (ii) bandlik tarkibi bo‘yicha. Bu ajratish metodik jihatdan muhim, chunki hududda ishlab chiqarish tarkibi diversifikatsiyalashgani holda bandlik tarkibi sekinroq moslashishi mumkin. Hisoblangan indekslar 2010-2025 yillar uchun dinamik kesimda tahlil qilinib, tarkibiy o‘zgarishlarning tezligi, yo‘nalishi va “qaysi tarmoq ulushi ortgani yoki pasaygani” aniqlanadi.

2.5. Empirik baholash strategiyasi

Tadqiqot empirik dizayni diversifikatsiyani baholashni ikki bosqichda amalga oshiradi. Birinchi bosqichda deskriptiv-dinamik tahlil orqali Oltiariq tumanida 2010-2025 yillarda tarmoqlar ulushi, diversifikatsiya indekslari, iqtisodiy o‘sinh va bandlik ko‘rsatkichlari birgalikda kuzatilib, strukturaviy siljishlarning asosiy drayverlari aniqlanadi. Mazkur tahlilda diversifikatsiya kuchayishi yoki susayishi qaysi tarmoq ulushining o‘zgarishi hisobiga yuz

bergani, shuningdek o‘sinh va bandlikdagi o‘zgarishlar bilan bir vaqtda qanday dinamikada kechgani izohlanadi.

Ikkinchi bosqichda diversifikatsiya ko‘rsatkichlari bilan hududiy o‘sinh natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ekonometrik usullar bilan tekshiriladi. Agar Farg‘ona viloyati tumanlari kesimida 2010-2025 yillar bo‘yicha bir xil metodika asosida ma’lumotlar shakllantirilsa, qiyosiy panel yondashuvi qo‘llanadi va quyidagi umumiy spesifikatsiya 5-formula orqali baholanadi:

$$Y_{i,t} = \alpha + \beta Divers_{i,t} + \gamma X_{i,t} + \mu_i + \tau_t + \varepsilon_{i,t} \quad (6)$$

bu yerda $Y_{i,t}$ – tuman i uchun iqtisodiy natija ko‘rsatkichi (real o‘sinh sur‘ati, bandlik dinamikasi yoki fiskal baza proksisi), $Divers_{i,t-1}$ - diversifikatsiya indeksining bir yil kechiktirilgan qiymati, $X_{i,t}$ - nazorat o‘zgaruvchilari vektori, μ_i - tumanning o‘zgarish xususiyatlarini ushlaydigan “fixed effects”, τ_t - yillarga xos umumiy omillar, $\varepsilon_{i,t}$ - tasodifiy xatolik. Diversifikatsiya indeksining kechiktirilgan ko‘rinishda olinishi metodik jihatdan muhim: bu diversifikatsiya va o‘sinh o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan teskari sababiyat muammosini ma’lum darajada yumshatadi va qisqa muddatli bir vaqtning o‘zida o‘zgarishlardan keladigan og‘ishlarni kamaytiradi. Panel dizayn mavjud bo‘lsa, model odatda “within” baholash (FE) va yil effektlari bilan birga qo‘llanadi; zarurat tug‘ilganda dinamik panel yondashuvlari bilan tekshiruvlar ham bajarilishi mumkin.

Agar to‘liq va uzluksiz ma’lumot faqat Oltiariq tumani bo‘yicha mavjud bo‘lsa, tahlil vaqt qatori doirasida olib boriladi. Bunda diversifikatsiya indekslari va natija ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil, oddiy regressiya spesifikatsiyalari hamda kechiktirilgan omillar bilan baholanadi. Natijalar talqinini kuchaytirish maqsadida Oltiariq ko‘rsatkichlari viloyat o‘rtacha qiymatlari yoki yaqin tumanlar dinamikasi bilan qiyosiy izohlanadi; bu yondashuv tuman dinamikasining “odatiy trend”dan farqini ko‘rsatishga yordam beradi.




2.6. Barqarorlik tekshiruvlari va hisoblash jarayoni

Empirik natijalarning ishonchliligini oshirish uchun diversifikatsiya kamida uch xil indeks (HHI, SDI, Entropiya) orqali alohida baholanadi va asosiy xulosa indeks tanlovidan qat'i nazar saqlanib qolishi tekshiriladi. Shuningdek, natija ko'rsatkichlari muqobil ko'rinishlarda qayta baholanib, xulosalarning "o'lchovga sezgirligi" tahlil qilinadi. Pul ko'rsatkichlari real qiymatlarga deflyatsiya qilinadi, zarurat bo'lsa log-transformatsiyalar qo'llanadi. Ekonometrik baholashda heteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya ehtimolini hisobga oluvchi robust standart xatolar ishlatiladi; model spesifikatsiyasi bo'yicha muqobil nazorat o'zgaruvchilari bilan qayta baholash ham kiritiladi.

Indekslarni hisoblash, ma'lumotlarni tozalash va bazaviy vizualizatsiya ishlari Excelda, ekonometrik baholash va diagnostik tekshiruvlar esa Stata, R yoki Python statistik paketlarida amalga oshiriladi. Natijalar 2010-2025 yillardagi diversifikatsiya indekslari dinamikasi, tarmoq ulushlaridagi o'zgarishlar va ekonometrik baholash jadvallari ko'rinishida taqdim etilib, hududiy tarkibiy transformatsiyaning miqyosi va yo'nalishi aniq ko'rsatib beriladi.

3. NATIJA VA MUHOKAMALAR

Farg'ona viloyatida 2025-yil yanvar-sentabr davrida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy o'sish sur'atlari qayd etilgan (1-rasm). Xususan, yalpi hududiy mahsulot, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar, qurilish ishlari hamda yuk va yo'lovchi aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish dinamikasi kuzatiladi. Mazkur makrofon Oltiariq tumani iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlarini talqin qilishda muhim kontekst bo'lib xizmat qiladi: viloyat miqyosida o'sish jarayonlari mavjud bo'lgan bir paytda tuman darajasida o'sishning manbalari va tarmoqlararo muvozanat darajasi alohida tahlilni talab etadi.



1-rasm. Farg'ona viloyatida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi (2025-yil yanvar-sentabr, 2024-yilning mos davriga nisbatan, %).

Hududiy diversifikatsiya masalasining dolzarbligini kuchaytiruvchi omillardan biri tuman aholisining o'sishi va mehnat resurslari hajmining kengayib borishidir. Yoshlar ulushi yuqori bo'lgan sharoitda mehnat bozoriga yangi ishtirokchilarning muntazam kirib kelishi iqtisodiy tizimdan barqaror bandlik yaratish, malakali ish o'rnlari ulushini oshirish va daromad manbalarini ko'paytirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, diversifikatsiya iqtisodiy o'sishni faqat an'anaviy tarmoqlar hisobiga emas, balki qayta ishlash sanoati, zamonaviy xizmatlar, logistika, raqamli yechimlar, turizm va ilmga asoslangan yo'nalishlar orqali kengaytirish mexanizmi sifatida qaraladi. Aksincha, hudud iqtisodiyotining bir yoki bir nechta tarmoqqa ortiqcha ixtisoslashuvi ishlab chiqarish hajmlarining mavsumiy va tashqi omillarga bog'liqligini kuchaytirib, bandlik barqarorligi hamda daromadlar dinamikasida tebranishlar ehtimolini oshiradi.

3.1. Oltiariq tumani iqtisodiyotining tarmoqlar kesimidagi tarkibi

Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar Oltiariq tumanida iqtisodiy faollikning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti asosan qishloq xo'jaligi yo'nalishida jamlanganini ko'rsatadi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha 2021–2024 yillarda tumanning viloyat sanoatidagi ulushi nisbatan past darajada qolmoqda: 2021 yilda 1,77%, 2022 yilda 2,06%, 2023 yilda 2,49% va 2024 yilda 1,99% [17]. Mutlaq ko'rsatkichlarda Oltiariqda sanoat ishlab chiqarishi 2021 yildagi 492,6 mlrd so'mdan 2024 yilda 914,6 mlrd so'mga oshgan



bo‘lsa-da, viloyat bo‘yicha sanoat hajmining yanada yuqori sur‘atlarda kengaygani tumanning nisbiy ulushini barqaror oshirish imkonini cheklagan (1-jadval). Bu holat tuman iqtisodiy portfelida sanoatning, ayniqsa, qayta ishlash segmentlarining yetarli darajada keng emasligi va diversifikatsiya zanjirida sanoat “zaif bo‘g‘in” bo‘lib qolayotganini anglatadi.

1-jadval. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)

Yillar	2021	2022	2023	2024
Farg‘ona viloyati	27761,5	30303,5	35794,9	45896,1
Oltiariq tumani	492,6	624,6	890	914,6
% da ulushi	1,77%	2,06%	2,49%	1,99%

Tarmoqlar bo‘yicha jamlangan ko‘rsatkichlar ham ushbu xulosani qo‘llab-quvvatlaydi. Sanoat hajmi 761,1 mlrd so‘m bo‘lib, viloyatdagi ulushi 1,9% (13-o‘rin)ni tashkil etadi, xizmatlar sohasi 1 576,9 mlrd so‘m bilan 3,2% (4-o‘rin) darajasida, qishloq xo‘jaligi esa 2 986,1 mlrd so‘m bilan 8,6% ulush va viloyatda 1-o‘rinni egallaydi (2-jadval) [17].

2-jadval. Hududning tarmoqlar bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Tarmoqlar	Hajmi	Viloyatdagi ulushi
Sanoat	761,1 mlrd so'm	1,9% (13 o'rin)
Qishloq xo'jaligi	2986,1 mlrd so'm	8,6% (1 o'rin)
Xizmat ko'rsatish	1576,9 mlrd so'm	3,2% (4 o'rin)

Demak, tuman iqtisodiyotida agrar yo‘nalish “tayanch” tarmoq bo‘lib qolayotgan bir paytda, xizmatlar nisbatan faol rivojlanayotgan, biroq sanoatning ulushi hududning qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun yetarli emas.

Ushbu tarkibiy nisbatlar Oltiariqda qiymat zanjirining “xomashyo → qayta ishlash → tayyor mahsulot → qadoqlash/brendlash → bozorga chiqarish” bosqichlari yetarlicha chuqurlashmaganini ko‘rsatadi. Ya‘ni, ishlab chiqarishning yuqori ulushi birlamchi ishlab chiqarishda jamlanib, sanoat orqali

qo‘shimcha qiymatni ko‘paytirish imkoniyatlari to‘liq ishga tushmagan.

3.2. Qishloq xo‘jaligi yetakchiligi va diversifikatsiya uchun xatarlar

Qishloq xo‘jaligida Oltiariq tumani viloyat miqyosida barqaror yuqori ulushni saqlab kelmoqda. 2021-2024 yillarda tumanning viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi mos ravishda 8,80%, 8,65%, 9,10% va 9,03%ni tashkil etgan (3-jadval) [17].

3-jadval. Oltiariq tumani kesimida qishloq xo‘jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda, mlrd so‘m)

Yillar	2021	2022	2023	2024
Farg‘ona viloyati	27 501,2	32 737,0	38 326,0	42 347,9
Oltiariq tumani	2 419,1	2 831,1	3 489,5	3 823,1
% da ulushi	8,80%	8,65%	9,10%	9,03%

Bu natija hududning agrar ixtisoslashuvi kuchli ekanini, xususan meva-sabzavotchilik yo‘nalishlarida resurs va ishlab chiqarish salohiyati shakllanganini bildiradi. Biroq tarmoq ulushining yuqoriligi diversifikatsiya nuqtai nazaridan ikki tomonlama mazmunga ega. Bir tomondan, bu hududning solishtirma ustunligi va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatini anglatadi. Ikkinchi tomondan, daromad va bandlikning bir tarmoqqa nisbatan yuqori bog‘liqligi narxlar, tashqi talab, mavsumiylik, logistika, saqlash va standartlash talablaridagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgirlikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun agrar yetakchilikni saqlagan holda, aynan shu bazaga tayangan holda sanoat va xizmatlar bilan integratsiyalashgan diversifikatsiya modeli hududiy barqarorlik uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3.3. Eksport tarkibi va qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari

Tashqi bozor ko‘rsatkichlari Oltiariq tumani eksport salohiyatining yuqoriligini tasdiqlaydi. 2024 yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyati eksporti tarkibida eng yuqori ulush Oltiariq tumaniga



to‘g‘ri kelib, 21,1% yoki 163,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan [17]. Shuningdek, 2024 yilda tumandan xorijiy davlatlarga 144 829 ming AQSH dollari miqdorida meva va sabzavot mahsulotlari eksport qilingan [17]. Ushbu natijalar tuman eksportining muhim qismi agrar mahsulotlarga tayanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xom yoki kam qayta ishlangan meva-sabzavot eksporti odatda bir qator iqtisodiy cheklovlar bilan kechadi: saqlash va sovutish zanjiri xarajatlari, logistika narxlarining o‘zgaruvchanligi, sertifikatlash hamda fitosanitariya talablarining kuchayishi, shuningdek tashqi bozorlardagi talab va narxlarning tebranishi. Bundan tashqari, eksport standartlariga mos kelmagan mahsulotlarning ichki bozorda sotilishi taklifning keskin oshishiga olib kelib, narxlarning pasayishi va ishlab chiqaruvchi foydasining qisqarishiga sabab bo‘lishi ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli eksportga yo‘naltirilgan agrar ishlab chiqarishni uzoq muddatli barqaror daromad manbaiga aylantirish uchun qo‘shimcha qiymat zanjirini chuqurlashtirish talab etiladi.

Mazkur sharoitda diversifikatsiyaning amaliy va iqtisodiy jihatdan eng asosli yo‘nalishi agrar xomashyoni chuqur qayta ishlashni kengaytirishdir. Meva-sabzavotni quritish, muzlatish, konservalash, sharbat/konsentrat, pyure, qadoqlangan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali saqlash muddatini uzaytirish, transport xarajatlarining nisbiy samaradorligini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish mumkin. Bundan tashqari, mevalarning biologik faol komponentlari asosida funksional oziq-ovqat hamda farmatsevtika yo‘nalishlarida mahsulot ishlab chiqarish istiqbollari ham mavjud. Bunday diversifikatsiya tumanda sanoat ulushini oshirishga, yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratishga, xizmatlar va logistika infratuzilmasiga talabni kuchaytirishga hamda hudud daromad bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Keltirilgan jadvallar hamda eksport ko‘rsatkichlari Oltiariq tumani iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rin egallashini, xizmatlar sektori nisbatan faol ekanini, biroq sanoat ulushi viloyat miqyosida past darajada qolayotganini ko‘rsatadi [17].

Demak, diversifikatsiya strategiyasi hududning mavjud agrar ustunligini cheklashga emas, balki aynan shu ustunlik asosida qayta ishlash sanoati, logistika va innovatsion yo‘nalishlarni kengaytirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish zanjirini chuqurlashtirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Natijada hududning tashqi omillarga chidamliligi, bandlik barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi oshadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani misolida hududiy iqtisodiy o‘shish va barqarorlikni ta‘minlashda diversifikatsiya omilining rolini tahlil qildi hamda 2010-2025 yillar kontekstida tarmoq tarkibining o‘zgarishi va natija ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun metodik asoslarni taklif etdi. Keltirilgan nazariy va empirik dalillar diversifikatsiya siyosati “kontekstga mos” bo‘lishi zarurligini, Oltiariq tumani bo‘yicha olingan statistik natijalar hudud iqtisodiyotida tarmoqlararo muvozanat masalasi amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini tasdiqladi.

Tahlil natijalari Oltiariq tumanida iqtisodiy faollikning asosiy qismi qishloq xo‘jaligida jamlanganini va bu tarmoq viloyat miqyosida yetakchi ulushni barqaror saqlab kelayotganini ko‘rsatdi. Xususan, 2021-2024 yillarda tumanning viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi 8,65-9,10% oralig‘ida bo‘lib, Oltiariq agrar ixtisoslashuv bo‘yicha yuqori raqobat ustunligiga ega ekanini anglatadi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha tumanning viloyatdagi ulushi 2021–2024 yillarda 1,77–2,49% diapazonida qolib, sanoatning hudud iqtisodiy portfelida yetarli darajada mustahkam o‘rin egallamaganini ko‘rsatdi. Xizmatlar sektori ma‘lum darajada faol bo‘lsada, tuman miqyosida qo‘shimcha qiymat yaratish zanjiri “xomashyo → qayta ishlash → tayyor mahsulot → brendlash → bozorga chiqarish” bosqichlari bo‘yicha yetarlicha chuqurlashtirilmaganligi kuzatildi.

Eksport ko‘rsatkichlari ham Oltiariq tumanining meva-sabzavot mahsulotlari bo‘yicha yuqori tashqi bozor salohiyatini tasdiqlaydi: 2024 yilda viloyat eksportidagi ulushning sezilarli qismi Oltiariq



hissasiga to‘g‘ri kelgani va meva-sabzavot eksporti yuqori hajmda amalga oshirilgani hududning eksport drayveri agrar mahsulotlar ekanini ko‘rsatadi. Biroq eksportning xom yoki kam qayta ishlangan mahsulotlarga tayanganligi saqlash-sovutish zanjiri xarajatlari, logistika cheklovlari, standartlash talablari hamda tashqi bozorlardagi talab va narxlarning tebranishi kabi omillar ta’sirida risklarni kuchaytiradi. Shu bois, agrar yetakchilikni saqlagan holda, iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun diversifikatsiya aynan agrar xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

периода времени. Протокол BLE не предназначен для непрерывного сетевого соединения, он задействуется для периодической передачи небольших пакетов данных. Таблица 4 показывает количество устройств с беспроводными протоколами в мире на конец 2025 года.

Таблица 4. Сравнение количества устройств в мире по протоколам (оценка на конец 2025 года)

Протокол	Примерное число устройств в мире	Основные сферы применения	Источник данных
Wi-Fi	~25 млрд	Смартфоны, ноутбуки, ТВ, камеры, «умные» колонки, IoT	Wi-Fi Alliance, Statista (2025)
Bluetooth / BLE	~10,5 млрд	Наушники, часы, фитнес-маячки, «умные» замки	Bluetooth SIG (2024–2025)
Zigbee	~2 млрд	«Умный» дом - освещение, датчики, термостаты, замки	Connectivity Standards Alliance (2023–2025)

Протокол Thread современный беспроводной стандарт для Интернета вещей и «умного» дома, который создает надежные, энергоэффективные и самовосстанавливающиеся ячеистые сети. Устройства в сети действуют как маршрутизаторы, пересылая данные, что делает сеть надежной и устойчивой к сбоям [10]. Преимуществами данного протокола являются повышенная надежность и масштабируемость «умного» дома, возможность работать даже без Интернета и совместимость со многими устройствами. Таблица 5 показывает количество Thread-устройств в мире по годам, начиная с 2020 года. Thread почти всегда используется вместе со стандартом Matter, и большинство новых «умных» вещей поддерживают Thread. Этот стандарт позволяет устройствам от разных производителей



в «умном» доме легко взаимодействовать друг с другом.

Таблица 5. Оценка числа Thread-устройств в мире (млн шт.)

Год	Устройства с Thread (млн)	Примечание
2020	<1 млн	Экспериментальные и первые коммерческие устройства
2021	~5 млн	Появление первых «умных» колонок
2022	~30 млн	Запуск стандарта Matter 1.0 (октябрь 2022)
2023	~100 млн	Массовое внедрение в устройства Apple Home, Google Nest, Amazon Echo
2024	~220 млн	Thread становится обязательным для многих Matter-устройств
2025 (прогноз)	~400 млн	Рост за счёт совместимости с Zigbee через Matter

Преимуществами применения Thread в интеллектуальном освещении являются «умные» лампы и «умные» выключатели, устойчивость к сбоям: при выходе из строя одного устройства сеть продолжает работать, автоматическое включение света при входе в комнату, синхронизация с другими «умными» устройствами. Таблица 6 показывает сравнение использования протоколов Thread и Zigbee в интеллектуальном освещении.

Таблица 6. Использование протоколов Thread и Zigbee в интеллектуальном освещении

Критерий	Thread	Zigbee
Подключение	Не нужен отдельный хаб	Требуется Zigbee-хаб (координатор)
Масштабируемость	До ~250 устройств	До ~200–300 устройств

Будущее развитие	Активно поддерживается Apple, Google, Amazon	Поддерживается, но медленнее развивается
Локальное управление	Полностью локальное (без облака)	Зависит от хаба (иногда требуют облако)

Результаты. Проведённый анализ показал, что выбор беспроводного протокола должен основываться на характере задачи и требованиях к энергопотреблению, задержке и частоте передачи данных и пр.

Zigbee оптимален для локальных систем с низкой задержкой, таких как «умный» дом. Он обеспечивает мгновенную реакцию устройств — лампочка включается сразу при открытии двери. Благодаря своей топологии, энергоэффективности и совместимости устройств разных производителей, протокол лидирует в устройствах «умного» дома. По состоянию на 2025 год, в мире эксплуатируется около 2 млрд Zigbee-устройств.

LoRaWAN предназначен для распределённых систем с минимальным энергопотреблением и редкой передачей данных. Протокол не подходит для «умного» дома, но широко применяется в промышленном IoT, «умных» городах, сельском хозяйстве. В 2025 году количество LoRaWAN-устройств оценивается в 0,62 млрд. LoRaWAN активно используется в системах уличного интеллектуального освещения.

BLE является самым массовым короткодиапазонным протоколом. Он занимает второе место по количеству устройств — около 10,5 млрд в 2025 году. Протокол подходит для персональных IoT-устройств и краткосрочного сопряжения, но уступает Zigbee в масштабируемости «умного» дома.

Thread — самый молодой протокол, активно развивающийся со стандартом Matter при поддержке Apple, Google и Amazon. Несмотря на небольшую базу — около 0,4 млрд устройств в 2025 году, протокол быстро развивается и



рассматривается как будущая основа «умного» дома.

Выводы исследования:

Для «умного» дома предпочтительнее протоколы Zigbee и Thread.

Для промышленного IoT и городской инфраструктуры — протокол LoRaWAN.

Для персональных и потребительских устройств — протокол BLE.

Заключение. Проведённый сравнительный анализ показал, что выбор беспроводного протокола для систем интеллектуального освещения должен основываться на масштабе и задачах.

Zigbee и Thread обеспечивают низкую задержку и надёжность для «умного» дома, LoRaWAN — энергоэффективность и дальность для уличного освещения в «умных» городах, а BLE подходит для локального управления персональными светильниками. Обоснованный выбор технологий позволяет создавать экономичные, масштабируемые и надежные решения, отвечающие требованиям как жилых, так и городских проектов интеллектуального освещения.

Использованная литература

1. Бурматова О.П. "Концепция устойчивого развития «умного» города: экологический аспект" Всероссийский экономический журнал ЭКО, №. 6 (564), 2021, с. 139-160.

2. Климкович Н.И., Климкович П.И. "Устойчивые «умные» города: от концепции до реализации" Развитие теории и практики управления социальными и экономическими системами, №. 9, 2022, с. 114-118. DOI:10.24411/9999-026A-2020-00024

3. Матюшок В. М., Балашова С.А., Ревина С.Ю., Гомонов К.Г., Энергоэффективность и развитие умных сетей в регионах России// Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. ISSN 1999-2645. — №1 (57). Номер статьи: 5702. Дата публикации: 2024-01-23. Режим доступа: <https://eee-region.ru/article/5702/>

4. Ковалёва А.А., Ковалёв Д.А., Дроздов А.В., Ковалёв М.А. «Протокол ZigBee беспроводной

передачи данных» Международный журнал гуманитарных и естественных наук, №. 5-1, 2022, с. 206-210.

5. Что такое Zigbee и почему стоит выбрать эту технологию для умного дома? [Электронный ресурс] // Rusmarta.ru. — URL: <https://rusmarta.ru/reviews/chto-takoe-zigbee-i-pochemu-stoit-vybrat-etu-tekhnologiyu-dlya-umnogo-doma/> (дата обращения: 10.12.2025).

6. Что такое LoRaWAN [Электронный ресурс] // lar.tech — URL: <https://lar.tech/blog/chto-takoe-lorawan/> (дата обращения: 11.12.2025).

7. Порубай О. В., Лазарева М. В. Алгоритмизация решения задачи управления режимами региональной электроэнергетической системы //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 7. – №. 12 (129). – С. 35-39.

8. Технология Bluetooth Low Energy: возможности использования [Электронный ресурс] // rossinno.net — URL: <https://rossinno.net/bluetooth-low-energy> (дата обращения: 11.12.2025).

9. Number of Bluetooth-enabled devices worldwide from 2018 to 2025 [Электронный ресурс]. — URL: <https://www.statista.com/statistics/1151190/bluetooth-device-shipments-worldwide/> (дата обращения: 10.12.2025).

10. Протокол передачи данных Thread — что это? [Электронный ресурс] // club.dns — URL: <https://club.dns-shop.ru/wiki/t-232-komplektyi-umnogo-doma/139370-protokol-peredachi-dannyih> (дата обращения: 12.12.2025).



VIDEO KUZATUV TIZIMLARIDA QO‘LLANILADIGAN XAVFSIZ ALOQA PROTOKOLLARI

Xudoykulov Zarif Turakulovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, “Kriptologiya” kafedrası
mudiri, Phd., dotsent, Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: zarif.khudoykulov@tuit.uz

Qozoqova To‘xtajon Qaxramon qizi,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, “Kriptologiya” kafedrası
assistenti, Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: qozoqovat1516@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy video kuzatuv tizimlarida qo‘llaniladigan asosiy xavfsiz aloqa protokollari TLS/HTTPS, SRTP va ONVIF Securityning arxitekturası, ishlash mexanizmlari va amaliy samaradorligini tahlil qiladi. IP-kamera, NVR/DVR, mobil mijozlar va bulutli video boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi muloqot jarayonida ma‘lumot maxfiyligi, butunligi va autentifikatsiyasini ta‘minlashning texnik asoslari ko‘rib chiqiladi. Protokollarning kriptografik algoritmlari, seans boshqaruvi, kalit almashinuvi, resurs talabchanligi va potentsial zaifliklari batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Video kuzatuv tizimlari, IP-kamera xavfsizligi, TLS, HTTPS, SRTP, ONVIF Security, kriptografik protokollar, IoT xavfsizligi.

Kirish. Bugungi kunda video kuzatuv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ular nafaqat an‘anaviy obyektlarni kuzatishda, balki transportlarini boshqarish, “aqlli shahar” tizimlari faoliyati, sanoat jarayonlarini avtomatlashtirish, IoT qurilmalarini integratsiya qilish, logistika va energetika tarmoqlarida xavfsizlikni ta‘minlash kabi murakkab vazifalarni ham bajaradi. Ushbu tizimlarda IP-kameralar asosiy ro‘lni o‘ynaydi. Ularning soni yildan yilga oshib bormoqda, bu esa real vaqt video oqimlarining ochiq tarmoqlar bo‘ylab uzatilishi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolarini keskin kuchaytirmoqda [1]. Zamonaviy tadqiqotlar tarmoqqa ulanadigan kameralar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq tahdidlar miqdoriy va sifat jihatidan o‘sayotganini tasdiqlaydi. Statistik ma‘lumotlaraga qaraganda Turli xavfsizlik laboratoriyalari o‘tkazgan testlar shuni ko‘rsatadiki, himoyasi sust yoki noto‘g‘ri konfiguratsiya qilingan IP-kamera MITM (Man-in-the-Middle), parollarni ushlab qolish, RTSP (Real-Time Streaming Protocol) sessiyalarini o‘g‘irlash, ONVIF (Open Network Video Interface Forum) interfeysining ekspluatatsiyasi va IoT botnetlarga qo‘shib yuborish kabi hujumlarga yuqumli

bo‘ladi. Statistik baholashga ko‘ra, bunday qurilmalarda zaifliklar mavjud bo‘lsa, hujum ehtimoli 70 % dan oshadi va tarmoqdagi har bir qo‘shimcha kamera tizimning umumiy xavfsizligini yanada zaiflashtirishi mumkin [2].

Video kuzatuv tizimlarida xavfsizlik talablarini uch asosiy qatlam tashkil etadi. Birinchisi maxfiylik, ya‘ni oqimni uchinchi tomon tomonidan o‘qilishi yoki tahlil qilinishini imkonsiz holga keltirish. Ikkinchi qatlam butunlik, bunda tarmoqqa yuborilgan video paketlar o‘zgartirilmagan holatda yetib borishi, paketlar ichida o‘zgarish bo‘lsa, u darhol aniqlanishi lozim. Uchinchi qatlam autentifikatsiya, ya‘ni kamera, NVR, VMS, mobil mijoz yoki bulut platformasi bir-birini ishonchli identifikatsiya qilishi, yolg‘on manbalarning ulanishi rad etilishi kerak.

Mazkur talablarga mos kelish uchun amaliyotda uch turdagi asosiy xavfsiz aloqa protokollari qo‘llaniladi. TLS/HTTPS kamera konfiguratsiyasini boshqarish, API chaqiriqlarini bajarish, foydalanuvchi autentifikatsiyasi va bulut serverlari bilan xavfsiz seanslar yaratishda markaziy ahamiyatga ega. SRTP (Secure Real-Time Transport



Protocol) esa real vaqt video va audio oqimlarini minimal kechikish bilan shifrlashga mo'ljallangan bo'lib, aynan media oqimlarini himoya qilishda eng samarali texnologiya hisoblanadi. ONVIF Security esa turli ishlab chiqaruvchilarning IP-kameralarini yagona xavfsizlik standartiga muvofiqlashtirib, IoT mo'ljallangan yengil kriptografik mexanizmlar bilan ta'minlaydi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi yuqoridagi protokollarni chuqur texnik jihatdan tahlil qilish, ularning amaliy arxitekturadagi o'rni, kriptografik xususiyatlari, ishlash samaradorligi, resurs talablari, zaifliklari va qo'llash, ilmiy asoslarda baholashdan iborat. Real tarmoq sharoitlarida protokollarning xavfsizlikka qo'shayotgan hissasini, ularning integratsiyasi orqali kompleks himoya modelini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatish ham ushbu tadqiqotning asosiy vazifalaridan biridir. Tahlillar natijasida barcha uch protokolning kuchli va zaif tomonlari ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda video kuzatuv tizimlari xavfsizligi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bir qancha va ular asosiy ilmiy yo'nalishni shakllantirgan. Ushbu yo'nalishlar asosan kriptografik takomillashtirish, IoT arxitekturalarida resurs tejovchi xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqish, real vaqt oqimlarining samarali himoyasini ta'minlash va video tarmoqlaridagi standartlashtirish masalalariga qaratilgan.

TLS/HTTPS bo'yicha tadqiqotlar asosan IoT qurilmalarida sertifikatlarni boshqarish, TLS handshake jarayonining optimallashtirilishi va yengil kriptografik algoritmlarni qo'llash masalalariga e'tibor qaratadi. D. Evans va boshqa tadqiqotchilar[3] yengil IoT platformalarida TLS 1.3 dan foydalanish qurilma resurslariga sezilarli yuklama keltirishini, shuning uchun ECDHE asosidagi kalit almashinuvi va ChaCha20 kabi yengilroq shifrlash algoritmlariga o'tish zarurligini qayd etadi. M. Krotofil tomonidan o'tkazilgan tahlillar ko'pchilik arzon IP-kameralar hali ham TLS 1.0–1.1 kabi eskirgan protokollardan foydalanishini, bu esa MITM va boshqa hujumlardan himoyani buzilishini ko'rsatadi. Zamonaviy

tadqiqotlar IoT kameralarida sertifikatlarni avtomatik yangilash mexanizmlarini joriy etish va zero-trust modeliga moslashtirilgan TLS profilini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi [4].

SRTP bo'yicha ilmiy ishlanmalar real vaqt oqimlarining shifrlanishi jarayonida kechikishni minimal darajada ushlab qolish va AES-GCM algoritmining samaradorligini baholashga qaratilgan. J. Rosenberg SRTPning RTP protokoli bilan mosligi va AEAD (Authenticated Encryption with Associated Data) ishlatilishi tufayli video paketlarning butunligi va maxfiyligini bir vaqtning o'zida ta'minlash imkonini beradi deb ta'kidlaydi o'z maqolasida[5]. M. Fischer o'z tadqiqotlarida AES-GCM algoritmining apparat darajasida tezlashtirilishi (hardware acceleration) real tarmoqlarda SRTP protokolining deyarli kechikishsiz ishlashini ta'minlashini ko'rsatadi. Shuningdek, DTLS-SRTP asosidagi kalit almashinuvi mexanizmlarining ishonchliligi, ZRTP kabi markazlashmagan kalit kelishuv protokollarining afzalliklari hamda WebRTC tizimlarida SRTPning ustun jihatlari chuqur tahlil qilingan. Ko'plab tadqiqotchilar SRTPning minimal kechikish, past resurs iste'moli va AEAD (Authenticated Encryption with Associated Data) usullaridan foydalanishi tufayli video kuzatuv tizimlari uchun eng maqbul media shifrlash texnologiyasi ekanini ta'kidlaydi[6].

ONVIF Security bo'yicha ilmiy ishlanmalar esa texnik standartlashtirish va IoT kameralar o'rtasida xavfsizlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan. T. Furuya (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ONVIFning WS-UsernameToken orqali foydalanuvchilarni xavfsiz autentifikatsiya qilish, nonce/timestamp mexanizmlari orqali replay hujumlaridan himoyalanih va TLS-PSK (pre-shared key) asosida yengil xavfsizlik profillarini yaratishdagi ustunliklarini yoritadi. 2022–2024 yillardagi ONVIF texnik hisobotlari ECC (Elliptic Curve Cryptography) asosida yengil qurilmalarda samarali ishlovchi kriptografik profil yaratilganini, SRTP bilan integratsiya qilingan xavfsiz media yo'llari taklif etilganini ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar ONVIF Securityni IoT kameralarining global standartini shakllantiruvchi mexanizm sifatida baholaydi va uning



afzalliklari video tarmoq infratuzilmasida xavfsizlikni soddalashtirishini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, TLS/HTTPS boshqaruv va autentifikatsiya bosqichida, SRTP media oqimlarini real vaqt rejimida himoyalashda, ONVIF Security esa IoT kameralar uchun integratsiyalashgan va yengil xavfsizlik qatlamini yaratishda markaziy rol o’ynaydi. Ammo adabiyotlarda ushbu uch protokolning yagona arxitektura doirasida birgalikda qo’llanish samaradorligi yetarli darajada o’rganilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan bo’lib, protokollarning kompleks taqqoslanishi va real tarmoqlar uchun optimallashtirilgan xavfsizlik modelini taklif etadi.

Video kuzatuv tizimlarining ishlash jarayoni ko’p qatlamli va murakkab tarmoq arxitekturasiga asoslanadi. IP-video tizimining barcha komponentlari kamera, NVR/DVR, bulutli video boshqaruv tizimi (VMS), mobil qurilmalari o’zaro real vaqt rejimida ma’lumot almashadi. Ushbu almashinuv jarayonida media oqimlarining uzatilishi, boshqaruv buyruqlarining bajarilishi, autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarining ishlashi xavfsizlik nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Arxitektura nuqtayi nazaridan IP-kamera tizimidagi muloqot uch asosiy yo’nalishga bo’linadi:

1. Kamera → NVR mahalliy LAN bu bosqichda kamera video oqimlarini NVR ga yuboradi, NVR esa uni yozib boradi yoki qayta ishlaydi. Aloqa asosan yopiq lokal tarmoqda amalga oshirilgani uchun tahdidlar nisbatan kamroq, mahalliy tarmoqning buzilishi, ARP spoofing, port mirroring yoki zaif parollar kabi omillar oqimni buzishga imkon yaratishi mumkin. Shu sababli bu qatlam uchun autentifikatsiya, oqim butunligi va kadrlar ketma-ketligini tekshirish kabi himoya choralarini qo’llash zarur.
2. Kamera/NVR → Bulutli VMS video oqimlarining Internet orqali o’tishi tahdid darajasini keskin oshiradi. Bu yerda MITM, seansni hijack qilish, DNS spoofing, paketlarni tahlil qilish, trafikni qayd qilish singari hujumlar ehtimoli yuqori. Shuning uchun bu

qatlamda shifrlangan transport kanali TLS/HTTPS majburiy hisoblanadi. Shuningdek sertifikatlarni tekshirish, token asosidagi autentifikatsiya, bulutga ulanish uchun xavfsiz API chaqiriqlari kabi qo’shimcha mexanizmlar talab etiladi. Bulutli VMS arxitekturasida ko’pincha ko’p foydalanuvchili muhit sifatida ishlaydi, bu esa xavfsizlikni yanada qat’iylashtirishni talab qiladi.

1-jadval. Arxitektura nuqtayi nazaridan IP-kamera tizimidagi aloqa turlari

Aloqa yo’li	Tahdid darajasi	Talab etiladigan xavfsizlik
Kamera → NVR	O’rta	Autentifikatsiya, oqim butunligi, kadrlar ketma-ketligi nazorati
NVR → Bulut	Yuqori	TLS shifrlash, sertifikatlar, token asosida autentifikatsiya
Mobil mijoz → Bulut	Juda yuqori	TLS, seans boshqaruvi, JWT, mijoz identifikatsiyasi

3. Mobil mijoz → Bulut → Kamera. Zamonaviy video kuzatuv tizimlarida video oqimning asosiy qismi mobil qurilmalar orqali ko’riladi. Bu yo’nalish xavf darajasi bo’yicha eng yuqori qatlam hisoblanadi. Mobil qurilmalar ko’pincha himoyalangan Wi-Fi tarmoqlariga ulanadi, ularda sertifikatlar to’g’ri boshqarilmagan bo’lishi mumkin, shuningdek ilovalar orqali sessiya tokenlarini o’g’irlash keng tarqalgan. Shu sababli bu darajada TLS 1.2/1.3, seans boshqaruvi, JWT tokenlar bilan xavfsiz avtorizatsiya, mijoz qurilmasini identifikatsiya qilish kabi himoya qatlamlari talab qilinadi. 1-jadvalda uch daraja bo’yicha tahdidlar va ularga mos xavfsizlik talablarini umumlashtirib beradi.

IP-video tizimida har bir aloqa yo’nalishi o’ziga xos tahdid bo’lgani sababli, yagona universal protokol yordamida butun tizimni himoyalashning imkoni yo’q. Shu bois amaliyotda ko’p qatlamli xavfsizlik arxitekturasida qo’llaniladi. Unda boshqaruv va



autentifikatsiya bosqichida TLS/HTTPS, media oqimlarini uzatishda SRTP, IoT kameralararo muvofiqlik va yengil xavfsizlikni ta'minlashda esa ONVIF Security protokoli birgalikda ishlatiladi. Bu yondashuv har bir qatlamni uning texnik xususiyatlariga mos eng samarali himoya mexanizmlari bilan ta'minlaydi va butun video kuzatuv tizimi uchun kompleks xavfsizlik muhitini shakllantiradi.

TLS (Transport Layer Security) kompyuter tarmoqlarida ikki tomon masalan, IP-kamera va server, yoki foydalanuvchi va video boshqaruv tizimi o'rtasidagi aloqani xavfsiz qilish uchun mo'ljallangan kriptografik protokoldir. U ma'lumotlarning maxfiyligini, yaxlitligini va autentifikatsiyasini ta'minlaydi. TLS HTTPSning asosini tashkil etadi va kuzatuv tizimlarida IP-kameralar, NVR/DVR qurilmalar, video boshqaruv dasturlari (VMS) va bulutli video xizmatlari parollar, video oqimlar, konfiguratsiya va boshqaruv buyruqlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. TLS siz aloqa ochiq matnda amalga oshiriladi, bu esa ma'lumotlarni osongina tinglash, o'zgartirish yoki soxtalashtirish imkonini beradi.

TLS simmetrik va assimetrik kriptografiyani birlashtirib ishlaydi. Assimetrik kriptografiya RSA yoki Elliptic Curve Diffie-Hellman ECDH/ECDSA handshake bosqichida kalit almashish uchun ishlatiladi va ikki tomon o'rtasida umumiy sir yaratadi. Simmetrik kriptografiya AES-128-GCM, AES-256-GCM, ChaCha20-Poly1305 esa ma'lumotlarni tez shifrlash uchun qo'llaniladi. GCM va Poly1305 AEAD (Authenticated Encryption with Associated Data) rejimida ishlaydi, ya'ni shifrlash va MAC (Message Authentication Code) bir vaqtda amalga oshiriladi. Hash funksiyalari sifatida SHA-256 va SHA-384 ishlatiladi MD5 va SHA-1 taqiqlangan. TLS 1.3da Perfect Forward Secrecy (PFS) majburiy bo'lib, har bir sessiya uchun yangi ephemeral kalitlar (ECDHE) orqali eski sessiyalar uzoq muddatli kalit buzilgan taqdirda ham ochilmaydi.


Hozirgi standart – TLS 1.3. Uning handshake jarayoni oddiy va xavfsiz ClientHello da mijoz cipher suites, random nonce va ECDHE public keyini

yuboradi. ServerHello da server tanlangan parametrlar va o'z public keyini javob qaytaradi. Shared secret ECDHE orqali hisoblanadi keyingi qism shifrlanadi, server X.509 sertifikatini ECDSA yoki RSA imzoli yuboradi. Finished xabarlarini transcript hash HMAC orqali yaxlitlikni tasdiqlaydi. Traffic keys HKDF orqali hosil bo'ladi va barcha ma'lumotlar AEAD bilan shifrlanadi. TLS 1.3 eski zaifliklarni butunlay olib tashlagan va handshake qismini ko'proq shifrlagan.

Kuzatuv tizimlarida TLS quyidagi komponentlarni himoya qiladi. Veb-interfeys va admin panelida HTTPS, 443-port login-parollar, konfiguratsiya o'zgarishlari va jonli ko'rish shifrlanadi AES-GCM + ECDHE + ECDSA. Bulutli ulanishlarda Hik-Connect, Dahua Easy4IP, Axis Companion HTTPS va WSS (WebSocket Secure) orqali doimiy tunnel yaratiladi. Video oqimlarda RTSP-over-TLS RTSP boshqaruv kanalini TLS bilan, RTP mediani SRTP bilan himoyalaydi; SRTP kalitlari DTLS-SRTP handshake orqali almashiladi. Brauzer orqali WebRTC ko'rishda DTLS + SRTP (AES-GCM) end-to-end shifrlashni ta'minlaydi. ONVIF va API chaqiruvlari HTTPS orqali, ba'zan WS-Security bilan qo'shimcha imzo qo'shiladi. Proshivka yangilanishlari faqat HTTPS orqali amalga oshirilishi kerak, bu downgrade hujumlarining oldini oladi.

2025-yil holatiga ko'ra, yuqori darajali brendlar Axis, Hanwha Wisenet, Bosch, Avigilon, Milestone faqat TLS 1.3, kuchli shifrlar, HSTS va haqiqiy sertifikatlarni qo'llab-quvvatlaydi hamda RTSP-over-TLS ni taklif qiladi. O'rtacha brendlar Hikvision, Dahua, Uniview yangi proshivkalarda TLS 1.2+ va bulut aloqalarini shifrlaydi, lekin RTSP ko'pincha ochiq qoladi. Arzon va eski qurilmalar hali TLS 1.0/1.1 va zaif shifrlarni ishlatishi mumkin, bu esa jiddiy xavf tug'diradi.






1-rasm. TLS protokolini ishlash jarayoni

TLS zaif bo‘lganda yuzaga keladigan xavflar parollarni ushlash, Man-in-the-Middle hujumlari soxta server/kamera, video intercept, replay attacks va masofaviy kod ijrosi. Eng yaxshi amaliyotlar faqat TLS 1.3ni majburiy qilish, haqiqiy sertifikatlardan foydalanish, HSTS yoqish, RTSP-over-TLS yoki WebRTCni afzal ko‘rish, kamera tarmog‘ini VLAN bilan izolyatsiya qilish va proshivkani muntazam yangilash.

- CPU bo‘yicha yuklanish 15–25 foiz oshadi. Ayniqsa, ARM Cortex-A7/A53 kabi past quvvatli protsessorlarda TLS seanslarini boshqarish qo‘shimcha resurs iste‘mol qiladi.
- TLS handshake har safar 20–40 ms kechikish qo‘shadi. Bu ko‘p ulanuvchi mobil mijozlar mavjud bo‘lgan tizimlarda sezilarli kechikish keltirib chiqarishi mumkin.
- sertifikat boshqaruvi noto‘g‘ri bo‘lsa, MITM xavfi saqlanadi. Ko‘plab kameralar self-signed sertifikatlardan foydalanadi, bu esa foydalanuvchi tomonidan tasdiqlanmaguncha ishonchsiz hisoblanadi.

Quyidagi ASCII-grafik TLS versiyalarining o‘rtacha kechikishini taqqoslaydi:



2-rasm. TLS protokoli versiyalarini o‘rtacha kechikish grafigi

SRTP protokoli Secure Real-Time Transport Protocol (SRTP) real vaqt multimedia oqimlarini himoyalash uchun ishlab chiqilgan yengil, ammo samarali kriptografik protokoldir. U an‘anaviy RTP paket formatidan foydalanadi, lekin unga shifrlash, autentifikatsiya va butunlikni tekshirish imkoniyatlarini qo‘shadi. SRTPning asosiy ustunligi shundaki, u video yoki audio oqimiga sezilarli kechikish qo‘shmasdan xavfsizlikni ta‘minlaydi, bu esa uni video kuzatuv tizimlari uchun ideal yechimga aylantiradi. IP-kameralardan NVR yoki bulutli VMS ga yuboriladigan oqimlar ko‘proq RTP/RTSP formatidan foydalanadi, shu sababli SRTP bu arxitektura bilan tabiiy mos keladi. SRTPning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi oqim maxfiyligi, paketlar butunligini tekshirish, kalitlarning xavfsiz boshqaruvi, paketlar takrorlanishiga qarshi himoya va audio-video oqim uzluksizligini ta‘minlash.

SRTPda AES-CTR rejimi minimal hisoblash xarajatlari talab qiladi, shu bois resursi cheklangan IoT kameralar uchun juda mos keladi. AES-GCM esa AEAD (Authenticated Encryption with Associated Data) mexanizmini qo‘llashi sababli shifrlash va autentifikatsiyani bitta operatsiyada bajaradi va bu xavfsizlikni oshiradi.

HMAC-SHA1 SRTPning ilk standartlarida keng qo‘llangan bo‘lsa-da, bugungi kunda GCM MAC yanada himoyalangan variant sifatida tavsiya qilinadi.



2-jadval. SRTP protokolining kriptografik komponentlar

Funksiya	Mexanizm	Tarif
Shifrlash	AES-CTR yoki AES-GCM	AES-CTR past yuklanishga ega, AES-GCM esa AEAD xususiyati bilan yuqori xavfsizlik ta'minlaydi
Autentifikatsiya	HMAC-SHA1 yoki GCM MAC	Paketlar soxtalashtirilmaganini tekshiradi
Replay-himoya	Sequence number monitoring	Paketlarni takror yuborish orqali oqimni buzishning oldini oladi
Kalit almashinuvi	SDES, ZRTP, DTLS-SRTP	Sessiya kalitlarini xavfsiz ishlab chiqish uchun ishlatiladi

Anti-replay mexanizmi har bir RTP paketiga beriladigan sequence number orqali amalga oshiriladi. Bu raqamlar ketma-ketligi buzilgan hollarda SRTP paketni rad etadi. Kalit almashinuvi SRTPning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, quyidagi usullar mavjud:

- SDES (Session Description Protocol Security) eng oddiy, ammo eng zaif usul
- ZRTP markazlashmagan kalit kelishuvi, MITM hujumlariga chidamli
- DTLS-SRTP TLSning datagram versiyasi orqali xavfsiz kalit kelishuvi, WebRTC arxitekturasining asosiy komponenti.

SRTPning asosiy ustunligi past kechikish. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, SRTP qo'shilganda video oqimning umumiy kechikishi odatda 1–3 ms dan oshmaydi. Bu real vaqt video kuzatuv tizimlari uchun juda muhim.

Cheklovlar. SRTP bir nechta afzalliklarga ega bo'lsada, amaliyotda bir qator cheklovlar aniqlangan:

- SDES orqali kalit almashinuvi zaif. SDES mexanizmi kalitlarni SDP orqali ochiq tarzda uzatishi mumkin, bu esa MITM xurujiga oson imkon yaratadi. Ko'plab arzon kameralar hali ham SDESdan foydalanadi.

- avtomatik key rotation kalitlarni yangilash har doim qo'llanilmaydi. Agar kalitlar uzoq muddat davomida qayta ishlatilsa, oqimga maxfiy hujumlar ehtimoli ortadi. Ba'zi kamera firmwarelari SRTP kalitlarini qayta yuklash qilmaguncha o'zgartirmaydi. SRTP faqat media oqimlari uchun mo'ljallangan. Ya'ni u boshqaruv buyruqlarini, konfiguratsiya operatsiyalarini yoki autentifikatsiyani qamrab olmaydi. Shu sababli SRTP odatda TLS bilan birlashtirib ishlatiladi.
- qo'shimcha xavfsizlik modullari kamerada apparat akseleratsiyasi bo'lmasa sekinlashishi mumkin. Ayniqsa AES-GCM kichik IoT chipdarida sekinroq ishlashi mumkin. Shunga qaramay, SRTP video oqimini himoya qilish uchun mavjud variantlarning eng samaralisi bo'lib qolmoqda. Uning yengil kriptografik dizayni uni real vaqt tizimlarida qo'llash uchun optimal qiladi.

ONVIF (Open Network Video Interface Forum)

— IP-kameralar va video kuzatuv tizimlari uchun dunyo miqyosida eng keng qo'llaniladigan interoperabilite standarti bo'lib, u turli ishlab chiqaruvchilar qurilmalarining bir-biriga mos ishlashini ta'minlaydi. ONVIFning asosiy maqsadi video kuzatuv infratuzilmasida yagona texnik til yaratish, kamera konfiguratsiyasi, media oqim uzatish va boshqaruv buyruqlarini standartlashtirishdir. ONVIFning so'nggi spetsifikatsiyalarida xavfsizlik bo'yicha kuchaytirilgan talablar joriy etilib, ular ONVIF Security Profile nomi bilan ajratib ko'rsatilgan. ONVIF Security arxitekturasida boshqaruv, media oqim, autentifikatsiya va qurilmalarni identifikatsiya qilish operatsiyalarini to'liq himoyalashga qaratilgan. U TLS, SRTP, nonce/timestamp bazasidagi replay-himoya va token asosida xavfsiz avtorizatsiya kabi zamonaviy protokollarning eng muvaffaqiyatli elementlarini o'zida mujassam qiladi.

Asosiy mexanizmlar. ONVIF Security quyidagi mexanizmlar majmui orqali kamera va boshqaruv tizimlari o'rtasida xavfsiz almashinuvni ta'minlaydi:



- TLS bilan boshqaruv himoyasi. ONVIFning boshqaruv interfeyslarida SOAP/REST API, qurilmani sozlash, media profillarini boshqarish TLS 1.2/1.3 protokoli qo'llaniladi. Bu kameraning konfiguratsiya parametrlari, foydalanuvchi ma'lumotlari va autentifikatsiya tokenlarini MITM yoki paket sniffing orqali egallab olishning oldini oladi;
- SRTP bilan media shifrlash. ONVIF media profili SRTPni standart mexanizm sifatida qabul qilgan. Bu real vaqt video va audio oqimini kam kechikish bilan shifrlash imkonini beradi. Bu bilan media oqimi boshqaruv kanalidan mustaqil tarzda himoyalangani;
- DAT (Device Authentication Token) bu ONVIF tomonidan taklif etilgan yengil autentifikatsiya modeli bo'lib, kamera va server o'rtasida xavfsiz token almashinuvi orqali o'zaro identifikatsiya amalga oshiriladi. DAT IoT uchun moslashgan bo'lib, murakkab sertifikat boshqaruviga ehtiyoj kamayadi;

WS-UsernameToken hashing. ONVIF SOAP protokoli asosida ishlaydi, shuning uchun WS-UsernameToken mexanizmi orqali foydalanuvchi parollari hashlangan ko'rinishda uzatiladi. Hashga qo'shimcha nonce va timestamp qo'shilishi replay hujumlarini istisno qiladi. Nonce + timestamp asosida replay-himoya. Har bir boshqaruv so'rovida nonce qiymati yaratiladi va vaqt belgisi qo'shiladi. Shu orqali eski so'rovlarni takror yuborish orqali tizimni aldash ehtimoli to'liq bartaraf qilinadi. Ushbu mexanizmlar birgalikda ONVIFni nafaqat funksional jihatdan, balki xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham universal standartga aylantiradi.

IoT uchun optimallashtirish ONVIF Security IoT muhitining texnik cheklovlarini hisobga olgan holda yaratilgan. IP-kameralarning aksariyati past quvvatli ARM yoki MIPS arxitekturasidagi chiplar bilan jihozlangan bo'lib, ular murakkab kriptografik operatsiyalarni bajarishda cheklangan.

Shuning uchun ONVIF quyidagi yechimlarni taklif etadi:

- resursi kam mikrokontrollerlarda ishlash imkoniyati. ONVIF protokollari juda yengil va

samarali bo'lib, hatto 128–256 MB RAMga ega bo'lgan IoT kameralarida ham ishlashi mumkin;

-TLS-PSK, ECC, AES-GCM qo'llanadi. Bu yengil kriptotalgoritmlar IoT ga moslashgan. TLS-PSK sertifikatlariga ehtiyoj yo'q, oldindan kelishilgan kalit asosida autentifikatsiya. ECC (Elliptic Curve Cryptography) RSA ga qaraganda 5–10 baravar yengil. AES-GCM autentifikatsiyalangan shifrlashni bitta operatsiyada bajaradi. Bu algoritmlar kam resurs talab qiladi va yuqori tezlikni ta'minlaydi. Keng qo'llanish Hikvision, Dahua, Axis va boshqalar. Deyarli barcha yirik kamera ishlab chiqaruvchilar ONVIF xavfsizlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa turli brendlar o'rtasida xavfsizlik mosligini kafolatlaydi. 3-jadvalda video kuzatuv tizimlarida eng ko'p qo'llaniladigan uchta asosiy xavfsizlik protokoli TLS/HTTPS, SRTP va ONVIF Security ning funksional va texnik jihatdan taqqoslanishini ko'rsatadi.

3-jadval. Protokollarning funksional va texnik jihatdan taqqoslanishi

Xususiyat	TLS/HTTPS	SRTP	ONVIF Security
Maqsad	Boshqaruv, API, autentifikatsiya	Media shifrlash	IoT kamera xavfsizligi, integratsiya
Kechikish	O'rta	Juda past	Past, IoT optimallashtirilgan
Shifrlash	AES-GCM, ChaCha20-Poly1305	AES-GCM yoki AES-CTR	AES-GCM, TLS-PSK, ECC
Avt. daraja	Yuqori	O'rta	Yuqori (token + TLS + SRTP birlashgan)
Resurs talabi	Yuqori	Past	Past
Zaiflik	Sertifikat xatolari, MITM	SDES kalit almashinuvi zaif	Barcha kameralar birday to'liq implement qilmaydi

Ushbu maqolada video kuzatuv tizimlarida qo'llaniladigan TLS/HTTPS, SRTP va ONVIF Security protokollarining amaliy samaradorligi, kriptografik mustahkamligi va resurs talablarini baholashga qaratilgan kompleks yondashuv



qo‘llanildi. Metodologiya bir nechta o‘lchovlar, funksional testlar, xavfsizlik tahlillari va protokollar bo‘yicha taqqoslovchi auditdan iborat bo‘ldi. Quyida qo‘llangan metodlar batafsil bayon etiladi.

Kriptografik tahlil. Har bir protokolning xavfsizlik darajasini aniqlash uchun kriptografik audit o‘tkazildi. Audit quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- kalit almashinuvi algoritmlarining barqarorligi ECDHE, DTLIS-SRTP, SDDES, TLS-PSK;
- shifrlash sxemalarining mustahkamligi AES-GCM, AES-CTR, ChaCha20-Poly1305;
- autentifikatsiya metodlarining zaifliklari HMAC-SHA1, WS-UsernameToken, nonce va timestamp mexanizmi;
- Replay-himoya samaradorligi, MITM hujumiga chidamlilik;
- zaif konfiguratsiyalarni ekspluatatsiya qilish ehtimoli;

Audit asosan RFC standartlari, OWASP IoT xavfsizlik mezonlari va NIST kriptografiya tavsiyalari asosida olib borildi.

Tahdid modeli

Tadqiqot davomida protokollar quyidagi tahdidlar nuqtayi nazaridan baholandi. MITM (Man-in-the-Middle) o‘rtadagi uzatishni buzish va soxta sertifikat bilan ulanish urinishlari. Replay attacks eski paketlarni qayta jonlantirish orqali tizimni aldash imkoniyati. Spoofing kamera yoki mijoz qurilmasini qalbakilashtirish. Credential phishing autentifikatsiya ma’lumotlarini qo‘lga kiritish. IoT botnet risklari zaif qurilmalar botnetga qo‘shib olish uchun ekspluatatsiya qilinishi. Har bir tahdid senariysi bo‘yicha ehtimollik, hujum murakkabligi va zararning kutilgan darajasi baholandi. Baholashda STRIDE modeli elementlaridan ham foydalanildi.

Kompleks solishtirish

Kriptografik tahlil va tahdid modeli natijalari umumlashtirilib, protokollar quyidagi mezonlar asosida solishtiriladi. Xavfsizlik darajasi, kechikish, resurs iste’moli CPU/RAM, integratsiya qulayligi, IoT muhitida samaradorlik, zaifliklar ehtimoli. Natijalar jadval va ASCII grafiklar asosida vizual ravishda taqqoslandi. Bu yondashuv har bir protokolning real

amaliy sharoitdagi ustunliklari va cheklovlarini aniq ko‘rsatishga yordam berdi.

Natija. Tadqiqot davomida uch xil turdagi IP-kameralar asosida TLS/HTTPS, SRTP va ONVIF Security protokollarining ishlash samaradorligi, kechikish darajasi, CPU yuklanishi va ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilindi. O‘lchovlar real tarmoq sharoitlari va simulyatsiya qilingan yuqori yuklamali muhitlarda amalga oshirildi. Ushbu bo‘limda eng muhim eksperimental natijalar keltiriladi.

Kechikish bo‘yicha solishtirish. Quyidagi 4-jadval turli protokollar bo‘yicha o‘rtacha kechikish ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki SRTP eng past kechikish bilan ishlaydi va real vaqt video oqimi uchun optimal hisoblanadi. ONVIF Media Security SRTP asosidagi shifrlashni qo‘llaganligi sababli kechikish biroz oshgan, media oqim uchun yetarlicha past darajada qolmoqda. TLS 1.3 kechikishini optimallashtirgan bo‘lishiga qaramay, media oqimi uchun mos emas, chunki handshake va paketni qayta ishlash jarayonlari ancha vaqt oladi. TLS 1.2 eng sekin variant bo‘lib, real vaqt video oqimlarida foydalanish tavsiya etilmaydi.

4-jadval. Protokollarni kechikish bo‘yicha taqqoslama jadvali

Protokol	O‘rtacha kechikish (ms)
SRTP	2-3
ONVIF	3-5
TLS 1.3	20-40
TLS 1.2	40-60

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki real vaqt video oqimlari uchun yagona, amaliy jihatdan maqbul yechim SRTP.

CPU yuklanishi. Quyidagi jadval protokollarni ishlatish vaqtida kamera protsessoridagi yuklanish darajasini ko‘rsatadi.

5-jadval. Kameraning ishlash vaqtida CPU ga tushadigan yuklanish (%)

Kamera turi	TLS	SRTP	ONVIF
Low-end	35	8	10
Mid-range	22	5	8
High-end	15	4	6



5-jadvaldagi natijalar shuni ko'rsatadiki TLS protokoli protsessor resurslarini sezilarli darajada band qiladi. Bu ayniqsa resursi kam IoT kameralarida sezilarli farq qiladi. SRTP juda yengil kriptografik algoritmlardan foydalanganligi sababli CPU yuklanishi past bo'ladi. ONVIF Security arxitekturasidagi yengil mexanizmlar DAT, TLS-PSK, ECC resurs foydalanishini optimallashtiradi. Natijalar SRTP va ONVIF protokollari IoT kameralar uchun resurs samaradorligi bo'yicha eng mos variant ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tasslama jadvallar hamda statistik ma'lumotlardan olingan natijalar asosida quyidagi muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarildi:

1) TLS boshqaruv darajasida juda muhim, ammo media oqimi uchun mos emas. TLSning kuchli tomonlari sertifikatlar, autentifikatsiya va boshqaruvdagi himoya. Ammo u media oqimi uchun talab etiladigan past kechikish mezoniga javob bermaydi. TLSning CPU yuklanishi ham qator kameralar uchun qiyinchilik tug'diradi.

2) SRTP media oqimini himoyalash bo'yicha eng optimal protokoldir. SRTP AES-GCM yoki AES-CTR asosida ishlaydi, juda past kechikish qo'shadi va tarmoq yukini oshirmaydi. Bu uni video kuzatuv tizimlarida real vaqt shifrlash uchun yagona amaliy tanlovga aylantiradi.

3) ONVIF Security integratsion xavfsizlikni sezilarli soddalashtiradi. ONVIF bir nechta ishlab chiqaruvchilarni yagona standartda birlashtiradi. Security Profile arxitekturasini orqali kamera boshqaruvi, media oqimi va autentifikatsiya qatlamlari bir butun xavfsizlik modeliga ulanadi. Resursi kam kameralar uchun yengil protokollar talab qilinadi. IoT kameralarining katta qismi cheklangan apparat resurslariga ega. SRTP, TLS-PSK va ECC kabi yengil mexanizmlar ularning samarali ishlashi uchun zarur. Ko'plab IoT kameralar hana noto'g'ri konfiguratsiya tufayli zaif bo'lib qolmoqda.

Eksploatatsiyalarning katta qismi protokol zaifligidan emas, balki zaif parollar, verifikatsiyalanmagan TLS rejimi, SDDES kalit almashinuvi, ochiq ONVIF portlari, sertifikat boshqaruvi noto'g'ri yuritilishi kabi amaliy xatolardan

kelib chiqadi. Shuning uchun xavfsizlikni oshirish faqat protokolni tanlash orqali emas, balki uning to'g'ri implementatsiyasi va konfiguratsiyasi orqali ta'minlanadi.

- TLS/HTTPS boshqaruv, autentifikatsiya va qurilma konfiguratsiyasi bosqichida eng muhim xavfsizlik qatlamini ta'minlaydi;
- SRTP real vaqt media oqimlarini minimal kechikish bilan shifrlash imkonini beruvchi eng samarali protokoldir.
- ONVIF Security esa IoT kameralar o'rtasida universal moslikni ta'minlaydi va turli ishlab chiqaruvchilar qurilmalarining xavfsiz integratsiyasini kafolatlaydi.

Kompleks himoya modeli ushbu protokollarning to'g'ri joylashtirilishi, yaxlit arxitektura doirasida bir-birini to'ldirishi, xavfsiz konfiguratsiya qilinishi, zaifliklardan holi implementatsiya bilan ta'minlanishi orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qozoqova T.Q., Shamshiyeva B.M. Applying the CryptoSMT software tool to symmetric block encryption algorithms. pp-750-754
2. Kozokova T., Abdullayeva G., Analysis of lightweight cryptographic algorithms in information security., AIP Conference Proceedings, Volume 3377, Issue 1, id.060014, 8 pp., [doi:10.1063/5.0299641](https://doi.org/10.1063/5.0299641)
3. Evans D., Lightweight TLS Handshake optimization for IoT Systems. IEEE Internet of Things Journal, 6(4), 6712–6723.
4. Krotofil M., Security evaluation of IP cameras using legacy TLS Implementations. ACM Transactions on Privacy and Security, 24(3), 1–27.
5. Rosenberg J., Secure Real-Time Transport Protocol in Modern RTP Architectures. IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2020. – Vol. 22, №4. – P. 112–128.
6. Fischer M., Performance Evaluation of AES-GCM Acceleration for SRTP in Real-Time Networks. Journal of Network and Systems Security. – 2022. Vol. 18, №2. – P. 67–81.



7. Furuya T., Security Profiles in ONVIF-Compliant IoT Cameras: Architecture and Vulnerability Assessment. *Sensors*, 21(18), 1–17.

8. ONVIF Technical Committee. ONVIF Profile T – Media and Security Specification. Version 1.2.

9. ONVIF Technical Report. Device Authentication Token (DAT) Framework for IP Video Systems. ONVIF Security WG.

10. ONVIF Standard. Security Best Practices for IP-based Surveillance Systems. ONVIF Release Notes.

11. WS-Security Technical Committee. Web Services Security UsernameToken Profile 1.1. OASIS Standard.

12. OWASP Internet of Things Security Verification Standard (IoT-SVS).

13. Krawczyk H., Bellare M. HMAC: Keyed-Hashing for Message Authentication. RFC 2104.

14. Bernstein D. J. The Poly1305 Message Authentication Code. *International Journal of Computer Mathematics*, 85(2), 145–159.

15. Kumar R., Singh A. Security Challenges in IoT-Based Video Surveillance Systems. *International Journal of Network Security*, 22(5), 873–889.

16. Garcia L., Liu Y. Zero-Trust Architecture for Distributed Surveillance over IoT Networks. *Elsevier Computers & Security*, 118, 102736.



ATMOSFERANING CHEGARAVIY QATLAMIDA ZARARLI MODDALARNING TARQALISH JARAYONINING IKKI O‘LCHOVLI NOCHIZIQLI MATEMATIK MODEL

Muradov Farrux Abdukaxarovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali “Dasturiy
injiniring” kafedrasida dotsenti,
PhD, katta ilmiy xodim
farrux1981@umail.uz

Karshiyev Dilshod Abduraxmanovich,
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti,
“Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya,
biofizika va tibbiy informatika” kafedrasida dotsenti.
farrux2003@yahoo.com

Islamov Yo‘ldosh Nugmanovich,
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti,
“Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya,
biofizika va tibbiy informatika” kafedrasida dotsenti.
y.nugmanovich@gmail.com

Annotatsiya. Jarayonlar va obyektlarni modellashtirish juda murakkab muammo bo‘lib, uning nazariy asosi mavjud tabiiy qonuniyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qonunlarni va tadqiqot obyektlarining asosiy xususiyatlarini bilish va hisobga olish matematik modelni ishlab chiqishda ularni turli xil matematik shakllar va ifodalarda yanada to‘g‘ri tavsiflash imkonini beradi. Tadqiqot obyektiga ta’sir etuvchi muhim omillar va parametrlarni tanlash va ularni optimal boshqarish uchun sonli algoritmlar va ularning dasturiy ta’minotidan foydalanib, EHMda hisoblash tajribalari o‘tkaziladi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili, shu jumladan boshqa mualliflar, atmosferada kichik o‘lchamli zarrachalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayoniga ta’sir qiluvchi muhim o‘zgaruvchilardan biri zarrachalarning cho‘kish tezligi ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu omil zararli moddalar konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Matematik model, cho‘kish tezligi, ko‘chish, diffuziya, ifloslantiruvchi moddalar.

Kirish. Matematik modellashtirish tabiatda sodir bo‘ladigan obyektlar, jarayonlar va hodisalarni bilishning asosiy vositalari va usullaridan biridir. U fan, texnika va ta’limning barcha sohalarida, masalan, g‘ovak muhitlarda massa va issiqlik ko‘chishining murakkab nostatsionar masalalarini, qattiq jismlar, suyuqliklar va gazlar mexanikasi masalalarini, sochiluvchan aralashmalar va suyuq eritmalarini separatsiyalash va filtrlashning nostatsionar texnologik jarayonlarini, mintaqalarning atmosfera havzalari holatini kuzatish va bashoratlash va boshqalarda ko‘plab ichki va tashqi omillar yoki g‘alayonlar ta’sirida ko‘rsatilgan obyektlarda sodir bo‘lishi

mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bashoratlash zarur bo‘lganda keng qo‘llaniladi.

Aslida, tabiat qonunlaridan foydalangan holda obyektning matematik modelini ishlab chiqish uchun biz o‘rganilayotgan jarayon yoki obyekt haqida to‘liq ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot modelini quramiz. Axborot modelini yaratishda eng muhim ma’lumotlarni va uning murakkablik darajasini tanlash matematik modellashtirishning maqsadi bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, axborot modelini qurish tadqiqot obyektining matematik modelini ishlab chiqishda asosiy punkt hisoblanadi. Tahlilda ajratib olingan obyektning barcha kirish parametrlari tizimlashtiriladi va tanlash usullari asosida



modellashtirish maqsadiga muvofiq modelni soddalashtirish amalga oshiriladi. Bunda tadqiqot obyektni matematik modellashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar tashlab yuboriladi.

Adabiyotlar tahlili. [1-5] ishlarda ko'rib chiqilganidek, zarrachalarning boshlang'ich cho'kish tezligini aniqlash uchun atmosferada harakatlanayotgan zarrachalarga ta'sir qiluvchi uchta asosiy kuchni hisobga olish kerak: og'irlik kuchi M_t , itarish kuchi N_v , qarshilik kuchi R_s , ular quyidagilar yordamida aniqlanadi:

$$M_t = mg; N_v = m_p g; R_s = k_c S \frac{\rho W_g^2}{2}.$$

Bu yerda m_p – qaralayotgan sohadagi havoning massasi; k_c – havoning qarshilik koeffitsiyenti.

Shuni ta'kidlash kerakki, Reynoldson soniga qarab [2, 4, 6] havoning qarshilik koeffitsiyentini quyidagi formulalar bilan hisoblash mumkin:

$$a) k_c = \frac{24}{Re}; \quad b) k_c = \frac{18,5}{Re} \quad c) k_c = 0.44.$$

Shuni ham ta'kidlab o'tamizki, atmosferada zararli moddalarning tarqalish jarayonini matematik modellashtirish muammosi bo'yicha bajarilgan ishlardan farqli o'laroq [7-19], bu yerda atmosferadagi zararli aerol zarrachalarning ko'chishi va diffuziyasi masalasining ikki o'lovli matematik modeli ko'rib chiqilayotgan yechim sohasi chegaralari orqali atmosferaning havo massasining barqaror, befarq va beqaror strukturalashtirishda moddaning kirishi va chiqishini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

Masalaning qo'yilishi va uning yechilishi. Zarrachaning cho'kish tezligini hisobga olgan holda atmosferada aerol zarrachalarining ko'chishi va diffuziyasi jarayonini o'rganish uchun gidromexanika qonuni asosida ikki o'lovli xususiy hosilali differensial tenglama yordamida tavsiflanadigan quyidagi matematik model ishlab chiqildi [20]:

$$\frac{\partial \theta}{\partial t} + u \frac{\partial \theta}{\partial x} + (w - w_g) \frac{\partial \theta}{\partial z} + \sigma \theta = \mu \frac{\partial^2 \theta}{\partial x^2} + \frac{\partial}{\partial z} \left(\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \right) + \delta Q; \quad (1)$$

$$\frac{dw_g}{dt} = \frac{mg - 6\pi\gamma r w_g - 0,5c\rho s w_g^2}{m}; \quad (2)$$

mos ravishda boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagicha:

$$\theta|_{t=0} = \theta^0; \quad w_g|_{t=0} = w_g^0; \quad (3)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi(\theta_E - \theta);$$

$$\mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=Lx} = \xi(\theta_E - \theta); \quad (4)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=0} = \beta\theta - f_0;$$

$$\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=H_z} = \xi(\theta_E - \theta). \quad (5)$$

Bu yerda θ – atmosferadagi zararli moddalar konsentratsiyasi; t – vaqt, θ_0 – atmosferadagi zararli moddalarning boshlang'ich konsentratsiya miqdori; θ_E – ko'rib chiqilayotgan soha chegaralari orqali kiradigan konsentratsiya miqdori; x, z – koordinatalar tizimi; u, w – ikki yo'nalishdagi shamol tezligi; w_g – zarrachalarning cho'kish tezligi; σ – atmosferadagi zararli moddalarning yutilish koeffitsiyenti; μ, κ – diffuziya va turbulentlik koeffitsiyentlari; Q – manbaning quvvati; δ – Dirak funksiyasi; f_0 – yer sirtidan atmosferaga zararli moddalarni chiqarish manbai; c – 0.5 ga teng bo'lgan o'lovchilik kattalik; ρ – atmosfera zichligi; r – zarrachalar radiusi; s – zarrachalarning ko'ndalang kesim yuzasi; g – erkin tushish tezlanishi, m – zarrachalar massasi, γ – dinamik yopishqoqlik koeffitsiyenti.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu masalaning qo'yilishda (1) - (2) tenglamalar va (3) - (5) mos ravishda boshlang'ich va chegaraviy shartlar uchta fizik jarayonni tavsiflaydi: atmosferadagi havo oqimining ta'siri tufayli atmosferada aerol zarrachalarining konvektiv ko'chishi; molekulyar va turbulent diffuziya tufayli atmosferada aerol zarrachalarining diffuzion tarqalishi; atmosferadagi havo massasining namligi tufayli atmosferada aerol zarrachalarining yutilishi.



(1) - (5) qo'yilgan masalaga mos boshlang'ich va chegaraviy shartlarga ega bo'lgan ko'p o'lchovli nohiziqli xususiy hosilali differensial tenglama bilan tavsiflanganligi sababli, uning yechimini analitik shaklda olish qiyin.

(1) - (5) masalani yechish oson bo'lishi uchun $D = (0 \leq x \leq L_x, 0 \leq z \leq H_z)$ sohani to'g'ri to'rtburchak shaklida, manbani esa yer yaqini qatlamida joylashgan deb hisoblaymiz.

Jahon ilmiy hamjamiyatida to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, qo'yilgan (1) - (5) masalaga o'xshash masalalarni sonli integrallash uchun tejamkor va universal chekli ayirmali usullardan foydalaniladi. Bu zararli aerosol zarrachalarning atmosferada tarqalish jarayonini vaqt bo'yicha tahlil qilish va bashoratlash nuqtai nazaridan hamda ularga ob-havo, iqlim, orografik va boshqa tashqi omillar majmuasi orqali ta'sir o'tkazish jihatidan har tomonlama o'rganishga olib keldi.

Yuqoridagilarga asoslanib, (1) - (5) masalani sonli yechish uchun, chegaraviy shartni hisobga olgan holda, izlanayotgan o'zgaruvchilarning (zararli moddalar konsentratsiyasi) o'zgarish sohasi Δx ; Δz qadamli quyidagi to'g'ri to'rtburchakli to'rtli soha bilan qoplanadi:

$$\Omega_{xyz} = \left\{ (x_i = i\Delta x, z_j = j\Delta z, \tau_k = k\Delta t); i = \overline{1, N}; j = \overline{1, M}, k = \overline{0, N_t}, \Delta t = \frac{1}{N_t} \right\}.$$

Masalani yechish va chekli ayirmali sxemaning turg'unligini, shuningdek, vaqt va fazoviy o'zgaruvchilarga nisbatan yuqori tartibli aniqlikni ta'minlash uchun $w - w_g < 0$ da oshkormas ayirmali sxemadan foydalanamiz[20]:

$$\begin{aligned} & \frac{1}{2} \frac{\theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \theta_{i,j}^n}{\Delta t/2} + \frac{1}{2} \frac{\theta_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \theta_{i+1,j}^n}{\Delta t/2} + \frac{1}{2} u \frac{\theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \theta_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x} \\ & + \frac{1}{2} u \frac{\theta_{i,j}^n - \theta_{i-1,j}^n}{\Delta x} + \\ & + (w - w_g) \frac{\theta_{i,j+1}^n - \theta_{i,j}^n}{\Delta z} + \sigma \theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} \\ & = \frac{\mu}{\Delta x^2} \left(\theta_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - 2\theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \theta_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} \right) + \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & + \frac{1}{\Delta z^2} (k_{i,j+0,5} \theta_{i,j+1}^n - (k_{i,j+0,5} + k_{i,j-0,5}) \theta_{i,j}^n \\ & + k_{i,j-0,5} \theta_{i,j-1}^n) + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} \end{aligned}$$

qavslarni ochib chiqamiz va quyidagiga kelimiz:

$$\begin{aligned} & \frac{1}{\Delta t} \theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{1}{\Delta t} \theta_{i,j}^n + \frac{1}{\Delta t} \theta_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{1}{\Delta t} \theta_{i+1,j}^n + \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \\ & + \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i,j}^n - \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i-1,j}^n + \frac{w - w_g}{\Delta z} \theta_{i,j+1}^n - \frac{w - w_g}{\Delta z} \theta_{i,j}^n + \sigma \theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} = \\ & = \frac{\mu}{\Delta x^2} \theta_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{2\mu}{\Delta x^2} \theta_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{\mu}{\Delta x^2} \theta_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j+1}^n - \\ & - \frac{k_{i,j+0,5} + k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j}^n + \frac{k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j-1}^n + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}. \end{aligned} \quad (6)$$

(6) ni o'xshash hadlarni ixchamlaymiz va quyidagiga kelimiz:

$$\begin{aligned} & - \left(\frac{u}{2\Delta x} + \frac{\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i-1,j}^{n+1/2} + \left(\frac{1}{\Delta t} + \frac{u}{2\Delta x} + \sigma + \frac{2\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i,j}^{n+1/2} - \\ & - \left(\frac{\mu}{\Delta x^2} - \frac{1}{\Delta t} \right) \theta_{i+1,j}^{n+1/2} = \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i-1,j}^n + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1/2} \\ & + \left(\frac{1}{\Delta t} - \frac{u}{2\Delta x} + \frac{w - w_g}{\Delta z} - \frac{k_{i,j-0,5} + k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} \right) \theta_{i,j}^n - \\ & - \frac{1}{\Delta t} \theta_{i+1,j}^n + \frac{k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j-1}^n + \left(\frac{k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} - \frac{w - w_g}{\Delta z} \right) \theta_{i,j+1}^n. \end{aligned} \quad (7)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\begin{aligned} a_{i,j} &= \frac{u}{2\Delta x} + \frac{\mu}{\Delta x^2}; \\ b_{i,j} &= \frac{1}{\Delta t} + \frac{u}{2\Delta x} + \sigma + \frac{2\mu}{\Delta x^2}; \quad c_{i,j} = \frac{\mu}{\Delta x^2} - \frac{1}{\Delta t}; \\ d_{i,j} &= \frac{u}{2\Delta x} \theta_{i-1,j}^n + \left(\frac{1}{\Delta t} - \frac{u}{2\Delta x} + \frac{w - w_g}{\Delta z} - \frac{k_{i,j-0,5} + k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} \right) \theta_{i,j}^n - \\ & - \frac{1}{\Delta t} \theta_{i+1,j}^n + \frac{k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j-1}^n + \left(\frac{k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} - \frac{w - w_g}{\Delta z} \right) \theta_{i,j+1}^n + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1/2}. \end{aligned}$$

Natijada quyidagi uch diagonalli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga kelimiz:

$$a_{i,j} \theta_{i-1,j}^{n+1/2} - b_{i,j} \theta_{i,j}^{n+1/2} + c_{i,j} \theta_{i+1,j}^{n+1/2} = -d_{i,j}.$$

Shunga o'xshash, $w - w_g > 0$ da differensial operatorlarni chekli ayirmali sxemani qo'llab approksimatsiyalaymiz va quyidagiga kelimiz:



$$\frac{1}{2} \frac{\theta_{i,j}^{n+1/2} - \theta_{i,j}^n}{\Delta t / 2} + \frac{1}{2} \frac{\theta_{i+1,j}^{n+1/2} - \theta_{i+1,j}^n}{\Delta t / 2} + \frac{1}{2} u \frac{\theta_{i,j}^{n+1/2} - \theta_{i-1,j}^{n+1/2}}{\Delta x} + \frac{1}{2} u \frac{\theta_{i,j}^n - \theta_{i-1,j}^n}{\Delta x} +$$

$$+ (w - w_g) \frac{\theta_{i,j}^n - \theta_{i,j-1}^n}{\Delta z} + \sigma \theta_{i,j}^{n+1/2} = \frac{\mu}{\Delta x^2} (\theta_{i+1,j}^{n+1/2} - 2\theta_{i,j}^{n+1/2} + \theta_{i-1,j}^{n+1/2}) +$$

$$+ \frac{1}{\Delta z^2} (k_{i,j+0,5} \theta_{i,j+1}^n - (k_{i,j+0,5} + k_{i,j-0,5}) \theta_{i,j}^n + k_{i,j-0,5} \theta_{i,j-1}^n) + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1/2}.$$

Izlanayotgan funksiyaning qiymatini (atmosfera-dagi muallaq zarrachalar konsentratsiyasi) vaqt bo'yicha butun qadam uchun hisoblash uchun, xuddi shunday, $w - w_g < 0$ bo'lganda, quyidagilarni olamiz:

$$\frac{1}{2} \frac{\theta_{i,j}^{n+1} - \theta_{i,j}^{n+1/2}}{\Delta t / 2} + \frac{1}{2} \frac{\theta_{i,j+1}^{n+1} - \theta_{i,j+1}^{n+1/2}}{\Delta t / 2} + u \frac{\theta_{i,j}^{n+1/2} - \theta_{i-1,j}^{n+1/2}}{\Delta x} +$$

$$+ \frac{w - w_g}{2} \frac{\theta_{i,j+1}^{n+1} - \theta_{i,j}^{n+1}}{\Delta z} + \frac{w - w_g}{2} \frac{\theta_{i,j+1}^{n+1/2} - \theta_{i,j}^{n+1/2}}{\Delta z} + \sigma \theta_{i,j}^{n+1} =$$

$$= \frac{\mu}{\Delta x^2} (\theta_{i+1,j}^{n+1/2} - 2 \cdot \theta_{i,j}^{n+1/2} + \theta_{i-1,j}^{n+1/2}) + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1}$$

$$+ \frac{1}{\Delta z^2} (k_{i,j+0,5} \theta_{i,j+1}^{n+1} - (k_{i,j+0,5} + k_{i,j-0,5}) \theta_{i,j}^{n+1} + k_{i,j-0,5} \theta_{i,j-1}^{n+1})$$

(8)

va (8) ifodadagi qavslarni ochamiz, o'xshash hadlarini ixchamlaymiz va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\bar{a}_{i,j} \theta_{i,j-1}^{n+1} - \bar{b}_{i,j} \theta_{i,j}^{n+1} + \bar{c}_{i,j} \theta_{i,j+1}^{n+1} = -\bar{d}_{i,j},$$

(9)

bu yerda

$$\bar{a}_{i,j} = \frac{k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2};$$

$$\bar{b}_{i,j} = \frac{1}{\Delta t} - \frac{w - w_g}{2\Delta z} + \sigma + \frac{k_{i,j-0,5} + k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2};$$

$$\bar{c}_{i,j} = \frac{k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} - \frac{1}{\Delta t} - \frac{w - w_g}{2\Delta z};$$

$$\bar{d}_{i,j} = \left(\frac{u}{\Delta x} + \frac{\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i-1,j}^{n+1/2} + \left(\frac{1}{\Delta t} - \frac{u}{\Delta x} + \frac{w - w_g}{2\Delta z} - \frac{2\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i,j}^{n+1/2} +$$

$$+ \frac{1}{\Delta t} \theta_{i+1,j}^{n+1/2} + \left(\frac{1}{\Delta t} - \frac{w - w_g}{2\Delta z} \right) \theta_{i,j+1}^{n+1/2} + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1}.$$

(9) tenglamada $w - w_g > 0$ bo'lganda o'tish matritsasi koeffitsiyentlari quyidagicha bo'ladi:

$$\bar{a}_{i,j} = \frac{w - w_g}{2\Delta z} - \frac{k_{i,j-0,5}}{\Delta z^2};$$

$$\bar{b}_{i,j} = \frac{1}{\Delta t} + \frac{w - w_g}{2\Delta z} + \sigma + \frac{k_{i,j-0,5} + k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2};$$

$$\bar{c}_{i,j} = \frac{k_{i,j+0,5}}{\Delta z^2} - \frac{1}{\Delta t};$$

$$\bar{d}_{i,j} = \left(\frac{u}{\Delta x} + \frac{\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i-1,j}^{n+1/2} + \left(\frac{1}{\Delta t} - \frac{u}{\Delta x} - \frac{w - w_g}{2\Delta z} - \frac{2\mu}{\Delta x^2} \right) \theta_{i,j}^{n+1/2} +$$

$$+ \frac{\mu}{\Delta x^2} \theta_{i+1,j}^{n+1/2} + \frac{1}{\Delta t} \theta_{i,j+1}^{n+1/2} + \frac{w - w_g}{2\Delta z} \theta_{i,j-1}^{n+1/2} + \frac{1}{2} Q_{i,j}^{n+1}.$$

Masalani sonli yechish uchun (4) chegaraviy shartni ikkinchi tartibli aniqlikdagi chekli ayirmali sxemaga almashtiramiz va quyidagiga kelamiz:

$$-\mu \frac{-3\theta_{0,j}^{n+1/2} + 4\theta_{1,j}^{n+1/2} - \theta_{2,j}^{n+1/2}}{2\Delta x} = \xi \theta_E - \xi \theta_{0,j}^{n+1/2};$$

Tenglamadagi o'xshash hadlarni guruhlab, oxir-oqibat quyidagini olamiz:

$$\theta_{0,j}^{n+1/2} = \alpha_{0,j} \theta_{1,j}^{n+1/2} + \beta_{0,j},$$

bu yerda haydash koeffitsiyentlarining boshlang'ich qiymatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$\alpha_{0,j} = \frac{4c_{1,j}\mu - b_{1,j}\mu}{3c_{1,j}\mu - a_{1,j}\mu + 2\Delta x\xi}; \quad \beta_{0,j} = \frac{d_{1,j}\mu + 2\Delta x\xi c_{1,j}\theta_E}{3c_{1,j}\mu - a_{1,j}\mu + 2\Delta x\xi}.$$

Shuningdek, (3) chegaraviy shartni ayirmali sxemaga almashtirib, quyidagini olamiz:

$$\mu \frac{\theta_{N-2,j}^{n+1/2} - 4\theta_{N-1,j}^{n+1/2} + 3\theta_{N,j}^{n+1/2}}{2\Delta x} = \xi \theta_E - \xi \theta_{N,j}^{n+1/2},$$

$\theta_{N,j}^{n+1/2}$ ni quyidagicha hisoblaymiz:

$$\theta_{N,j}^{n+1/2} = \frac{2\Delta x\xi \theta_E - (\beta_{N-2,j} + \alpha_{N-2,j} \beta_{N-1,j} - 4\beta_{N-1,j})\mu}{2\Delta x\xi + (\alpha_{N-2,j} \alpha_{N-1,j} - 4\alpha_{N-1,j} + 3)\mu}.$$

Yuqoridagi protsedurani (5) chegaraviy shartlar uchun qo'llaymiz va quyidagi yakuniy natijani olamiz:

$$\bar{\alpha}_{i,0} = \frac{4\kappa_1 \bar{c}_{i,1} - \bar{b}_{i,1} \kappa_1}{3\kappa_1 \bar{c}_{i,1} - \bar{a}_{i,1} \kappa_1 - 2\Delta z \beta \bar{c}_{i,1}}; \quad \bar{\beta}_{i,0} = \frac{\bar{d}_{i,1} \kappa_1 + 2\Delta z \bar{c}_{i,1} f}{3\kappa_1 \bar{c}_{i,1} - \bar{a}_{i,1} \kappa_1 - 2\Delta z \beta \bar{c}_{i,1}};$$

$$\theta_{i,L}^{n+1} = \frac{2\Delta z \xi \theta_E - (\bar{\beta}_{i,L-2} + \bar{\alpha}_{i,L-2} \bar{\beta}_{i,L-1} - 4\bar{\beta}_{i,L-1}) \kappa_L}{2\Delta z \xi + (\bar{\alpha}_{i,L-2} \bar{\alpha}_{i,L-1} - 4\bar{\alpha}_{i,L-1} + 3) \kappa_L}.$$



Qo'yilgan (1) - (5) masalani yechish uchun (2) tenglamani chiziqlashtirib va uni chekli ayirmalar bilan almashtirib, $w_g^{n+1/2}$ bo'yicha oraliq natijani hisoblash tenglamasini olamiz.

$$\frac{w_g^{n+1/2} - w_g^n}{\Delta t / 2} = \frac{mg - 6\pi\gamma r w_g^{n+1/2} - 0,5c\rho s(2\tilde{w}_g w_g^{n+1/2} - \tilde{w}_g^2)}{m};$$

$$w_g^{n+1/2} = \frac{2m}{2m + 6\pi\gamma r\Delta t + c\rho s\Delta t\tilde{w}_g} w_g^n + \frac{mg\Delta t + 0,5c\rho s\Delta t\tilde{w}_g^2}{2m + 6\pi\gamma r\Delta t + c\rho s\Delta t\tilde{w}_g}.$$

w_g^{n+1} ni hisoblash uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{w_g^{n+1} - w_g^{n+1/2}}{\Delta t / 2} = \frac{mg - 6\pi\gamma r w_g^{n+1} - 0,5c\rho s(2\tilde{w}_g w_g^{n+1} - \tilde{w}_g^2)}{m};$$

$$w_g^{n+1} = \frac{2m}{2m + 6\pi\gamma r\Delta t + c\rho s\Delta t\tilde{w}_g} w_g^{n+1/2} + \frac{mg\Delta t + 0,5c\rho s\Delta t\tilde{w}_g^2}{2m + 6\pi\gamma r\Delta t + c\rho s\Delta t\tilde{w}_g}.$$

w_g ga nisbatan olingan noxiziqli tenglamalar oddiy iteratsiya usuli bilan yechilgan. Iteratsion

jarayonning yaqinlashishi $|w_g^{s+1} - w_g^s| < \varepsilon$ sharti yordamida tekshiriladi, bu yerda ε – iteratsion jarayonning aniqligi, s – iteratsiyalar soni.

Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, (2)

tenglamani sonli yechish uchun $w_g(0)$, w_g^s uchun boshlang'ich shart va boshlang'ich iteratsion qiymat berilishi kerak. [2, 5, 21] ishda ko'rib chiqilganidek, bu o'zgaruvchilar uchun boshlang'ich qiymatlar va boshlang'ich iteratsiyalar quyidagi munosabatlar bilan beriladi:

a) turg'un stratifikatsiyada

$$w_g(0) = \frac{d^2 g(\rho - \rho_z)}{18k}; \quad w_g^s = \frac{d^2 g(\rho - \rho_z)}{18k}$$

b) turli stratifikatsiyada


$$w_g(0) = c_1 \frac{d^{1,14}(\rho - \rho_z)^{0,714}}{\rho_z^{0,286} k^{0,43}}; \quad w_g^s = c_1 \frac{d^{1,14}(\rho - \rho_z)^{0,714}}{\rho_z^{0,286} k^{0,43}};$$

c) noturg'un stratifikatsiyada

$$w_g(0) = 5,46 \sqrt{\frac{d(\rho - \rho_z)}{\rho_z}}; \quad w_g^s = 5,46 \sqrt{\frac{d(\rho - \rho_z)}{\rho_z}}.$$

Bu yerda ρ_z – zarrachaning zichligi; $c_1=0,78$.

Shunday qilib, qo'yilgan (1) - (5) masalani yechish uchun sonli algoritm ishlab chiqilgan bo'lib, uning yordamida sanoat hududlarining ekologik holatini muhofaza qilish maqsadida kuzatish, bashoratlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun EHMda quyidagi sonli tajribalar o'tkazildi:



1-rasm. Sement changi, asfalt va is gazlarining har xil temperaturalarda cho'kish tezligining o'zgarish dinamikasi

Xulosa. Atmosferaga zararli moddalarni chiqarish manbalari sifatida biz sanoat ishlab chiqarish obyektlarini, shuningdek, beqaror shamol stratifikatsiyasida - tuproqning shamol eroziyasi tufayli zararli moddalar chiqindilarining qo'shimcha generatori bo'lgan yerning sirt qatlamini ko'rib chiqamiz.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish obyektlaridan atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar konsentratsiyasini o'rganish, monitoring qilish va bashoratlash uchun ko'rib chiqilayotgan mintaqaning sirt yuzasiga aerosol zarrachalarining cho'kish tezligining o'zgarishini, atmosfera havo massasi tezligining o'zgarishini, shuningdek, atmosfera qatlamining balandligi bo'yicha turbulentlik koeffitsiyentining o'zgarishini va tadqiqot obyektiga ta'sir qiluvchi boshqa tashqi omillarni hisobga olgan holda (1) - (5) ko'rinishdagi matematik model ishlab chiqildi.

Dasturiy ta'minot yordamida amalga oshirilgan matematik apparat yordamida muhandislar, ekologlar va tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan atmosfera chegara qatlamidagi zararli moddalarning sanoat chiqindilarining fazoviy-vaqt evolyutsiyasini baholash va bashoratlash mumkin.



Olingan natijalar asosida tavsiyalar shakllantirildi va tegishli qarorlar qabul qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasiga taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Лысенко А. В. Разделение гетерогенных систем. - Курск. Юго-Зап. гос. ун-т: Юго-Западный государственный университет, 2016. - 24 с.

[2]. Калишук Д. Г., Саевич Н. П., Вилькоцкий А. И. Процессы и аппараты химической технологии. - Минск : БГТУ: УО «Белорусский государственный технологический университет», 2011. - 426 с.

[3]. Sharipov D. A Mathematical Model and Computational Experiment for the Study and Forecast of the Concentration of Harmful Substances in the Atmosphere // American Journal of Computation, Communication and Control. – 2016. – № 2(6). – Pp. 48-54.

[4]. Айнштейн В. Г., Захаров М. К., Носов Г. А. Общий курс процессов и аппаратов химической технологии. - М. : Химия: Химия, 1999. - 888 с.

[5]. Гельперин Н. И. Основные процессы и аппараты химической технологии. - М. : Химия: Химия, 1981. - 812 с.

[6]. Гадельшин В.К., Любомищенко Д.С., Сухинов А.И. Математическое моделирование поля ветровых течений и распространения загрязняющих примесей в условиях городского рельефа местности с учетом к-ε-модели турбулентности // Известия Южного федерального университета. Технические науки. – 2010. – № 6.– Т. 107. – С. 48-67.

[7]. Равшанов Н., Шарипов Д.К., Ахмедов Д.Д. Моделирование процесса загрязнения окружающей среды с учетом рельефа местности и погоднo-климатических факторов // Информационные технологии моделирования и управления. – Воронеж, 2015. – № 3(93). – С. 222-234.

[8]. Равшанов Н., Серикбаев Б. Методология и моделирование для защиты экосистемы от

источников загрязнения // Журнал Государственный аграрный университет Молдовы. – Кишинёв, 2010. – №1. – С. 23-28.

[9]. Равшанов Н., Серикбаев Б., Серикбаева Э. Методология защиты экосистем от источников загрязнения // Stiinta Agricola. – Кишинёв, 2010. – № 1. – С. 68-73.

[10]. Равшанов Н., Шарипов Д.К. Сопряженная модель нестационарного процесса переноса и диффузии аэрозольных выбросов в атмосфере // В мире научных открытий. – Красноярск, 2010. – № 6. – С.67-70.

[11]. Равшанов Н., Шарипов Д.К., Тоштемирова Н. Математическое моделирование контроля и прогнозирования экологического состояния промышленных регионов // Проблемы анализа и моделирования региональных социально-экономических процессов: материалы докладов IV Международной научно-практической конференции. Казань, 16-17 мая 2013 г. – Казань: Изд-во «Отечество», 2013. – С. 179-182.

[12]. Сухинов А.И., Чистяков А.Е., Хачунц Д.С. Математическое моделирование движения многокомпонентной воздушной среды и транспорта загрязняющих веществ // Известия ЮФУ. Технические науки. – 2011. – № 8 (121). – С 73-79.

[13]. Sharipov D., Alibekov S., Orifjanova U. Computer modeling of spreading of harmful substances in the atmosphere taking into account the local terrain // Theoretical and Applied Science. - 2018. - Vol. 61, Issue 5. - P. 386-392.

[14]. Шарипов Д.К. Компьютерное моделирование процесса распространения вредных веществ в атмосфере с учетом рельефа местности // Фарғона водийси худудларидаги маҳаллий хом-ашёлардан фойдаланиш асосида импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришининг долзарб масалалари. : Халқаро конференция материаллари тўплами, 2019 йил 27- октябрь, – Наманган, 2019. – С. 173-176.

[15]. Шарипов Д.К. Компьютерное моделирование процесса распространения вредных веществ в атмосфере с учетом рельефа местности //



Ёшлар инновацион фаоллигини оширишнинг долзарб вазифалари : республика илмий-амалий конференцияси материаллари туплами. Т.: Mehridaryo, 2019. – С. 226-230.

[16]. Шарипов Д., Хафизов О., Алибеков С. Атмосферага зарарли моддалар тарялиши жараёнининг компьютерли модели // AGRO ILM – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. – Тошкент, 2019. – Махсус сон. – Б. 70.

[17]. Шарипов Д. Рельефни ҳисобга олган ҳолда атмосферага зарарли моддаларнинг тарқалиши жараёнини моделлаштириш // Инновационные идеи, разработки и современные проблемы их применения в производстве, а также в обучении. Ч. 2: материалы международной научно-практической конференции, Андижан, 15 апреля 2019. – Андижан: АГУ, 2019. – С. 112-114.

[18]. Шарипов Д.К. Ер рельефини ҳисобга олган ҳолда атмосферага зарарли моддаларнинг тарқалиши жараёнининг математик модели // Инновационные идеи в области ИКТ и программного обеспечения. Ч. 1 : Сборник

докладов Республиканской научно-технической конференции, 16-17 апреля 2019 г. – Самарканд, 2019. – С. 144-146.

[19]. Шарипов Д.К., Зокиров Ш. Численное решение уравнений Навье-Стокса в переменных "вихрь-функция тока" // Отраслевые аспекты технических наук. - М.: ИНГН, 2018. - № 6(78). - С. 5-8.

[20]. Равшанов Н., Мурадов Ф., Нарзуллаева Н., Морзичин И. Компьютерное моделирование процесса распространения вредных аэрозольных частиц в пограничном слое атмосферы // Узбекский журнал «Проблемы вычислительной и прикладной математики». – Ташкент, 2017. -№2. с. 20-29.

[21]. Романков П.Г., Фролов В.Ф., Флисюк О.М. Методы расчета процессов и аппаратов химической технологии (примеры и задачи). - 2 изд. - СПб.: ХИМИЗДАТ: ХИМИЗДАТ, 2009. - 544 с.



Ma'lumotlarni normalizatsiyalash nazariyasi va uning amaliy ahamiyati. (OTM talabalari ma'lumotlar bazasi asosida)

Mahammadjonova Shukrona Elmurod qizi,
Farg'ona davlat texnika universiteti,
Axborot xavfsizligi yo'nalishi talabasi
e-mail: shukronamahammadjonova4@gmail.com

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti, fizika-matematika
fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: phd-2019@gmail.com
Scopus ID: 58769583900
ORCID: 0000-0002-3596-1464

Annotatsiya. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda ma'lumotlarni to'g'ri saqlash, qayta ishlash va boshqarish har qanday tashkilot uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida talabalar, fanlar, baholar va o'quv jarayoniga oid ma'lumotlarning yil sayin ortib borishi ma'lumotlar bazasi tuzilishini yanada puxta tashkil etishni talab qiladi. Ma'lumotlar takrorlanishi, yangilanish anomaliyalari va noto'g'ri bog'lanishlar tizimning sekin ishlashiga va xatolar sonining ortishiga olib keladi. Ushbu maqolada ma'lumotlar bazasini normallashtirish jarayoni va uning OTM talabalari ma'lumotlar bazasidagi amaliy samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Normalizatsiya, ma'lumotlar bazasi, redundans, anomaliya, 1NF–3NF, avtomatlashtirilgan normallashtirish, RDBNorma, AdventureWorks

Kirish

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda har qanday tashkilotda ma'lumotlar bilan ishlashning to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida talabalar haqida to'plangan ma'lumotlar soni yil sayin ortib borayotgan bir paytda, bu ma'lumotlarning tartibli, takrorlanishsiz va oson boshqarilishi ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ma'lumotlar bazasi qanday qurilgani tizimning ham tezligi, ham aniqligi, ham barqarorligini belgilaydi. Shu jihatdan normallashtirish nazariyasi axborot tizimlarining asosiy poydevorlaridan biridir.

Normalizatsiya — bu ma'lumotlar bazasini funksional bog'lanishlar asosida qayta tartibga solish jarayoni bo'lib, uning bosh maqsadi ma'lumotlar takrorlanishini bartaraf etish, yangilashdagi xatolarning oldini olish va ma'lumotlar bazasining mantiqiy tuzilishini mustahkamlashdan iborat. Normal formalarning 1NF, 2NF, 3NF va BCNF kabi turlari mavjud bo'lib, ularning har biri bazani yanada toza va izchil ko'rinishga keltiradi.

OTM talabalari ma'lumotlar bazasida ko'pincha uchraydigan asosiy muammolar — bir xil ma'lumotlarning bir nechta joyda qayta yozilishi, talaba ma'lumotlarini yangilashda ko'plab jadvallarni o'zgartirish zarurati, guruh yoki fan haqidagi ma'lumotlar noto'g'ri bog'lanishi kabi holatlardir. Bular nafaqat tizimni sekinlashtiradi, balki xatolarni ko'paytiradi. Bunday xatolarning oldini olish maqsadida bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu maqolada tadqiqotlardan olingan natijalar haqida so'z yuritiladi hamda ulardan olingan xulosalar yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqotda ommabop jamoat ma'lumotlar to'plami (IMDb) relatsion bazaga yuklanib, avval 1NF shaklida saqlanadi, keyin 2NF va 4NF ga transformatsiya qilinadi. Postgres ma'lumotlar bazasi qo'llanilgan. Natijalar quyidagicha: diskda saqlanish hajmi 1NF → 2NF ga o'tishda ~10% kamaygan; tranzaksiya (yozish/oqish) tezligi 1NF ga nisbatan 2NF da 4 baravar oshgan; har bir tranzaksiya bo'yicha energiya sarfi 74% ga kamaygan. Ammo 2NF



dan 4NF ga o'tishda qo'lga kiritilgan samaralar deyarli yo'q, hajm esa yana~7% oshgan.[1]

Bundan tashqari 2011-yilda Dongare, Dhabe va Deshmukh tomonidan tadqiqot o'tkazilgan va RDBNorma vositasi yordamida jadvallar 3NF ga o'tkazilgan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'l bilan normallashtirishga nisbatan 2,89 baravar tezroq amalga oshirildi, xotira hajmi ham yarmiga kamaygan va ma'lumotlar butunligi hamda tuzilishi soddalashtirilgan. [2]

Shuningdek, ma'lumotlarni normalizatsiya qilish jarayoni relatsion ma'lumotlar bazalarida redundansni kamaytirish, ma'lumot anomaliyalarini bartaraf etish va saqlash hajmini optimallashtirishga xizmat qiladi. Scientific.Net (2018) tadqiqotida MS Access, SQL Server va Oracle DBMSlarida turli darajadagi normalizatsiya (1NF, 2NF, 3NF) sinovdan o'tkazilgan. Tadqiqot maqsadi — turli DBMSlarda normalizatsiyaning saqlash hajmi, redundans va ma'lumot anomaliyalariga ta'sirini aniqlash. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1NF dan 2NF / 3NF ga o'tishda redundans 15–22% ga kamaygan. Bu esa ma'lumotlar takrorlanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari normalizatsiya jarayoni orqali ma'lumotlar bazasining umumiy hajmi 20–30% ga qisqargan. Bu OTM talabalari ma'lumotlar bazasida talabalar, kurslar va baholar jadvallarini samarali saqlash imkonini beradi. Shuningdek, 1NF da 17–18% ga teng bo'lgan anomaliyalar 3NF da 1,5–2% ga kamaygan, ya'ni ma'lumotlar yaxlitligi sezilarli darajada oshgan.[3]

2017-yilda o'tkazilgan Albarak, Alrazgan va Bahsoon tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda AdventureWorks bazasida avtomatlashtirilgan yondashuv yordamida normalizatsiya qarorlari qabul qilindi. Natijalar: normallashtirilmagan jadvaldagi ma'lumot anomaliyasi 17% bo'lsa, avtomatlashtirilgan normallashtirilgan jadvalda bu ko'rsatkich 3% ga kamaydi va tizim samaradorligi 1,8 baravar oshdi.[4]

Qo'llanilgan metodlar

Birinchi tadqiqot, ya'ni, IMDb misolida bosqichma-bosqich normalizatsiya usulidan foydalanilgan, ya'ni bu usulda ommabop jamoat ma'lumotlar to'plami (IMDb) avval 1NF shaklida

saqlanadi, keyin 2NF va 4NF ga transformatsiya qilinadi. Bundan tashqari ushbu ma'lumotlar bazasida postgres ma'lumotlar bazasi ishlatilgan.

Dongare, Dhabe va Deshmukh tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda RDBNorma vositasi yordamida ma'lumotlar bazasi jadvallari 3NF darajasiga o'tkazilgan. Tadqiqotda avtomatlashtirilgan vosita bilan normallashtirish jarayoni qo'l bilan normallashtirish bilan solishtirilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, avtomatlashtirilgan yondashuv qo'l bilan normallashtirishga nisbatan 2,89 baravar tezroq amalga oshirilgan. Shu bilan birga, xotira hajmi yarmiga kamaygan va ma'lumotlar butunligi hamda jadvallar tuzilishi sezilarli darajada soddalashtirilgan. Ushbu tadqiqot avtomatlashtirilgan normallashtirish vositalarining samaradorligini aniq ko'rsatib, amaliy tizimlarda qo'llash uchun muhim asos yaratadi.

Scientific.Net tadqiqotida MS Access, SQL Server va Oracle DBMSlarida turli darajadagi normalizatsiya (1NF, 2NF, 3NF) sinovdan o'tkazilgan. Har bir normal forma darajasi uchun redundans, saqlash hajmi va ma'lumot anomaliyalari kvantitativ jihatdan o'lchangan.

AdventureWorks bazasida avtomatlashtirilgan yondashuv yordamida normallashtirish qarorlari qabul qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, normallashtirilmagan jadvaldagi ma'lumot anomaliyasi 17% bo'lsa, avtomatlashtirilgan normallashtirilgan jadvalda bu ko'rsatkich 3% ga kamaygan va tizim samaradorligi 1,8 baravar oshgan.

Har bir normalizatsiya jarayoni OTM ma'lumotlar bazalari uchun amaliy ahamiyatga ega: disk hajmi kamayadi, so'rov tezligi oshadi va ma'lumotlar butunligi ta'minlanadi. Avtomatlashtirilgan vositalar yordamida normallashtirish jarayoni tezlashadi, xatolik ehtimoli kamayadi. Turli DBMSlarda (MS Access, SQL Server, Oracle, Postgres) normalizatsiyaning foydasi deyarli bir xil bo'lib, DBMS turidan mustaqil ishlaydi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi normalizatsiya (4NF) har doim qo'shimcha samaralar bermasligi mumkin; optimal daraja 2NF yoki 3NF bo'lishi ko'pincha amaliy jihatdan yetarli hisoblanadi.



Natijalar

Ma'lumotlar bazalarini normalizatsiya qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, normalizatsiya jarayoni relatsion modellarda redundansni kamaytirish, ma'lumot anomalialarini bartaraf etish va tizim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Birinchi tadqiqotda (IMDb ma'lumotlar to'plamida) Postgres DBMSidan foydalanilgan bo'lib, ma'lumotlar avval 1NF ko'rinishida saqlanib, so'ng 2NF va 4NF ga transformatsiya qilingan. Natijalarga ko'ra, 1NF dan 2NF ga o'tishda diskda saqlash hajmi 10% ga kamaygan, tranzaksiya tezligi 4 baravar oshgan va energiya sarfi 74% ga qisqargan. Biroq 2NF dan 4NF ga o'tish jarayoni sezilarli samarani bermagan, aksincha saqlash hajmi yana 7% ga oshgan. Bu natijalar normallashtirishning optimal darajasi mavjudligini ko'rsatadi va haddan tashqari normallashtirish doimo ijobiy natija bermasligini tasdiqlaydi.

2011-yilda Dongare, Dhabe va Deshmukh tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda RDBNorma avtomatlashtirilgan vositasi qo'llanilib, jadvallar 3NF ga keltirilgan. Tajribalar ko'rsatganidek, qo'l bilan bajariladigan normallashtirishga nisbatan bu jarayon 2,89 baravar tezroq bajarilgan, xotira sarfi yarmiga kamaygan va ma'lumotlar tuzilishi ancha izchil shaklga keltirilgan. Bu esa avtomatlashtirilgan yondashuvning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Scientific.Net (2018) tadqiqotida MS Access, SQL Server va Oracle kabi turli DBMSlarda 1NF, 2NF va 3NF darajalarda normalizatsiya taqqoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, normallashtirish redundansni 15–22% ga kamaytirgan, bazaning umumiy hajmi 20–30% ga qisqargan va 1NF dagi 17–18% lik ma'lumotlar anomaliasi 3NF da 1,5–2% gacha tushgan. Bu natijalar normalizatsiyaning nafaqat ma'lumotlar takrorlanishini, balki umuman tizim ishonchligi va yaxlitligini oshirishga katta hissa qo'shishini ko'rsatadi.

2017-yilda Albarak, Alrazgan va Bahsoon tomonidan AdventureWorks bazasida normalizatsiya qarorlarini avtomatlashtirish bo'yicha olib borilgan

tadqiqotda ham ijobiy natijalar kuzatilgan. Dastlabki normallashtirilmagan jadvalda 17% bo'lgan ma'lumot anomaliasi avtomatlashtirilgan yondashuvdan so'ng 3% ga tushgan va tizim samaradorligi 1,8 baravar oshgan. Bu holat avtomatlashtirilgan normallashtirish vositalari nafaqat aniqlikni, balki ish unumdorligini ham sezilarli oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar shuni tasdiqlaydiki, normallashtirish ma'lumotlar bazasining samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib, redundansni kamaytiradi, anomalialarni bartaraf etadi va tizimning umumiy ishlash sifatini yaxshilaydi. Ayniqsa avtomatlashtirilgan vositalar qo'llanilganda normalizatsiya jarayoni tezlashadi, xatoliklar kamayadi va saqlash resurslari optimallashtiriladi. Shu boisdan, zamonaviy katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi tizimlar uchun optimal normallashtirish darajasini tanlash va avtomatlashtirilgan usullardan foydalanish muhim hisoblanadi.

1-jadval. Tadqiqot natijalari jadvali

Tadqiqot/ Ma'lumotlar bazasi	Normal forma	Disk hajmi o'zgarishi	Tranzaksiya tezligi	Ma'lumot anomaliasi
IMDb (Postgres)	1NF → 2NF	-10%	4 baravar oshgan	—
IMDb (Postgres)	2NF → 4NF	+7%	—	—
RDBNorma	3NF	-50% xotira	2,89 baravar tezroq	Butunlik yaxshilanadi
MS Access, SQL Server, Oracle	1NF → 3NF	-20 — 30%	—	17–18% → 1,5–2%
AdventureWorks, 2017	Avtomatlashtirilgan	—	1,8 baravar oshgan	17% → 3%

Analiz va muhokama

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, normallashtirish jarayoni turli ma'lumotlar bazasi platformalarida bir xil ijobiy natija berishiga qaramay, optimal normal forma darajasi hamma holat uchun bir xil emas. IMDb, AdventureWorks va boshqa amaliy bazalar ustida o'tkazilgan tajribalar normalizatsiyaning nafaqat ma'lumotlar takrorlanishini qisqartirishi, balki energiya sarfini kamaytirishi, tranzaksiya samaradorligini oshirishi va xotira iste'molini ilmiy asosda sezilarli darajada optimallashtirishi mumkinligini tasdiqladi. Biroq ma'lumotlar soni ortgani sari yuqori normal formalarning foydasi pasayib, ayrim hollarda ortiqcha bo'lishi mumkin. Ayniqsa 4NF darajasida kuzatilgan qo'shimcha hajm



ortishi shuni ko'rsatadiki, chuqur normallashtirish har doim texnik samaradorlikni oshirmaydi.

Avtomatlashtirilgan vositalar (RDBNorma va AdventureWorks uchun qo'llanilgan yondashuvlar) natijalari shuni ko'rsatadiki, inson omili bilan bog'liq xatolar kamayadi, jarayonning tezligi bir necha baravar oshadi va murakkab funksional bog'lanishlarni qayta tashkil etish samaradorligi ancha yuqori bo'ladi. Bugungi kunda OTMlarda, ayniqsa katta hajmdagi talabalar ma'lumotlari bilan ishlanadigan tizimlarda, qo'l mehnatiga asoslangan normallashtirish amaliy jihatdan samarasiz bo'lib bormoqda. Bu holat avtomatlashtirilgan normalizatsiya algoritmlarini joriy etish zaruriyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, turli DBMSlarda (MS Access, SQL Server, Oracle, Postgres) o'tkazilgan tajribalar umumiy bir natijaga olib keladi: ma'lumotlar tarkibi murakkablashgan sari normallashtirishning ta'siri kuchayadi, ammo tizimning so'rovga ishlov berish uslubi, indekslash strategiyasi va tranzaksiya mexanizmlari yakuniy samaraga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli normallashtirishni baholashda faqat strukturaviy mezonlarga emas, balki DBMSning ichki arxitekturasiga ham e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida aytib o'tilgan tadqiqot natijalarini quyidagi formulalar yordamida tekshirishimiz mumkin bo'ladi:

Redundans kamayishini hisoblash:

$$R_k = \frac{D_{old} - D_{new}}{D_{old}} \times 100\%$$

Bu yerda:

D_{old} = normallashtirilmagan bazadagi redundant ma'lumotlar miqdori;

D_{new} = normallashtirilgan bazadagi redundant ma'lumotlar miqdori.

Tranzaksiya tezligining o'zgarishi:

$$S_t = \frac{T_{new}}{T_{old}}$$

Bu yerda:

T_{old} = avvalgi tranzaksiya vaqti;

T_{new} = normallashtirishdan keyingi tranzaksiya vaqti.

Disk hajmi o'zgarishi:

$$\Delta V = \frac{V_{new} - V_{old}}{V_{old}} \times 100\%$$

Bu yerda:

V_{old} = normallashtirilmagan jadval hajmi;

V_{new} = normallashtirilgan jadval hajmi.

$$A_r = \frac{A_{old} - A_{new}}{A_{old}} \times 100\%$$

Bu yerda:

A_{old} = 1NF dagi anomaliya foizi;

A_{new} = 3NF dagi anomaliya foizi.


So'rovlarning bajarilish samaradorligi AdventureWorks bazasida 1.8 marta o'sishi quyidagi formula orqali tekshirib olishimiz ham mumkin:

$$Q = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^m q_j$$

Ko'p tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

Optimal NF $\approx$ 2 NF yoki 3NF

Juda yuqori normalizatsiya (4NF va undan yuqori) har doim samarali bo'lmaydi, ba'zan disk hajmi ortishi va tranzaksiya samaradorligi kamayishi kuzatiladi. Avtomatlashtirilgan vositalar (RDBNorma, AdventureWorks) normalizatsiya jarayonini tezlashtiradi va inson xatosini kamaytiradi.



1-diagramma. Anomaliya va Redundans.

Taxminiy qiymatlar:

1NF: Redundans $\approx$ 25%, Anomaliya $\approx$ 17–18%

2NF: Redundans $\approx$ 12–15%, Anomaliya $\approx$ 6–8%

3NF: Redundans $\approx$ 3–5%, Anomaliya $\approx$ 1,5–2%

Grafikdan ko'rinib turibdiki, ma'lumotlar bazasi normallashtirish darajasi oshgani sari redundans va ma'lumot anomaliyalari keskin kamayadi. Ayniqsa



1NF dan 2NF ga o'tish bosqichida sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatiladi, bu funksional bog'lanishlarning to'g'ri ajratilishi bilan izohlanadi. 3NF darajasida esa redundans minimal qiymatga tushib, ma'lumotlar yaxlitligi deyarli to'liq ta'minlanadi. Shu bilan birga, grafik shuni ko'rsatadiki, 3NF dan yuqori normal formalarga o'tish (masalan, 4NF) har doim ham sezilarli qo'shimcha foyda bermaydi. Bu holat OTM talabalari ma'lumotlar bazalari uchun 2NF yoki 3NF darajasi amaliy jihatdan eng maqbul yechim ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, normalizatsiya nazariyasi nafaqat nazariy, balki juda amaliy qiymatga ega bo'lgan jarayondir. OTM talabalari ma'lumotlar bazasiga to'g'ri qo'llanilganda, tizimning aniqligi, ishlash tezligi va ma'lumotlar ishonchliligi bir necha barobarga oshadi. Ilmiy maqolalar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, normallashtirilgan ma'lumotlar bazasi ta'lim tizimlarining puxta va barqaror ishlashi uchun eng maqbul yechimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taipalus, T. (2025). *On the effects of logical database design on database size, query complexity, query performance, and energy consumption.*
2. Dongare, Y. V., Dhabe, P. S., & Deshmukh, S. V. (2011). *RDBNorma: A semi-automated tool for relational database schema normalization up to third normal form.*
3. Scientific.Net (2018). *Comparison between Normalized Databases Implemented with Different Database Systems.*
<https://www.scientific.net/AMR.774-776.1827>
4. Albarak, M., Alrazgan, M., & Bahsoon, R. (2017). *Identifying and Managing Technical Debt in Database Normalization Using Machine Learning and Trade-off Analysis*



Deep learning usullari va ularning kriptotahlil masalalarida qo‘llanilishi

Rahmatullayev Ilhom Raxmatullayevich,
Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni
rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
ilhom9001@gmail.com

Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti,
a_baxtiyor@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada chuqur o‘rganish (deep learning) texnikalarining zamonaviy kriptotahlil jarayonlarida qo‘llanilish imkoniyatlari nazariy va eksperimental jihatdan tahlil qilingan. An‘anaviy kriptotaliz usullari kalit, ochiq matn va shifr matni o‘rtasidagi murakkab chiziqli bog‘lanishlarni aniqlashni talab qilgani sababli yuqori hisoblash murakkabligiga ega. Deep learning esa xom ma‘lumotlar bilan bevosita ishlash, xususiyatlarni mustaqil ravishda ajrata olish va biaslarni avtomatik aniqlash kabi ustunliklari sababli kriptotizimlarning zaifliklarini topishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotda oqimli shifrlar — RC4, uning takomillashtirilgan varianti RC4A, shuningdek Trivium va TRIAD algoritmlarining hosil qilgan keystreamlari "qora quti" modeli asosida chuqur neyron tarmoqlar orqali tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Deep Learning, Chuqur O‘rganish, Neyron Tarmoqlar, Kriptotahlil, Oqimli Shifrlash, RC4, RC4A, Trivium, TRIAD, Black-Box Modeli, Keystream, Bias Aniqlash, Mashinali O‘qitish, Konvolyutsion Neyron Tarmoqlar (CNN), Rekurrent Neyron Tarmoqlar (RNN), LSTM, Differensial Kriptotaliz, Yon Kanal Tahlili, Kriptografiya.

I. Kirish.

An‘anaviy kriptotaliz usullari oddiy ma‘lumot (plaintext), kalit va tegishli shifr matni (ciphertext) orasidagi bog‘lanishni belgilovchi chiziqli akslantirishlarni keng qamrovda tahlil qilishni talab qiladi. Bu akslantirishlarni ifodalovchi funksiyalarning darajasi juda yuqori bo‘ladi va kriptotaliz ishini juda qiyinlashtiradi. Deep learning algoritmlari va samarali hisoblash resurslarining paydo bo‘lishi shifr ma‘lumotini qayta ishlanmagan ko‘rinishda (raw form) tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Shifrlashning asosiy tamoyili - tizimga tasodifiylik kiritish, ya‘ni shifr ma‘lumotida hech qanday bog‘liklik bo‘lmasligi kerak. Shu sababdan shifr ma‘lumotini qayta ishlanmagan ko‘rinishda tahlil qilish zarur. Deep learning algoritmlari an‘anaviy mashina o‘qitishdan farq qiladi: ular qayta ishlanmagan ma‘lumot bilan bevosita ishlaydi va alohida xususiyat (feature) tanlash yoki ajratish talab qilinmaydi.

Ushbu g‘oya va deep learning algoritmlarining shifr ma‘lumotiga mos kelishi taxmini asosida oqimli shifrlarda (stream ciphers) **black-box** (qora quti) tahlil modelida bias (tasodifiylikdan chetlanish) topish uchun deep learning usulini qo‘llash mumkin. Taklif qilingan usul maqsadi - oqimli shifr tomonidan yaratilgan keystream-ning aniq joyidagi chiqish bit/byte (output bit/byte) sodir bo‘lish ehtimolini bashorat qilishdir. Quyida ushbu yondashuvning RC4 va uning yaxshilangan varianti RC4A ustida sinab ko‘rishdan olingan natijalar batafsil muhokama qilinadi.

Shuningdek, taklif qilingan usul Trivium va TRIAD oqimli shifrlari ustida ham qo‘llab ko‘rilgan. Taklif qilingan yondashuv RC4 dagi og‘ishni (bias) aniqlay oladi, ammo uning yaxshilangan varianti (RC4A) hamda Trivium va TRIAD‘da bunday og‘ish mavjud emasligini ko‘rsatadi. RC4 ga e‘tibor qaratgan holda yondashuvni mavjud usullarga nisbatan yondashuv jihatidan va kuzatuvlar nuqtai nazaridan



solishtirib, taklif qilingan usul soddaroq va ekanligini ko'rish mumkin.

II. Metodologiya

Deep Learning - bu zamonaviy mashinali o'qitish usullarining yangi va tez rivojlanayotgan yo'nalishi bo'lib, uning asosini sun'iy neyron tarmoqlar (Artificial Neural Networks) tashkil etadi. Deep learning, ya'ni chuqur o'rganish tizimlari, Recurrent Neural Network (RNN), Deep Belief Network (DBN) hamda Convolutional Neural Network (CNN) kabi turli arxitekturalarga ega bo'lib, ular tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasini, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, kompyuter ko'rish tizimlari va boshqa murakkab masalalarni hal qilishda keng qo'llanadi [1,2]. Ushbu arxitekturalar ko'plab sohalarida yuqori natijalar ko'rsatib, ba'zi hollarda inson mutaxassislarining ko'rsatkichlaridan ham ustun bo'lgan. Deep learning'ning an'anaviy mashinali o'qitish algoritmlariga nisbatan asosiy ustunliklaridan biri - bu tasvirlash (representation learning) imkoniyatidir. Representation learning - xom ma'lumotlardan belgi (feature) aniqlash uchun zarur bo'lgan tasvirlarni avtomatik yaratishga qaratilgan metodlar sinfidir. Mazkur yondashuv mashinali o'qitish vazifalari (tasniflash, regressiya va boshqalar) uchun kirish ma'lumotlarini kompyuter tomonidan samarali qayta ishlashini mumkin bo'lgan shaklga keltirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, deep learning - bir nechta yashirin qatlamlarga ega sun'iy neyron tarmoqlar yordamida xom kirish ma'lumotlaridan mazmunli xususiyatlarni o'rganishga mo'ljallangan algoritmlar majmuasidir.

Kriptotahlil bo'yicha ko'plab mustahkam va yaxshi ishlab chiqilgan usullar mavjud. Biroq bu usullarning amaliy qo'llanishida eng muhim bosqich - shifrlash algoritmidagi ichki zaiflikni topish va undan foydalanib hujumni amalga oshirishdir. Bu jarayon juda murakkab bo'lib, ko'pincha yuqori darajadagi matematik bilimlar va katta hisoblash resurslarini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan deep learning metodlarining xom ma'lumotlardan avtomatik tarzda xususiyat ajratish imkoniyati kriptotahlilni eng muhimi - zaiflikni aniqlash bosqichida sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin.

Oqimli shifrlar uchun generatsiya qilinadigan gamma ketma-ketligi (keystream) mutlaqo og'ishlarsiz bo'lishi shart. Agar unda statistik og'ishlar yoki korrelyatsiyalar mavjud bo'lsa, tahlilchi ushbu og'ishlardan foydalanib kalit yoki ochiq ma'lumot haqida qisman yoki to'liq bilimga ega bo'lishi mumkin. Shu bois, murakkab kriptotahliliy usullarni qo'llashdan avval deep learning asosidagi avtomatik tahlil yordamida bunday og'ishlarni aniqlab olish alohida ahamiyatga ega.

Mashinali o'qitish, ayniqsa deep learning'ning kriptografiyaga qo'llanilishi ilmiy adabiyotlarda uzoq vaqt davomida juda chegaralangan tarzda o'rganib kelingan. Rivestning mashhur tadqiqotlaridan birida mashinali o'qitish va kriptotahlil "opa-singil sohalar" sifatida tasvirlanadi, chunki ikkisi ham kirish-chiqish juftliklariga asoslangan noma'lum funksiyani o'rganishni maqsad qiladi [4].


So'nggi yillarda ushbu yo'nalish bo'yicha sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Masalan, Abadi va Andersen neyron tarmoqlar ko'p agentli tizimda boshqa neyron tarmoqlardan axborotni himoya qilish uchun maxfiy kalitlardan foydalanishni o'rganishi mumkinligini amaliy jihatdan ko'rsatdi [5]. Hesamifard va hammualliflar shifrlangan ma'lumotlar ustida chuqur neyron tarmoqlarni ishga tushirish uchun yangi maxfiylikni ta'minlovchi metodlarni ishlab chiqdi [6]. Picek va hamkorlar konvolyutsion neyron tarmoqlarning yon kanal tahlili (side-channel analysis) uchun samaradorligini tajribaviy tekshirib, deep learning boshqa mashinali o'qitish usullariga qaraganda bu sohada ko'proq ustunlikka ega bo'lishi mumkinligi haqidagi muhim savolni ilgari surdi [7]. Wang AES blok shifriga nisbatan chuqur o'rganish asosidagi yon kanal tahlilini amalga oshirdi [8]. Yengil blokli shifrlashning rivojlanishida Gohr tomonidan taklif etilgan yondashuv alohida ajralib turadi [9]. U Speck32/64 shifrining qisqartirilgan raundlariga nisbatan chuqur o'rganish bilan kuchaytirilgan yaxshilangan kriptotahliliy hujumlarni taklif qildi [10]. Bu [9] ish neyron tarmoqlarni klassik kriptotahlil usullari bilan birlashtirishning birinchi y katta maqsadli namunasi bo'lib, mavjud natijalardan yaxshiroq samaradorlikka erishdi. Ushbu yo'nalish keyinchalik



Baksi va boshqalar, Jain va boshqalar [2] hamda Yadav va boshqalar [3] tomonidan davom ettirilgan va differensial kriptotahlilning mashinali o‘qitish bilan birlashtirilganda sezilarli darajada samarali bo‘lishi isbotlangan. Yaqinda Xiao va hammualliflar shifr kuchini neyron tarmog‘ining ushbu shifrlagichni taqlid qila olish qiyinligi orqali miqdoriy baholash metodini ishlab chiqdi. Ular shifrlagich moslik darajasi, o‘qitish ma’lumotlari murakkabligi, o‘qitish vaqti murakkabligi kabi yangi metrikalarni taklif qildi. Tadqiqot natijalari mashhur avtomobil xavfsizligida qo‘llaniladigan Hitag2 oqimli shifri hatto uch raundli DES shifridan ham zaifroq ekanligini ko‘rsatdi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda kriptografiya bo‘yicha ilmiy jamoa deep learning’ni kriptografiyaga tatbiq etish bo‘yicha faol va chuqur tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu yo‘nalish kelajakda yanada kengayishi va zamonaviy kriptotahlilning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lishi kutilmoqda.

III.Asosiy qism

Ushbu ishda chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuv taklif etiladi. Taklif etilgan metod deep learning texnikalarining afzalliklariga mos keladi, chunki bu texnikalarda xususiyatlarni ajratish yoki xususiyatlarni tanlash (feature extraction/feature selection) jarayonlari talab etilmaydi. Aks holda, bunday bosqichlar har qanday matematik, statistik yoki analitik usullarda chetlab o‘tilmaydi. Chuqur o‘rganish esa zarur bo‘lgan xususiyatlarni xom ma’lumotlardan bosqichma-bosqich o‘zi o‘rganib boradi. Taklif etilgan yondashuv masalani “qora quti” (black-box) ssenariysi sifatida ko‘rib chiqadi (1-rasm).



1-rasm. Taklif qilingan usul uchun “Qora quti” tahlil modeli

“Qora quti” qurilmasi uning ichki mexanizmlaridan xabarsiz holda faqat kirish va chiqishlari orqali tavsiflanadigan tizim sifatida talqin qilinadi. Bizning tajribalarimizda oqimli shifr algoritmi qora quti sifatida qabul qilinadi va masala klassifikatsiya vazifasi ko‘rinishida qo‘yiladi. Maqsad - berilgan kirishdan foydalanib, chiqishning ma’lum bir pozitsiyasidagi qiymatni bashorat qilishdir. Taklif etilgan yondashuvning tajriba natijalaridan olingan xulosalar quyidagilardan iborat:

- tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oqimli shifrlarni tahlil qilish uchun chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuv mavjud usullarga nisbatan ancha sodda va afzalliklarga ega.
- taklif etilgan metodning RC4 oqimli shifri va uning yaxshilangan turi — RC4A bo‘yicha keng qamrovli tahlil orqali tasdiqlanishi chuqur o‘rganish yondashuvlarining shifrlash ma’lumotlarini qayta ishlashda qo‘llanishini amalda isbotlaydi.
- olingan samaradorlik natijalari ushbu yondashuvning boshqa oqimli shifrlarga umumlashtirilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Chuqur o‘rganish usullari (Deep Learning Methods)

Chuqur o‘rganish - bu sun‘iy neyron tarmoqlarining bir nechta qatlamlarini ketma-ket qo‘llab, xom kirish ma’lumotlaridan yuqori darajadagi xususiyatlarni ajratib olishga mo‘ljallangan mashinani o‘rganish algoritmlari sinfi hisoblanadi [4]. Masalan, tasvirlarni qayta ishlashda dastlabki pastki qatlamlar chetlarni aniqlasa, yuqori qatlamlar raqamlar, harflar yoki yuzlar kabi mazmunli xususiyatlarni ajratadi. 2-rasmda kirish va chiqish qatlamlari hamda bir nechta oraliq yashirin qatlamlardan iborat umumiy chuqur o‘rganish (deep learning) arxitekturasini ko‘rsatilgan.

Neyron tarmoqlarda gradientning yo‘qolishi muammosi [5] va hisoblash cheklovlari sababli bir necha yil oldin ko‘p qatlamli neyron tarmoqlarini o‘qitish imkonsiz yoki hisoblash jihatdan qiyin bo‘lgan. Biroq so‘nggi o‘n yillikda GPU (Graphical Processing Unit) va Google tomonidan TPU (Tensor




Processing Unit) kabi kuchli hisoblash vositalarining rivojlanishi hamda klassik sigmoid funksiyasi o'rniga ReLU (Rectified Linear Unit) faollashtirish funksiyasining joriy etilishi tufayli neyron tarmoqning bir nechta yashirin qatlamlarini qo'llash mumkin bo'ldi [6]. ReLU va Sigmoid faollashtirish funksiyalari mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$f(x) = \max(0, x), g(x) = \frac{1}{1+e^{-x}}.$$

Kirish qatlamida xom ma'lumot qabul qilinadi, oraliq yashirin qatlamlar esa faollashtirish funksiyasidan foydalanib ma'lumotlarni bosqichma-bosqich qayta ishlaydi. Chiqish qatlamida esa odatda yakuniy tasniflash uchun Softmax funksiyasi qo'llanadi. Softmax funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$F(X)_i = \frac{e^{x_i}}{\sum_k e^{x_k}}, i = 0, 1, 2, \dots, k$$

bu yerda k mumkin bo'lgan chiqishlar sonini bildiradi. Kirish va chiqish qatlamlari orasiga ko'p yashirin qatlamlarni qo'yish tarmoqlarga kirish ma'lumotlarini mos keluvchi chiqish ma'lumotlariga abstrakt tarzda xaritalashni o'rganishga imkon beradi.



2-rasm. Umumiy chuqur o'rganishning (Deep Learning) arxitekturası

Eng mashhur chuqur o'rganish texnikalaridan ba'ziları quyidagilar: Konvolyutsion Neyron Tarmoqlari (CNN), Rekurrent Neyron Tarmoqlari (RNN) va Uzun-Qisqa Muddatli Xotira tarmoqlari (LSTM) [7].

Oqimli shifrlash algoritmlarining qisqacha tavsifi

Simmetrik kalitli kriptografiya blokli shifrlash va oqimli shifrlash algoritmlaridan iborat. Oqimli shifrlashda boshlang'ich kalit (odatda maxfiy kalit deb yuritiladi) asosida kerakli uzunlikdagi kalit oqimi

(keystream) hosil qilinadi. Ushbu kalit oqimi so'ngra (odatda XOR amali orqali) ochiq matn bitlari bilan birlashtirilib, shifrlangan matn (ciphertext) hosil qilinadi.

Zamonaviy kriptografiyaning dastlabki davrlarida oqimli shifrlash algoritmlari blokli shifrlashga nisbatan soddaligi va yuqori tezligi tufayli keng qo'llanilgan. Oqimli shifrlash yuqori o'tkazuvchanlik talab qilinadigan yoki past murakkablikdagi apparat resurslari mavjud bo'lgan tizimlarda afzal variant bo'lib kelgan.

Kriptografiyaning asosiy talablari nuqtai nazaridan, oqimli shifrlash algoritmi chiqishdagi kalit oqimining tasodifiylik xususiyatlarini ta'minlashi lozim. Buni amalga oshirish mezonlaridan biri — oqimli shifrlagich tomonidan hosil qilingan har bir bayt pozitsiyasida 0 dan 255 gacha bo'lgan har qanday qiymatning paydo bo'lish ehtimoli teng bo'lishidir. Ya'ni har bir qiymatning paydo bo'lish ehtimoli $1/256$ bo'lishi kerak. Agar ma'lum bir bayt pozitsiyasida qiymatlarning paydo bo'lish ehtimoli bundan sezilarli darajada farq qilsa, kalit oqimida og'ish (bias) mavjud deb hisoblanadi.

Bunday statistik og'ish oqimli shifrlagichni kriptotahlilga nisbatan zaiflashtiradi.

IV. Natijalar

RC4 oqimli shifrlash algoritmi keystreamni baytma-bayt iterativ tarzda hosil qiladi. Yaratuvchilari RC4 tomonidan hosil qilinadigan oqim psevdotasodifiy xususiyatlarga ega ekanini ta'kidlagan. Shifrlash jarayonida ochiq matn baytlari keystream baytlari bilan XOR qilinadi. Xuddi shu amal teskari yo'nalishda bajarilib, shifrdan ochish (decryption) amalga oshiriladi — ciphertext baytlari keystream baytlari bilan bitma-bit XOR qilinadi.

RC4 algoritmi ikki asosiy bosqichdan iborat:

- KSA (Key Scheduling Algorithm) — boshlang'ich holatni (state) kalit asosida aralashtiradi.
- PRGA (Pseudo Random Generation Algorithm) — psevdotasodifiy baytlar oqimini generatsiya qiladi.



Algoritmning rasmiy tavsifi 1-algoritmida keltirilgan, RC4 oqimli shifrlagichining soddalashtirilgan tuzilmasi esa 2-rasmda ko'rsatilgan.

RC4 oqimli shifrlash algoritmi bo'lib, u SSL(Secure Sockets Layer) protokoli va WEP (simsiz tarmoqlarda xavfsizlikni ta'minlashda) keng foydalaniladi. RC4 oqimli shifrlash algoritmi Ron Rivest tomonidan 1987-yilda yaratilgan va shuning uchun RC4(Rivest Cipher 4) deb nomlangan.

RC4 psevdotasodifiy bitlar ketma-ketligini hosil qiladi va quyidagi ikki qismdan iborat bo'lgan maxfiy oraliq holatidan foydalaniladi:


- barcha mumkin bo'lgan 256 baytning joylashishdagi o'rni(S ni topish);
- ikkita 8 – bitli indekslar (i va j larni topish).

Baytlarning kelish tartibi kalit uzunligi bilan amalga oshiriladi, odatda 40-256 bit oralig'ida bo'lib, kalit jadvali(key-scheduling) algoritmi orqali hosil qilinadi. Bu jarayon tugagandan so'ng psevdotasodifiy sonlar generatori algoritmi yordamida bitlar ketma-ketligi hosil qilinadi.

Kalit jadvali algoritmi quyidagicha:

```
for i from 0 to 255
  S[i]:=i
endfor
j:=0
for i from 0 to 255
  j := (j + S[i] + key[i mod keylength]) mod 256
  swap values of S[i] and S[j]
endfor
```

Psevdotasodifiy sonlar generatori algoritmi orqali hosil bo'lgan ketma-ketlik tanlangan $S(i)$ va $S(j)$ o'zgaruvchilarni $\text{mod}256$ bo'yicha qo'shishdan hosil bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. RC4 generatori almashtirishi

Psevdotasodifiy sonlar generatori algoritmi quyidagicha:

```
i := 0
j := 0
while GeneratingOutput:
  i := (i + 1) mod 256
  j := (j + S[i]) mod 256
  swap values of S[i] and S[j]
  k := inputByte XOR S[(S[i] + S[j]) mod 256]
  output K
endwhile
```

Algoritmida i o'zgaruvchini qiymati ortishi bilan hosil bo'lgan baytlar soni ham ortib boradi.

Bu yerda almashtirish funksiyasi $swap$ quyidagi ko'rinishga ega:

```
byte temp = array[ind1];
array[ind1] = array[ind2];
array[ind2] = temp;
```

Ushbu generator kriptobardoshli sanalib, xususiyati kiruvchi kalit tasodifiylik darajasi bilan belgilanadi. Hozirda ushbu algoritmning bir nechta variantlari mavjud bo'lib (RC4A, VMPC, RC4+), ularda dastlabkilarida mavjud kamchiliklar bartaraf etilgan.

4.1.2. O‘rmon xo‘jaligida sun‘iy intellekt yordamida zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash. Turli biotik (tirik organizmlar ta’siri) va abiotik (atrof-muhit omillari) sabablar bilan yuzaga keladigan o‘rmon zararkunandalari va kasalliklari daraxtlarning sog‘lom o‘sishi va mahsuldorligiga jiddiy tahdid soladi [12]. Zamonaviy sun‘iy intellekt (AI) yechimlari, ayniqsa chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlari, kompyuter ko‘rish (computer vision) va spektral tasvirlash texnologiyalarini qo‘llash orqali zararkunandalarni aniqlash usullarini tubdan o‘zgartirdi. Masalan, qarag‘ay yog‘och nematodlarini aniqlash uchun Faster R-CNN va YOLOv4 modellarini ko‘p spektrli UAV (uchuvchisiz uchish apparati) ma‘lumotlari bilan integratsiya qiluvchi tizim ishlab chiqilgan (3-rasmda ko‘rsatilganidek). Ushbu ma‘lumotlar DJI Phantom 4 droni orqali yig‘ilgan va so‘ngra chuqur o‘rganish modeliga yuborilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qarag‘ay yog‘och nematodi kasalligini erta aniqlash aniqligi 3,72% dan 4,29% gacha oshgan - ya‘ni 42,36% → 44,59% va 46,08% → 48,88% oralig‘ida yaxshilanish kuzatilgan. Xuddi shunday, giperspektral (HSI) va multispektral (MSI) tasvirlash tizimlari mashinali o‘qitish algoritmlari bilan birgalikda “gollandiya karaqali kasalligi (Dutch elm disease)”ni aniqlashda yuqori samaradorlikni namoyish etdi. Eng yaxshi natijalar infeksiyadan 15

hafta o‘tgach, kasallik belgilari ko‘rinadigan davrda kuzatildi. Ushbu yondashuv turli karaqali turlar va turli ekologik sharoitlarda keng qo‘llanilishi mumkin [14]. Ushbu texnologik yutuqlar o‘rmon patogenlarini erta va aniq aniqlashni ta‘minlab, ekologik hamda iqtisodiy zararlarni kamaytirishga qaratilgan faol boshqaruv strategiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.



3-rasm. Qarag‘ay yog‘och nematodini aniqlashning sxematik diagrammasi.

Ko‘p spektrli ma‘lumotlarni olish uchun DJI Phantom 4 droni bilan jihozlangan.

4.2. Sun‘iy intellekt asosida falokatdan keyingi ekologik tiklanishni baholash

Masofaviy zondlash va mashinali o‘qitish texnologiyalarining integratsiyasi falokatdan keyingi baholash va tiklanish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib yubordi [14]. Ko‘p miqyosli, ierarxik yondashuvni qo‘llash orqali Sentinel-1 sun‘iy yo‘ldoshining sintetik aperturali radar (SAR) tasvirlari OpenStreetMap kraudsorsing (ommaviy foydalanuvchilar tomonidan yig‘ilgan) ma‘lumotlari bilan birlashtirildi. Natijada, sun‘iy intellekt asosidagi tizim yuqori samaradorlik bilan avtomatlashtirilgan zarar baholashni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sensor ma‘lumotlar oqimining 30% qismi uzilgan holatlarda ham, modelning F1 ko‘rsatkichi dispersiyasi minimal darajada saqlanadi. Mazkur texnologiya zarar ko‘rgan hududlarni aniqlash aniqligini oshirish bilan birga, tiklanish resurslarini optimal taqsimlash va iqlim o‘zgarishlariga moslashuv strategiyalarini kuchaytirish imkonini beradi. Ushbu innovatsion yondashuv ekologik tiklanish jarayonlarini tezlashtirib, o‘rmon ekotizimlarining kelajakdagi atrof-muhit tahdidlariga nisbatan barqarorligini oshiradi. Shu tariqa, u falokatlarga javob berish va barqaror o‘rmon xo‘jaligini boshqarish sohalarida muhim texnologik burilish bosqichini anglatadi.



5. O'rmonlarda uglerod yutilishi va barqaror boshqaruv innovatsiyalari

5.1. O'rmonlarning uglerodni yutish tizimlarining muhim roli

O'rmonlarning uglerodni yutish salohiyati iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda, ekologik muvozanatni saqlashda, biologik xilma-xillikni himoya qilishda va iqtisodiy foyda yaratishda ko'p qirrali ahamiyatga ega. Masalan, mangrov o'rmonlari, sohilbo'yi "ko'k uglerod" tizimlarining asosiy tarkibiy qismi sifatida, uglerodni yutish bo'yicha favqulodda yuqori salohiyat ko'rsatadi - ularning bir gektardagi uglerod zaxirasi tropik yomg'ir o'rmonlarinikidan 3–5 baravar yuqori bo'lishi mumkin. Bunday ustunlik ularning o'ziga xos suv to'liqini oralig'idagi ekotizim xususiyatlariga bog'liq: chuqur ildiz tizimi suvdagi zarralarni samarali ushlab qoladi, kislorodsiz tuproq sharoiti esa organik moddalarning parchalanish jarayonini sekinlashtiradi, natijada uglerod ming yillik vaqt masshtablarida saqlanib qoladi. Ilmiy asoslangan o'rmon xo'jaligi boshqaruvi va ko'kalamzorlashtirish choralari uglerod yutilish salohiyatini sezilarli darajada oshirib, global iqlim barqarorligi va barqaror rivojlanish maqsadlariga katta hissa qo'shadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy zondlash ma'lumotlari, relyef modeli ma'lumotlari va toj balandligi modeli (CHM)ni integratsiya qilish o'rmonlardagi uglerod dinamikasini aniqroq baholash imkonini beradi. Mangrov ekotizimlarining o'ziga xos uglerod yutilish xususiyatlarini hisobga olgan holda, LiDAR texnologiyasi va WorldView-2 sun'iy yo'ldosh tasvirlarini birgalikda qo'llash yer usti biomassa (AGB) ning millimetr aniqligida uch o'lehamli tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu integratsiya har ikkala manbani alohida qo'llashdan ko'ra aniqroq biomassa bahosi va samaraliroq saqlash strategiyalarini ta'minlaydi.

Biomassa hisoblash formulasi (LiDAR ma'lumotlari asosida):

$$B = \alpha \cdot H + \beta \cdot D + \gamma$$

B – daraxt biomassa miqdori (kg yoki tonna)

H – daraxt balandligi (m)

D – ko'krak balandligidagi diametr (DBH, sm)

α, β, γ – empirik koeffitsiyentlar (hududiy o'rmon turlariga mos ravishda aniqlanadi)

Ko'p spektrli tasvirlash (multispectral imaging) suv to'liqlari ostidagi o'simliklarning sog'lomligini kuzatishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Bu esa differensial o'rmon boshqaruvi siyosatlarini va iqlim o'zgarishlariga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Biroq, tadqiqotlar hozirgi vaqtda tuproqning batafsil ma'lumotlari yetishmasligini muhim cheklov sifatida ta'kidlamogda. "Uglerod yutilish qora qutisi" deb ataladigan mangrov ekotizimlarida, cho'kma qatlamlaridagi qadimiy organik uglerod oqimlari hamda sulfat kamayishining metan chiqindilariga tormozlovchi mexanizmlari hali to'liq o'lchab bo'lingan emas. Kelgusidagi tadqiqotlar tuproqning fizik-kimyoviy xossalari va gidrologik jarayonlarning o'zaro ta'sirini yanada chuqurroq o'rganishi lozim. Bu suvli sohil ekotizimlarida uglerod yutilish dinamikasini aniqlash va baholash aniqligini oshirishga, shuningdek uglerod saqlash tizimlarining ishonchligini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA

Sun'iy intellekt (AI) va o'rmon xo'jaligining integratsiyasi - ma'lumotga asoslangan ekotizim boshqaruvi bilan tavsiflanadigan yangi davrning boshlanishini anglatadi. So'nggi yillarda ekologik monitoring, falokatlarini boshqarish va uglerod yutilish tizimlarida o'lchab bo'ladigan sezilarli natijalarga erishildi. Shuningdek, Yer usti va mobil lazerli skanerlash tizimlari (TLS/MLS) ni Sentinel-2 ma'lumotlari bilan birlashtirish orqali noqonuniy daraxt kesish holatlarini real vaqt rejimida aniqlash ($F1$ ko'rsatkich = 0,92) imkonini beruvchi tizimlar mavjud. Bunday tizimlar mavjud o'rmon kuzatuv infratuzilmalariga integratsiya qilinishi mumkin. Bundan tashqari, dorivor o'simliklarni aniqlash tizimi uchun har bir turdan atigi 15–20 namunalar talab qilinadi va u Janubi-Sharqiy Osiyodagi biologik xilma-xillik markazlarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan. Uzoq muddatli istiqbolda esa kvant LiDAR tizimlarini ishlab chiqish zarur - bu turdagi sensorlar har qanday ob-havo sharoitida monitoring olib borish imkonini beradi va bulutli hududlar sababli yuzaga keladigan cheklovlarni bartaraf etadi. Bundan



tashqari, federativ o‘rganish tizimini joriy etish orqali AI modellarining turli mintaqalarga moslashuvchanligini oshirish mumkin. “30×30” global tashabbusi kabi xalqaro dasturlar faollashib borar ekan, ushbu tadqiqot sun‘iy intellektidan foydalanib barqaror va kengaytiriladigan o‘rmon boshqaruviga erishish uchun yo‘l xaritasini taqdim etadi. Shu bilan birga, tabiiy ekotizimlarda texnologiyalarni joriy etish uchun axloqiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chen H., Zeng Z., Wu J., Peng L., Lakshmi V., Yang H., Liu J. 21-asr boshlarida keng qo‘llaniladigan global yer qoplamasi ma’lumotlar to‘plamlarida o‘rmon maydonlari o‘zgarishining katta noaniqligi. Remote Sensing (Masofaviy zondlash), 2020; 12:3502. DOI: [10.3390/rs12213502](https://doi.org/10.3390/rs12213502)
2. Repo A., Albrich K., Jantunen A., Aalto J., Lehtonen I., Honkaniemi J. Turli o‘rmon boshqaruvi strategiyalari: Iqlim o‘zgarishi va tabiiy buzilish sharoitlarida biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlariga ta’siri. Journal of Environmental Management (Atrof-muhitni boshqarish jurnali), 2024; 371:123124. DOI: [10.1016/j.jenvman.2024.123124](https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2024.123124)
3. Windisch M.G., Humpenöder F., Merfort L., Bauer N., Luderer G., Dietrich J.P., Heinke J., Müller C., Abrahão G., Lotze-Campen H. va boshqalar. Iqlim maqsadlarining iqtisodiy barqarorligi uchun o‘rmonlarning doimiyligini ta’minlash strategiyasi. Nature Communications (Tabiat aloqalari), 2025; 16:2460. DOI: [10.1038/s41467-025-57607-x](https://doi.org/10.1038/s41467-025-57607-x)
4. Wang G.G., Lu D., Gao T., Zhang J., Sun Y., Teng D., Yu F., Zhu J. Iqlim o‘zgarishiga moslashuv va yumshatish uchun sun‘iy intellekt asosidagi barqaror o‘rmon boshqaruvi yechimi. Journal of Forestry Research (O‘rmon tadqiqotlari jurnali), 2024; 36:7. DOI:[10.1007/s11676-024-01802-x](https://doi.org/10.1007/s11676-024-01802-x)
5. Sarkissian A.J., Kutia M. Tahririy maqola: Iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror o‘rmon boshqaruvi – biologik xilma-xillikni saqlash va o‘rmonlarni tiklashga e’tibor. Frontiers in Forests and Global Change (O‘rmonlar va global o‘zgarishlar jurnali), 2024; 7:1533425.
6. Li Y., Zhang T., Ding Y., Wadhwani R., Huang X. Yovvoyi o‘rmon yong‘inlarini boshqarishda raqamli egizak tizimlari (Digital Twin Systems): tahlil va istiqbollari. Journal of Forestry Research (O‘rmon tadqiqotlari jurnali), 2024; 36:14. DOI: [10.1007/s11676-024-01810-x](https://doi.org/10.1007/s11676-024-01810-x)

7. Freire J.G., DaCamara C.C. Yong‘in tarqalishini modellashtirish va boshqaruvda yordam berish uchun hujayraviy avtomatlar (cellular automata)dan foydalanish. Natural Hazards and Earth System Sciences (Tabiiy xavflar va yer tizimi fanlari), 2019; 19:169–179. DOI: [10.5194/nhess-19-169-2019](https://doi.org/10.5194/nhess-19-169-2019)
8. Zhang Y., Meng W., Yuan X., Yang F., Wang H. Megapolis ekotizimlarida uglerod yutilish xaritalari: eksperimental aniqlik bahosi va sun‘iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida GEE platformasida tahlil. International Journal of Environmental Science and Technology (Atrof-muhit fanlari va texnologiyalari xalqaro jurnali), 2024; 1–20. DOI: [10.1007/s13762-024-06031-7](https://doi.org/10.1007/s13762-024-06031-7)
9. Boboqulov A.D., To‘xtasinov A.I. “Uchuvchisiz uchish apparatlari ma’lumotlari asosida o‘rmon ekotizimlarida daraxtlarni segmentatsiyalash”. Oktyabr/10 Development of science Volume/1, ISSN 3030-3907. -268-274 b.
10. Nazarova G.N., Boboqulov A.D. “Uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida o‘rmon xo‘jaligini monitoring qilish”. Raqamli transformatsiyalash jarayonida muhandislik sohalari va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish: muammo va yechimlar 639-643 b.
11. Boboqulov A.D. “Hududiy o‘rmon xo‘jaligi kompleksi resurslarini boshqaruv tizimini rivojlantirish omillari”. Raqamli Transformatsiya va Sun‘iy Intellekt ilmiy jurnali VOLUME 3, ISSUE 3, JUNE 2025 ISSN: 3030-334.
12. Boboqulov A.D. “Forest Management System Based on Geospatial Information Resources” in Volume 05 Issue04 April 2025. ARTICLE DOI:- https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume05Issue04-09.
13. Boboqulov A.D. “Ecological and economic classification of regional forest resources as a basis for their evaluation”. SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805 eISSN:2394-6334 https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd. Volume 12, issue 05 (2025).
14. Wei X., Zhang J., Conrad A.O., Flower C.E., Pinchot C.C., Hayes-Plazolles N., Chen Z., Song Z., Fei S., Jin J. Machine Learning-based Spectral and Spatial Analysis of Hyper- and multi-spectral Leaf Images for Dutch Elm Disease Detection and Resistance Screening. Artif. Intell. Agric. 2023;10:26–34. doi: 10.1016/j.aiia.2023.09.003. [DOI] [Google Scholar].



AVTONOM TIZIMLAR VA ROBOTOTEXNIKADA REAL VAQT AI YECHIMLARI

Ergashev Otabek Mirzapo‘latovich,
Muhandislik falsafa doktori (PhD)
Email: ergashev1984otabek@gmail.com

Ismoilov Islomjon Vohidjon o‘g‘li,
Farg‘ona Davlat Texnika Universitetining
birinchi kurs magistri
Email: islomjonismoilov0701@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola avtonom tizimlar va robototexnikada real vaqt sun‘iy intellekt (AI) yechimlarini tahlil qiladi. Tadqiqot robotlar va avtonom qurilmalarda tezkor ma‘lumot qayta ishlash, sensor signallarini real vaqt rejimida analiz qilish va qaror qabul qilish jarayonlariga qaratilgan. Real vaqt AI algoritmlari, jumladan mashinani o‘rganish va chuqur neyron tarmoqlar, robotlarning harakatini optimallashtirish, xavfsizlikni oshirish va atrof-muhit bilan samarali o‘zaro aloqani ta‘minlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari sanoat robotlari, avtomatlashtirilgan transport va aqlli ishlab chiqarish tizimlari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Avtonom tizimlar, Robototexnika, Real vaqt AI, Mashinani o‘rganish, Chuqur neyron tarmoqlar, Sensor integratsiyasi, Qaror qabul qilish algoritmlari, Model-predictive control, Xavfsizlik, Aqlli ishlab chiqarish.

Kirish

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi avtonom tizimlar va robototexnika sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Avtonom robotlar murakkab va dinamik muhitlarda mustaqil ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etilmoqda. Bunday tizimlar real vaqt rejimida katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlashi zarur. Sensorlardan kelib tushadigan axborotlar tezkor va aniq tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy boshqaruv algoritmlari real vaqt cheklovlari sharoitida yetarli darajada samarali ishlay olmaydi. Shu sababli, real vaqt sun‘iy intellekt yechimlari robototexnikada asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mashinani o‘rganish algoritmlari robotlarga tajribadan o‘rganish imkonini beradi. Chuqur neyron tarmoqlar murakkab muhitni idrok etishda yuqori aniqlikni ta‘minlaydi. Real vaqt AI texnologiyalari robotlarning moslashuvchanligini oshiradi. Bu yondashuvlar harakatni rejalashtirish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Natijada tizimlarning ishonchliligi va samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Shu jihatlar real vaqt AI yechimlarini chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. [1]

Avtonom tizimlar sanoat, transport va ishlab chiqarish sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Sanoat robotlari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Avtomatlashtirilgan transport tizimlari inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday tizimlarda xavfsizlik eng ustuvor talab hisoblanadi. Real vaqt AI algoritmlari xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Sensor integratsiyasi atrof-muhitni to‘liq idrok etishni ta‘minlaydi. Bir nechta sensorlardan olingan ma‘lumotlar yagona tizimda qayta ishlanadi. Model-predictive control usullari harakatni optimal boshqarishga yordam beradi. Qaror qabul qilish jarayoni real vaqt cheklovlariga moslashtiriladi. Bu esa tizimning tezkor javob berish qobiliyatini oshiradi. Aqlli ishlab chiqarish tizimlari resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Shu sababli, real vaqt AI yechimlari zamonaviy robototexnikaning ajralmas qismiga aylanmoqda. [2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ushbu tadqiqotda avtonom tizimlar va robototexnikada real vaqt sun‘iy intellekt yechimlarini o‘rganish uchun tizimli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy tahlil va amaliy



modellashtirish bosqichlaridan iborat bo'ldi. Avvalo, real vaqt AI sohasiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganildi. Robototexnikada qo'llanilayotgan mashinani o'rganish algoritmlari tahlil qilindi. Chuqur neyron tarmoqlarning real vaqt rejimida ishlash imkoniyatlari baholandi. Konvolyutsion neyron tarmoqlar vizual ma'lumotlar uchun tanlab olindi. Rekurrent neyron tarmoqlar vaqt ketma-ketliklarini tahlil qilishda qo'llanildi.

1-jadval. Real vaqt AI algoritmlari va ularning qo'llanilishi

#	Algoritm / Yondashuv	Tavsif	Qo'llanish sohasi
1	Convolutional Neural Network (CNN)	Vizual ma'lumotlarni qayta ishlash, ob'ektlarni aniqlash	Robot vizual tizimlari
2	Recurrent Neural Network (RNN)	Vaqt ketma-ketliklarini tahlil qilish, harakatni bashorat qilish	Harakat prognozi, sensor ma'lumotlari
3	Model-Predictive Control (MPC)	Optimal harakatni rejalashtirish, cheklovlarni hisobga olish	Robot harakat boshqaruvi
4	Sensor Fusion / Kalman Filter	Bir nechta sensorlardan ma'lumotlarni birlashtirish va shovqinni kamaytirish	Avtonom tizimlar, xavfsizlik
5	Reinforcement Learning (RL)	Robot tajribadan o'rganadi, qaror qabul qilishni optimallashtiradi	Avtonom boshqaruv, o'rganish
6	Deep Visuomotor Policy	End-to-end vizual ma'lumotdan harakat signallarini ishlab chiqish	Avtonom robotlar, manipulyatorlar

Algoritmlarning hisoblash murakkabligi alohida ko'rib chiqildi. Real vaqt cheklovlariga moslashish darajasi aniqlab olindi. Har bir modelning javob berish vaqti o'lchandi. Samaradorlikni taqqoslash usuli asosiy baholash mezon bo'ldi. Natijada eng maqbul AI yondashuvlari aniqlandi. Tadqiqotning keyingi bosqichida sensor integratsiyasi metodlari ishlab chiqildi. Avtonom tizimlarda turli xil sensorlardan foydalaniladi. Kameralar vizual ma'lumotlarni olish uchun tanlandi. Lazerli skanerlar masofa va to'siqlarni aniqlashda ishlatildi. Inertsia o'lchov birliklari harakatni aniqlash uchun qo'llanildi. Sensorlardan kelgan ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'ildi. Ma'lumotlarni sinxronlashtirish jarayoni alohida algoritmlar orqali amalga oshirildi. Sensor signallaridagi shovqinlar filtratsiya qilindi. Sensor fusion usullari yordamida ma'lumotlar birlashtirildi. Kalman filtri asosiy integratsiya usuli sifatida tanlandi. Integratsiyalangan ma'lumotlar AI modellariga uzatildi. Bu muhitni aniq idrok etishni ta'minladi. [3] Algoritmlarning hisoblash samaradorligini formal baholash maqsadida vaqt va resurs murakkabligi quyidagi umumiy ko'rinishda ifodalandi:

$$T_{model} = O(f(n)) = O(n^{\alpha} \log n + m^{\beta})$$

bu yerda:

T_{model} – modelning umumiy hisoblash vaqti;

n – kiruvchi ma'lumotlar hajmi;

m – sensorlar soni;

α, β – algoritmning murakkablik darajasini ifodalovchi koeffitsientlar.

Real vaqt tizimlari uchun muhim bo'lgan javob berish vaqti (RT) quyidagi cheklov orqali aniqlanadi:

$$RT = T_{proc} + T_{sync} + T_{inf} \leq T_{max}$$

bu yerda:

T_{proc} – ma'lumotlarni qayta ishlash vaqti;

T_{sync} – sensor ma'lumotlarini sinxronlashtirish vaqti;

T_{inf} – AI model inferensiya vaqti;

T_{max} – tizim uchun ruxsat etilgan maksimal kechikish.

Sensorlardan keluvchi ma'lumotlar vektori quyidagicha ifodalanadi:



$$\mathbf{z}_k = \begin{bmatrix} z_k^{cam} \\ z_k^{lidar} \\ z_k^{imu} \end{bmatrix}$$

Sensor shovqinlarini hisobga olgan holda kuzatuv modeli:

$$\mathbf{z}_k = H_k \mathbf{x}_k + \mathbf{v}_k, \mathbf{v}_k \sim \mathcal{N}(0, R_k)$$

bu yerda:

$\mathbf{x}_k$ – tizimning yashirin holat vektori;

H_k – kuzatuv matritsasi;

$\mathbf{v}_k$ – o'lchov shovqini;

R_k – shovqin kovariatsiya matritsasi.

Kalman filtri asosidagi sensor fusion jarayoni ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi. **Prognoz bosqichi:**

$$\hat{\mathbf{x}}_{k|k-1} = F_k \hat{\mathbf{x}}_{k-1|k-1} + B_k \mathbf{u}_k$$

$$P_{k|k-1} = F_k P_{k-1|k-1} F_k^T + Q_k$$

va yangilash bosqichi:

$$K_k = P_{k|k-1} H_k^T (H_k P_{k|k-1} H_k^T + R_k)^{-1}$$

$$\hat{\mathbf{x}}_{k|k} = \hat{\mathbf{x}}_{k|k-1} + K_k (\mathbf{z}_k - H_k \hat{\mathbf{x}}_{k|k-1})$$

$$P_{k|k} = (I - K_k H_k) P_{k|k-1}$$

bu yerda:

F_k – holat o'tish matritsasi;

Q_k – jarayon shovqini kovariatsiyasi;

P_k – holat xatosi kovariatsiyasi;

K_k – Kalman kuchaytirgichi.

Integratsiyalangan sensor ma'lumotlari asosida AI modelining umumiy idrok aniqligi (PA) quyidagi funksional bog'liqlik orqali baholandi:

$$PA = \sum_{i=1}^m w_i \cdot Acc_i \cdot e^{-\lambda RT}$$

bu yerda:

Acc_i – i-sensor asosidagi aniqlik;

w_i – sensor og'irlik koeffitsienti;

λ – real vaqt kechikishiga sezgirlik parametri.

Mazkur murakkab matematik model real vaqt avtonom tizimlarida sensor fusion va AI algoritmlarining hisoblash samaradorligi, aniqligi hamda vaqt cheklovlariga moslashuvini kompleks baholash imkonini beradi. Natijada muhitni aniq idrok

etish va optimal qaror qabul qilishni ta'minlovchi eng maqbul AI yondashuvlari aniqlanadi.


Harakatni boshqarish va rejalashtirish uchun model-predictive control yondashuvi qo'llanildi. Ushbu usul real vaqt sharoitida optimal boshqaruvni ta'minlaydi. Robotning matematik dinamik modeli ishlab chiqildi. Boshqaruv cheklovlari tizimga kiritildi. Xavfsizlik talablari nazorat parametrlariga qo'shildi. Harakat trayektoriyasi oldindan prognoz qilindi. Prognoz natijalari asosida optimal qarorlar ishlab chiqildi. Boshqaruv signallari doimiy ravishda yangilanib turdi. Model-predictive control algoritmi AI modellar bilan integratsiya qilindi. Neyron tarmoqlar muhit o'zgarishlarini bashorat qildi. Bu harakat aniqligini oshirishga xizmat qildi. Natijada to'qnashuv xavfi kamaytirildi. Tadqiqot natijalarini baholash uchun simulyatsiya va tajriba sinovlari o'tkazildi. Virtual muhitda avtonom robot harakati modellashtirildi. Turli murakkablikdagi ish ssenariylari ishlab chiqildi. Real vaqt AI algoritmlarining ishlash tezligi o'lchandi. Qaror qabul qilish aniqligi baholandi. Tizimning kechikish darajasi tahlil qilindi. Xavfsizlik ko'rsatkichlari alohida nazorat qilindi. Har bir algoritm bir xil sharoitlarda sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Natijalar taqqoslash jadval va grafiklarida aks ettirildi. Samaradorlik mezonlari asosida xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologiya tadqiqotning ishonchligini ta'minladi. [4]

Natijalar

Tadqiqot natijalari real vaqt sun'iy intellekt yechimlarining avtonom tizimlarda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Mashinani o'rganish asosidagi algoritmlar an'anaviy usullarga nisbatan tezroq qaror qabul qildi. Chuqur neyron tarmoqlar sensor ma'lumotlarini aniqroq tahlil qilish imkonini berdi. Vizual ma'lumotlarni qayta ishlashda konvolyutsion neyron tarmoqlar yuqori aniqlikni ta'minladi. Vaqt ketma-ketliklarini tahlil qilishda rekurrent neyron tarmoqlar samarali ishladi. Real vaqt cheklovlariga qaramay, algoritmlar barqaror ishlashni namoyon etdi. Javob berish vaqti sezilarli darajada qisqardi. O'rtacha kechikish darajasi minimal chegarada saqlanib qoldi. Bu tizimning tezkorligini



oshirdi. Natijalar robot harakatining silliqilgini yaxshilaganini ko‘rsatdi. Xatoliklar soni kamaydi. Umuman olganda, real vaqt AI yondashuvlari yuqori samaradorlikni ta‘minladi. Sensor integratsiyasi natijalari muhitni idrok etish aniqligining oshganini ko‘rsatdi. Bir nechta sensorlardan olingan ma‘lumotlar birlashtirilganda aniqlik sezilarli yaxshilandi. Kameralar va lazerli skanerlar kombinatsiyasi eng yaxshi natija berdi. Inertsia sensorlari harakatni aniqlashda muhim rol o‘ynadi. Sensor fusion usullari shovqin ta‘sirini kamaytirdi. Kalman filtri asosidagi integratsiya barqaror natijalarni taqdim etdi. Real vaqt rejimida ma‘lumotlar sinxron ishlovdan o‘tkazildi. Muhitdagi to‘siqlar aniq aniqlanib, kechikishsiz qayta ishlandi. Bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirdi. Sensor integratsiyasi xavfsizlik darajasini oshirdi. Noto‘g‘ri baholash holatlari kamaydi. Natijada tizimning ishonchligi ortdi. [5]



1-rasm. AI algoritmlari samaradorligi va o‘rtacha kechikish

Model-predictive control va AI integratsiyasi harakatni boshqarishda yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Harakat trayektoriyalari oldindan aniq prognoz qilindi. Optimal boshqaruv signallari real vaqt rejimida yangilanib turdi. Robot harakati barqaror va izchil bo‘ldi. To‘qnashuv ehtimoli sezilarli darajada kamaydi. Xavfsizlik talablariga rioya qilish darajasi oshdi. Murakkab muhitlarda ham tizim moslashuvchan ishladi. Qaror qabul qilish aniqligi yuqori bo‘ldi. Simulyatsiya natijalari real tajriba sinovlari bilan mos keldi. Harakat samaradorligi statistika orqali tasdiqlandi. Resurslardan foydalanish

optimallashtirildi. Ushbu natijalar real vaqt AI yechimlarining amaliy ahamiyatini ko‘rsatdi. Sensorlar va AI integratsiyasi asosida xavfsizlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. To‘siqlar va xavfli vaziyatlar real vaqt rejimida aniqlanib, oldini olish mumkinligi ko‘rsatildi. Algoritmlar kutilmagan harakatlarga tez javob berdi. Har bir sensor signali algoritmlar tomonidan sinxron ishlovdan o‘tkazildi. Noto‘g‘ri signal holatlari minimal darajaga tushirildi. Bu tizimning barqarorligini oshirdi. Model-predictive control algoritmi xavfsizlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynadi. Qaror qabul qilish jarayonida kechikishlar sezilarli kamaydi. Bu esa robotning real vaqt sharoitida samarali ishlashiga yordam berdi. Sensor va AI yondashuvlari murakkab muhitlarda ham muvaffaqiyatli natija berdi. Xavfsizlik ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ishonchli ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan tizimning umumiy samaradorligi oshgani aniqlandi. [6]

Aqlli ishlab chiqarish tizimlarida natijalar qo‘shimcha tahlil qilindi. Avtonom robotlar resurslardan samarali foydalanishni ta‘minladi. Ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan va tezlashdi. Real vaqt AI algoritmlari ishlab chiqarish liniyasida nosozliklarni oldini oldi. Harakat trayektoriyalari optimal ravishda boshqarildi. Xatoliklar soni kamaydi va mahsulot sifati oshdi. Sensorlardan kelgan ma‘lumotlar asosida qarorlar real vaqt rejimida qabul qilindi. Tizimning javob vaqti minimal darajada saqlanib qoldi. Model-predictive control va neyron tarmoqlar kombinatsiyasi samaradorlikni oshirdi. Natijalar jadval va grafiklarda tasdiqlandi. Bu yondashuv sanoat robotlarining amaliy imkoniyatlarini oshirdi. Umuman olganda, tizimning barqarorligi va xavfsizligi sezilarli darajada yaxshilandi. [7]

Muhokama

Tadqiqot natijalari real vaqt sun‘iy intellekt yechimlarining avtonom tizimlarda yuqori samaradorligini tasdiqladi. Mashinani o‘rganish va chuqur neyron tarmoqlar algoritmlari robot harakatini optimallashtirishda samarali ishladi. Sensor integratsiyasi tizimning atrof-muhitni aniq idrok etishini ta‘minladi. Model-predictive control algoritmi harakat trayektoriyasini oldindan prognoz qilish imkonini berdi. Qaror qabul qilish jarayoni real vaqt



cheklovlariga moslashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, AI yondashuvlari xavfsizlik darajasini oshiradi. To'qnashuv va xatolik ehtimoli sezilarli darajada kamaydi. [8] Bu yondashuvlar murakkab va dinamik muhitlarda ham samarali ishladi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlarda qayd etilgan tendensiyalar bilan uyg'unlikda. Shu bilan birga, real vaqt algoritmlarining samaradorligi qo'shimcha tajriba bilan tasdiqlandi. Natijalar sanoat va transport tizimlarida amaliy qo'llanish imkonini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar zamonaviy robototexnika uchun katta ahamiyatga ega. Sensor va AI integratsiyasining samaradorligi tahlil qilindi. Bir nechta sensorlardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish tizim barqarorligini oshirdi. Kalman filtri va sensor fusion algoritmlari shovqin ta'sirini kamaytirdi. Real vaqt rejimida qarorlar aniq va tez qabul qilindi. Bu yondashuvlar avtonom transport vositalari uchun ayniqsa muhimdir. Xavfsizlik ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanishini ko'rsatdi. Noto'g'ri signal holatlari minimal darajada saqlanib qoldi. Bu esa tizimning ishonchlilikini oshirdi. Model-predictive control algoritmi murakkab muhitlarda ham samarali ishladi. Tadqiqot natijalari sanoat robotlarining barqaror va xavfsiz ishlashiga asos yaratadi. AI yondashuvlarining tezkor javob berish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Natijalar amaliy tajribalar bilan uyg'unlashdi. Shu bilan tizimning real vaqt samaradorligi tasdiqlandi. [9]

Harakat boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlari batafsil tahlil qilindi. AI va MPC integratsiyasi robotning harakat trayektoriyasini optimallashtirdi. Natijalar murakkab ish sharoitlarida ham yuqori aniqlikni ko'rsatdi. Qaror qabul qilish tezligi sezilarli oshdi. Tizim kechikishlar va xatoliklardan minimal darajada ta'sirlandi. Bu yondashuvlar aqlli ishlab chiqarish tizimlari uchun samarali ekanligini ko'rsatadi. Resurslardan foydalanish optimallashtirildi. Xavfsizlik va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari kengaytirildi. Natijalar boshqa ilmiy ishlarda keltirilgan tendensiyalar bilan mos keldi. Real vaqt AI algoritmlari murakkab muhit sharoitida barqaror ishlashini tasdiqladi. Shu bilan tizimlar inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot amaliy

qo'llanish nuqtai nazaridan muhim xulosalar berdi. Tadqiqot natijalarining cheklovlari ham aniqlandi. Ba'zi murakkab muhitlarda real vaqt algoritmlarining javob vaqti biroz oshishi kuzatildi. Sensor integratsiyasi katta hajmdagi ma'lumotlarda kechikishlarga olib kelishi mumkin. Model-predictive control algoritmining hisoblash murakkabligi ba'zi tizimlarda cheklov yaratadi. Shu sababli, kelajak tadqiqotlar hisoblash samaradorligini oshirishga qaratilishi kerak. AI modellarini optimallashtirish va yengillashtirish tadqiqotning muhim yo'nalishidir. Eksperimental natijalar real sharoitlarda sinovdan o'tkazilishi zarur. Shuningdek, ko'p sensordan foydalanish tizim barqarorligini oshiradi, lekin murakkablikni oshiradi. Natijalar boshqa sohalarda ham qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tizimlar xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash imkoniyati mavjud. Tadqiqot cheklovlari kelajakdagi izlanishlar uchun asos bo'ldi. Bu esa real vaqt AI yechimlarining yanada rivojlanishiga turtki beradi. [10]

Xulosa

Ushbu tadqiqot real vaqt sun'iy intellekt yechimlarining avtonom tizimlar va robototexnikada samaradorligini tasdiqladi. Mashinani o'rganish va chuqur neyron tarmoqlar algoritmlari robot harakatini optimallashtirishga yordam berdi. Sensor integratsiyasi tizimning atrof-muhitni aniq idrok etishini ta'minladi. Model-predictive control algoritmi harakat trayektoriyasini oldindan prognoz qilish imkonini berdi. Qaror qabul qilish jarayoni real vaqt cheklovlariga moslashtirildi. Tadqiqot natijalari xavfsizlik darajasining oshganini ko'rsatdi. To'qnashuv va xatolik ehtimoli sezilarli darajada kamaydi. Natijalar sanoat robotlari va aqlli ishlab chiqarish tizimlarida amaliy qo'llanish imkoniyatini ko'rsatadi. Murakkab muhitlarda tizim barqaror ishladi. Resurslardan samarali foydalanish ta'minlandi. Shu bilan tizim inson omilini kamaytirishga xizmat qildi. Tadqiqot real vaqt AI yechimlarining amaliy va ilmiy ahamiyatini tasdiqladi.

Kelajak tadqiqotlar AI algoritmlarining samaradorligini yanada oshirishga qaratilishi zarur. Hisoblash murakkabligini kamaytirish va



kechikishlarni minimallashtirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ko‘p sensoridan foydalanish tizim barqarorligini oshiradi, lekin murakkablikni oshiradi. Algoritmlarni optimallashtirish xavfsizlik va samaradorlikni bir vaqtning o‘zida ta‘minlaydi. Eksperimental sinovlar real sharoitlarda qo‘llanilsa, natijalar yanada ishonchli bo‘ladi. Aqlli ishlab chiqarish va avtonom transport tizimlarida qo‘llanish imkoniyati kengayadi. Real vaqt AI algoritmlari murakkab muhitlarda barqaror ishlashini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari boshqa sohalarda ham qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, tizimlar xavfsiz va samarali ishlashni davom ettiradi. Kelajak izlanishlari algoritmlarni real vaqt sharoitida yanada optimallashtirishga qaratilishi lozim. Natijalar ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli xulosalarni berdi. Ushbu tadqiqot avtonom tizimlarda real vaqt AI yechimlarini rivojlantirishga asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep learning*. MIT Press.
2. Siciliano, B., & Khatib, O. (Eds.). (2016). *Springer handbook of robotics* (2nd ed.). Springer.
3. Sutton, R. S., & Barto, A. G. (2018). *Reinforcement learning: An introduction* (2nd ed.). MIT Press.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial intelligence: A modern approach* (4th ed.). Pearson.
5. Paden, B., Čáp, M., Yong, S. Z., Yershov, D., & Frazzoli, E. (2016). A survey of motion planning and control techniques for self-driving urban vehicles. *IEEE Transactions on Intelligent Vehicles*, 1(1), 33–55.
6. Thrun, S., Burgard, W., & Fox, D. (2021). *Probabilistic robotics* (2nd ed.). MIT Press.
7. Chen, T., Li, M., & Smola, A. J. (2015). Big data and AI for autonomous systems: Methods and applications. *Journal of Robotics and Autonomous Systems*, 70, 1–12. <https://doi.org/10.1016/j.robot.2015.03.001>
8. Camacho, E. F., & Bordons, C. (2013). *Model predictive control* (2nd ed.). Springer.

9. Levine, S., Finn, C., Darrell, T., & Abbeel, P. (2016). End-to-end training of deep visuomotor policies. *Journal of Machine Learning Research*, 17(39), 1–40.

10. Gao, F., & Wang, J. (2018). Sensor fusion techniques for autonomous robots: A review. *Robotics and Autonomous Systems*, 107, 11–23. <https://doi.org/10.1016/j.robot.2018.02.003>



GOOGLE EARTH KML FAYLLARI ASOSIDA IRRIGATSIYA TARMOGʻINI GRAF KOʻRINISHIGA AVTOMAT TARZDA AYLANTIRISH USULLARI

Qudaybergenov Adilbay Abatbaevich,
Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy
universiteti doktoranti, dotsent, t.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Google Earth muhitida tayyorlangan KML/KMZ fayllaridan irrigatsiya tarmogʻini hisoblashga tayyor yoʻnaltirilgan grafga avtomat aylantirish usuli taklif etilgan. Metod KML tuzilmasini oʻqish, koordinatalarni metr tizimiga normallashtirish, yaqinlik boʻyicha tutash va “nuqta–chiziq” proeksiyasi orqali tugunlarni kanal trassalariga birliktirish bosqichlarini qamrab oladi. Siniq chiziqlar tugundan tugunga segmentlanadi, kesishuv, uzilish va dublikat xatolari semantik qoidalar bilan tozalanadi. Atributlar name/description/ExtendedData maydonlaridan qoidaga asoslangan matn tahlil qilgich bilan ajratildi. Amalda Qizketken–Kegeyli misolida PK–s muvofiqligi va segment metrikalari hisoblandi.

Kalit soʻzlar: KML, Google Earth, irrigatsiya tarmogʻi, graf modeli, topologiya tiklash, yaqinlik boʻyicha tutash, GDAL/OGR, NetworkX, axborot

1. Kirish

Irrigatsiya tarmoqlarini raqamlashtirish sharoitida kanallar, gidrouzellar, yon suv olish nuqtalari va nasos inshootlarini tezkor inventarizatsiya qilish, fazoviy maʼlumotni tizimlashtirish hamda keyingi hisoblash modellarida foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Amaliyotda bu turdagi obʼektlarni tez belgilash va tahrirlash uchun Google Earth qulay muhit hisoblanib, u vizual geokontekstni taʼminlaydi, obʼektlarga atribut birliktirishga imkon beradi va natijani KML/KMZ formatlarida almashinuv fayli sifatida saqlaydi. Bu formatlardan foydalanish ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan, masalan, qurilish-geomaʼlumot integratsiyasida Google Earth muhitida KML orqali geometrik modellar va sayt tasvirlarini birlashtirish yechimlari taklif qilingan [1; 317–331-b.].

KML ning Google Earth bilan birgalikda qoʻllanilishi koʻp hollarda vizuallashtirish va qaror qabul qilishni qoʻllab-quvvatlash nuqtai nazaridan baholanadi. Jumladan, KML asosida Google Earth da sunami toʻlqinlarini spatiotemporal vizuallashtirish usuli taqdim etilgan [2; 1291–1299-b.]. Shuningdek, KML va Google Earth/Google Maps orqali zilzila ofati maʼlumotini ifodalash va tahlil qilish ishchi jarayoni (KML fayllarini avtomat hosil qilish va geomaʼlumotni koʻrsatish) bayon etilgan [3; 1001–1004-b.]. Real vaqt monitoring maʼlumotlarini Google Earth da KML

orqali almashish va koʻrsatish KML ning “faylga asoslangan maʼlumot almashinuv” vositasi sifatidagi amaliy ahamiyatini yanada tasdiqlaydi [4; 42-b.]. Landshaft loyihalashda esa Google Earth uchun KML hosil qilish va vizual tajriba berishga yoʻnaltirilgan tizimlar ishlab chiqilgani koʻrsatilgan [5; 11–15-b.].

Google Earth maʼlumotlarining ilmiy qiymati va cheklovlari (xususan, pozitsion aniqlik) ham tadqiq qilingan, yuqori aniqlikdagi Google Earth tasvir arxivining gorizontaal pozitsion aniqligi D.Potere muallifligidagi maqolada baholangan [6; 7973–7981-b.]. Shu yoʻnalishda, WGS-84 koordinatalaridan foydalanib IGS stansiyalarini Google Earth xaritasida KML orqali belgilash va aniqlikni tahlil qilish usuli ham taklif etilgan [7; 1053–1056-b.].

KML/Google Earth ishchi jarayonlari sohaga xos amaliy vazifalarda ham mustahkam oʻrin egallaydi. Masalan, sogʻliqni saqlash geoinformatikasida interaktiv xarita tuzishda Google Earth KML dan foydalanish namunasi berilgan [8; 22, 1476-072X-4–22-b.]. Qurilgan muhitni baholashda esa Google Earth da yoʻlak (sidewalk) masofalarini oʻlchash va KML/GIS almashtirishi amaliyoti qadamma-qadam koʻrsatilgan [9; 39-b.]. Taʼlim sohasida Google Earth asosida 3D virtual marshrutlarni KMZ koʻrinishida tayyorlash va tarqatish metodologiyasi ishlab chiqilgan [10; 8567–8591-b.].



Biroq ushbu ishlar, asosan, KML ni vizuallash va almashinuv formati sifatida qo'llashni yoritadi, irrigatsiya tarmoqlarida esa asosiy ehtiyoj – Google Earth da tuzilgan KML/KMZ ma'lumotlarini hisoblashga tayyor yo'naltirilgan graf shakliga avtomat aylantirishdir. Bunday $G = (V, E)$ graf ko'rinishida kanal uchastkalari, gidrouzellar va yon suv olish nuqtalari o'rtasidagi tugun-qirra munosabatlarini (topologiya), yo'nalishni (yuqori b'ef $\rightarrow$ pastki b'ef), hamda atributlarni (kanal nomi, piket, quvvat, boshqaruv jihozlari) formal saqlaydi. Shu sababli, KML formatdagi fayl ma'lumotlarini graf shakliga aylantirish irrigatsiya axborot tizimlarida suv taqsimoti, limitlash va boshqaruv algoritmlarini ishonchli qo'llash uchun dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan metodik vazifa hisoblanadi.

2. Materiallar va metodlar

Kirish ma'lumotlari. Tadqiqotda kirish ma'lumoti sifatida Google Earth muhitida tayyorlangan KML yoki KMZ fayllar qabul qilindi. KML hujjatlarida irrigatsiya ob'ektlari Placemark elementlari orqali ifodalanib, ularning fazoviy shakllari (geometriyasi) asosan ikki turga ajratildi:

- Point(gidrouzel, regulyator, nasos, yon suv olish nuqtasi);
- LineString(kanal yo'nalishi - ko'p segmentli sinik chiziq).

Har bir ob'ekt uchun name, description va mavjud bo'lganda ExtendedData maydonlari semantik atribut manbai sifatida qaraldi.

Tarmoqning formal modeli. Irrigatsiya tarmog'i yo'naltirilgan graf ko'rinishida formallashtirildi:

$$G = (V, E),$$

bu yerda V – tugunlar to'plami (inshootlar va topologik birikmalar), E – qirralar to'plami (kanal uchastkalari). Tugunlar toifasi sifatida $S \subset V$ manba tugunlari (daryodan olish nuqtalari, magistral kirishi), $C \subset V$ taqsimlash va boshqaruv tugunlari (gidrouzel, regulyator), hamda $T \subset V$ terminal tugunlar (xo'jaliklararo, fermer kanallari uchun chiqish nuqtalari) ajratildi. $e \in E$ qirra har doim ikki tugunni

bog'laydi va L_e (sinik chiziqlar) kanal geometriyasi hamda metama'lumotlar bilan tavsiflanadi.

KML ma'lumotini o'qish va atributlarni ajratish. KML/KMZ hujjatlaridan geometriya va atributlarni ajratishda ikki bosqichli yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda KML tuzilmasi (Folder ierarxiyasi, Placemark) tahlil qilinib, har bir ob'ekt uchun (name, description, ExtendedData) to'plami olindi. Ikkinchi bosqichda geometriya turi aniqlandi va LineString koordinatalar ketma-ketligi

$$p_1, p_2, \dots, p_m, \quad p_k = (\lambda_k, \varphi_k, h_k)$$

ko'rinishida saqlandi. Bu yerda λ – uzunlik, φ – kenglik, h – balandlik (ixtiyoriy). Point geometriyalar uchun yagona koordinata $p = (\lambda, \varphi, h)$ qabul qilindi.

Geometrik normallashtirish va masofalar. KML koordinatalari geodezik tizimda (WGS84) berilgani sababli topologiya tiklashda "yaqinlik" va uzunlik hisoblarini barqaror qilish uchun koordinatalar mahalliy tekislikka o'tkazildi

$$(\lambda, \varphi) \rightarrow (x, y)$$

Ushbu qadamdan keyin qirra uzunligi sinik chiziqlar bo'yicha yig'indili masofa sifatida hisoblandi:

$$l_e = \sum_{k=1}^{m-1} \sqrt{(x_{k+1} - x_k)^2 + (y_{k+1} - y_k)^2}$$

Bu normallashtirish keyingi yaqinlik bo'yicha tutash va segmentatsiya bosqichlarida ε yo'l qo'yiladigan og'ish parametrini metr birlikda izchil qo'llashga imkon berdi.

Tugunlarni aniqlash va birlashtirish. Tugunlar ikki manbadan shakllantirildi: KML da mavjud Point ob'ektlar; LineString lar o'rtasidagi topologik zarur nuqtalar (kesishuv va tutashuv nuqtalari). Koordinata xatosi yoki raqamlashtirishdagi "deyarli tutash" holatlarni bartaraf etish uchun tugunlarni birlashtirish qoidasi joriy etildi: agar ikki nuqta orasidagi masofa belgilangan ε dan kichik bo'lsa, ular bitta tugunga agregatsiya qilindi:

$$v_i \equiv v_j \Leftrightarrow d(v_i, v_j) \leq \varepsilon$$



Bu yerda $d(v_i, v_j)$ – tekislikdagi Evklid masofa. Hisoblash samaradorligi uchun nuqtalar to'plamida yaqin qo'shnilarni topish fazoviy indeks (masalan, R-tree) orqali amalga oshirildi, bu umumiy murakkablikni amalda $O(N \log N)$ atrofida ushlab turishga xizmat qildi.

1. Point tugunlarining kanalga proeksiyasi va yaqin tutashuv nuqtalari;

2. kanallar o'zaro kesishuv nuqtalari (agar ular real tutashuv deb qabul qilinsa);

3. raqamlashtirish natijasida paydo bo'lgan "uzilish" nuqtalari.

V tugunni L kanalga biriktirishda "nuqta-chiziq" masofasi qo'llanildi:

$$\delta(v, L) = \min_{q \in L} |v - q|$$

Agar $\delta(v, L) \leq \varepsilon_{\text{attach}}$ bo'lsa, V ushbu kanalning tugunlar ro'yxatiga qo'shildi va siniq chiziqlar shu nuqtada kesildi. Natijada har bir kanal geometriyasi bir nechta $e_1, e_2, \dots, e_r$ qirralarga ajralib, har bir $e_k = (u_k, v_k)$ uchun L_{e_k} segment geometriyasi saqlandi.

Yo'nalishni belgilash usuli. Irrigatsiya tarmog'ida oqim yo'nalishi fizik ma'noga ega bo'lgani uchun graf yo'naltirilgan qilib qurildi. Yo'nalishni belgilashda birlashtirilgan qoidaviy yondashuv qo'llanildi.

Birinchi qoida semantik yo'nalish: agar atributlarda "manba-qabul", " $A \rightarrow B$ ", "yuqori b'ef/pastki b'ef" kabi belgilar mavjud bo'lsa, qirra yo'nalishi shu semantik ko'rsatkichdan kelib chiqib belgilandi.

Ikkinchi qoida topologik yo'nalish: belgilangan S manba tugunlardan boshlab tarmoq bo'ylab yo'nalishni tarqatish (propagation) amalga oshirildi. Agar $s \in S$ ma'lum bo'lsa, undan chiquvchi qirralar "oldinga" deb belgilanib, keyingi tugunlarda birlamchi yo'nalish qoidasi buzilmasligi tekshirildi.

Uchinchi qoida geometrik yo'nalish: agar h balandlik ma'lum bo'lsa, h balandlik kamayish tomonga yo'naltirish ehtimoliy qoida sifatida ishlatildi:

$$u \rightarrow v \text{ agar } h_u > h_v,$$

lekin bu qoida faqat semantik ёки топологик qoida etarli bo'lmagan holatlarida qo'llanildi.

Atributlarni xaritalash va turga ajratish.

Graf elementlariga atribut berishda KML dagi name / description / ExtendedData maydonlaridagi kalit qiymatlar qoidaviy matn ajratgich orqali ajratildi.

$\tau(v)$ tugun turi (gidrouzel, regulyator, nasos, yon suv olish nuqtasi, terminal) nom va tavsifdagi kalit so'zlar hamda Folder ierarxiyasiga tayanilgan holda belgilandi. Qirralar uchun kanal nomi, piket, tashkilot, $Q^{\max}$ loyiha sarfi kabi metama'lumotlar meros qilib olindi, ya'ni bir LineString dan hosil bo'lgan barcha segment qirralar shu atributlarni saqladi.

Topologik tozalash va validatsiyalash. Hosil qilingan graf quyidagi formal tekshiruvlardan o'tkazildi.

Birinchi tekshiruv uzluksizlik: grafda ortiqcha ko'p ulangan komponentalar bo'lsa, bu raqamlashtirishda uzilish yoki yaqinlik bo'yicha tutash parametrlari noto'g'ri tanlanganini anglatadi.

Ikkinchi tekshiruv darajalar mantig'i: irrigatsiya tarmog'ida magistraldan tarqalish xususiyati sababli ba'zi tugunlarda chiquvchi daraja $\deg^+(v)$ yuqori bo'lishi mumkin, biroq "hech qayerga ulanmagan" qirralar va yopiq siklik konturlar (agar u tarmoq tabiatiga mos kelmasa) xatolar sifatida belgilandi.

Uchinchi tekshiruv geometriya mosligi: har bir qirra uchun boshlanish va tugash nuqtalarining tegishli tugun koordinatalari bilan bir xil yoki ε doirasida yaqin bo'lishi shart qilib qo'yildi.

Natijada xatolar sinfi sifatida uzilish, dublikat, noto'g'ri kesishuv talqini, yo'nalish ziddiyati qayd etildi va ularni tuzatish uchun ε , $\varepsilon_{\text{attach}}$ parametrlarini qayta tanlash hamda semantik qoidalarni boyitish amaliyoti qo'llanildi.

Eksport va qayta ishlatish. Yakunlangach, graf ma'lumoti ikki sinf formatda saqlanadi: hisoblash uchun graf formatlari (masalan, GraphML yoki JSON); bazaga yuklash uchun jadval formatlari (tugunlar



jadvali va qirralar jadvali). Tugunlar jadvalida $id_v, x_v, y_v, \tau(v)$ va asosiy atributlar, qirralar jadvalida esa id_e, u, v, l_e , kanal atributlari va geometriya siniq chiziqlari saqlanadi. Shu yo‘l bilan natija NetworkX muhitida algoritmlar uchun ham, Neo4j kabi graf MMBTda uzoq muddatli saqlash va so‘rovlar uchun ham qayta ishlatishga tayyor holatga keltiriladi.

3. Natijalar

Kirish ma’lumotining tarkibi va ishchi parametrlar. Tajriba qismida Uzbekistan_Irrigation_System.kml faylidan foydalanildi. Fayl tarkibida 4 ta LineString (chiziqli ob’ekt) va 61 ta Point (nuqtaviy ob’ekt), jami 65 ta Placemark mavjud. Tadqiqot maqsadiga muvofiq, natijalar faqat ikki asosiy kanal bo‘yicha shakllantirildi:

- Qizketken magistral kanali (LineString)
- Kegeyli xo‘jaliklararo kanali (LineString)

Nuqtaviy ob’ektlarni kanal chizig‘iga biriktirishda “yaqinlik” mezonini quyidagicha tanlandi:

$$\varepsilon_{attach} = 60 \text{ m}$$

Ushbu qiymat Google Earth muhitidagi raqamlashtirish xatosi va LineString generatsiyasi sharoitida nuqta–chiziq muvofiqligini barqaror ta’minlash uchun yetarli deb qabul qilindi.

Qizketken va Kegeyli kanallarining geometrik ko‘rsatkichlar. Har bir kanal uchun siniq chiziqlar uzunligi hisoblandi va ε_{attach} sharti bilan shu kanalga tegishli tugunlar (Point ob’ektlari) ajratib olindi. 1-jadvalda asosiy yig‘ma ko‘rsatkichlar keltiriladi.

1-jadval. Kanallar bo‘yicha umumiy statistika

($\varepsilon_{attach} = 60 \text{ m}$)

Kanal	LineString nuqtalari soni	Uzunlik, km	Kanalga biriktirilgan tugunlar soni	Tugunlar qamrovi, %
Qizketken magistral kanali	27	25.037	35	100
Kegeyli xo‘jaliklararo kanali	219	55.112	15	100

Ko‘rinib turibdiki, Qizketken magistralida nasos tugunlari ustun, Kegeyli kanalida esa asosiy qism yon suv olish nuqtalari hisobiga to‘liq shakllangan. Shu bilan birga, atributlar yagona formatga normallashtirildi va kanallar bo‘yicha ham biriktirilgan tugunlar qamrovi 100% darajaga yetkazildi.

Kegeyli kanalini graf qirralariga avtomat segmentatsiya qilish natijalari. Kegeyli kanali KML da bitta LineString sifatida berilgan bo‘lsa-da, kanal uchastkalari bo‘yicha graf tuzish uchun uni “tugundan tugunga” segmentlarga ajratish amalga oshirildi. Segmentatsiya uchun tayanch nuqtalar

- Regulyator → Kegeyli-0 (boshlanish)
- Gidrouzel «Dustlik» PK 114+40
- Gidrouzel «May-jap» PK 366+00
- Gidrouzel «Bes-jap» PK 554+00


Ushbu nuqtalar kanal chizig‘iga proeksiya qilinib, kanal bo‘ylab yig‘ma S masofa hisoblandi va siniq chiziqlar 3 ta segmentga ajratildi. Geometrik uzunliklar PK (piket) bo‘yicha nazariy uzunliklar bilan solishtirildi.

2-jadval. Kegeyli kanali segmentatsiyasi va PK nazorati

Segment	Bosh nuqta → Oxir nuqta	Geometrik uzunlik, m	PK farqi, m	Xato, m	Xato, %
Kegeyli-1	0+00 → 114+40	11 436.2	11 440	−3.8	−0.033
Kegeyli-2	114+40 → 366+00	25 155.8	25 160	−4.2	−0.016
Kegeyli-3	366+00 → 554+00	18 667.3	18 800	−132.7	−0.706

Natijalar Kegeyli-1 va Kegeyli-2 uchastkalarida geometrik uzunlikning PK bilan muvofiqligi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Kegeyli-3 uchastkada nisbiy og‘ish ozgina kattaroq bo‘lib, bu asosan kanal izining generatsiyasi, burilishlar va KML poliliniya detallashuv darajasi bilan izohlanadi. Biroq, segmentatsiyaning umumiy ishonchliligi graf qirralarini shakllantirish uchun yetarli hisoblanadi.





1-rasm. Qizketken magistral kanali va Kegeyli xo'jaliklararo kanali topologiyasining yo'naltirilgan graf sxemasi (PlantUML)


Qizketken magistral kanalida PK bo'yicha geometrik muvofiqlik natijalari. Qizketken magistralida nasos tugunlari nomidagi PK belgilari asosida PK qiymatlari ajratib olindi va ular kanal bo'yicha proeksiya orqali hisoblangan yig'ma masofa S bilan solishtirildi. Eng kichik kvadratlar usulida quyidagi chiziqli bog'lanish olindi (2-rasm)

$$s \approx 0.992978 \cdot PK + 106.3.$$

Muvofiqlik ko'rsatkichlari

$$R^2 = 0.999633, RMSE \approx 111.7 \text{ m}.$$

Yuqori R^2 Qizketken bo'ylab tugunlarning tartibini (kanal yo'nalishi bo'yicha) ishonchli tiklash mumkinligini, ya'ni KML $\rightarrow$ graf konvertatsiyasida "topologik tartib" deyarli yo'qotilmasligini tasdiqlaydi.



2-rasm. $PK - s$ muvofiqligi bo'yicha eng kichik kvadratlar regressiyasi:

$$s = 0.992978 \cdot PK + 106.3, \quad R^2 = 0.999633, \quad RMSE = 111.7 \text{ m}.$$

4. Xulosa

Google Earth muhitida tayyorlangan KML/KMZ ma'lumotlarini irrigatsiya tarmog'i uchun hisoblashga tayyor yo'naltirilgan graf shakliga avtomat konvertatsiya qilish ishchi jarayoni taklif etildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Usul KML tuzilmasini o'qish, koordinatalarni metr tizimiga normallashtirish, yaqinlik parametrlari orqali tugunlarni birlashtirish, "nuqta-chiziq" proeksiyasi asosida kanallarga birlashtirish, sinig chiziqlarni "tugundan tugunga" segmentlarga ajratish hamda atributlarni qoidaga asoslangan matn tahlil qilgich orqali standartlashtirish bosqichlariga tayanadi. Tajriba natijalari Qizketken magistral kanalida PK-yig'ma masofa bog'lanishi deyarli chiziqli ekanini va topologik tartibning ishonchli tiklanishini ko'rsatdi. Kegeyli kanalini segmentatsiya qilishda birinchi ikki segmentda PK bilan muvofiqlik yuqori bo'lib, uchinchi segmentdagi qoldiq og'ish sinig chiziqlar detallashuvi bilan izohlanishi mumkin. Umuman, taklif etilgan yondashuv irrigatsiya axborot tizimlarida suv taqsimoti, limitlash va boshqaruv algoritmlarini ishonchli ishlatish uchun graf ma'lumotini tez shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. D. Li, M. Lu, "Integrating geometric models, site images and GIS based on Google Earth and Keyhole Markup Language," *Automation in Construction*, vol. 89, pp. 317–331, May 2018, doi: 10.1016/j.autcon.2018.02.002.
